

S.M.Nazarova



O'QUV QO'LLANMA

**O'ZBEKISTON OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

S.M.Nazarova

TUPROQ FIZIKASI

O'QUV QO'LLANMA

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2022**

UO'K 631.412(075.8)

40.3ya73

N 18

Nazarova, S. M.

Tuproq fizikasi [Matn]: o'quv qo'llanma / S. M. Nazarov. – Buxoro : "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2022. –132 b.

KBK 40.3ya73

O'quv qo'llanma 60810700 – Agrokimyo va agrotuproqshunoslik ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, unda tuproq fizikasi fani predmeti, metodlari, dala va laboratoriya ishlarini bajarishga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Ma'ruzalar matni zamonaviy pedtexnologiya talablariga mos ravishda tayyorlanib, unda o'quv maqsadlari, mavzuda ko'rib chiqiladigan muammolar, nazorat savollari va mustaqil ish topshiriqlari keltirilgan.

**Mas'ul muharrir:
q.x.f.n., dots. S.S.Xayriyev**

**Taqrizchi:
Biologiya fanlari doktori, professor S.S.Bo'riyev.**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berildi. Ro'yxatga olish raqami 302-0930.

ISBN 978-9943-8964-1-3

MUNDARIJA

1-mavzu. Tuproq fizikasi faniga kirish	4
2-mavzu: Tuproq qattiq qismi	7
3-mavzu. Механик элементларни турлари	18
4- mavzu. Tuproqning umumiy fizik xossalari	25
9-mavzu: Tuproqning gidrologik konstantalari	31
10- mavzu Tuproqning suv rejimi	43
Laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha ko'rsatmalar	57
1-laboratoriya ishi. Tuproq namunalarini fizik analizga tayyorlash.	61
2 - laboratoriya ishi. Tuproqdagi gigroskopik suvni aniqlash.....	65
3- laboratoriya ishi. Tuproq qattiq fazasining solishtirma massasi.	67
4-laboratoriya ishi. Tuproqning mexanik tarkibini kachinskiy usuli bilan aniqlash	70
5-laboratoriya ishi. Tuproq mikroagregat tarkibini kachinskiy usulida aniqlash.	80
6-laboratoriya ishi. Tuproqdagi maksimal gigroskopik suvni aniqlash.....	88
7-laboratoriya ishi. Tuproqning dala, to'la va kapillyar nam sig'imlarini aniqlash.....	91
8-laboratoriya ishi. Plastiklikning quyi va yuqori chegarasini aniqlash.....	97
Testlar	101
Asosiy adabiyotlar	128

1-MAVZU. TUPROQ FIZIKASI FANIGA KIRISH

Reja

1. Tuproq fizikasi fani vazifalari.
2. Tuproq fizikasi fani bo‘limlari.
3. Tuproq qattiq qismi fizikasi

Tayanch tushuncha va iboralar: tuproq tadqiqot usullari, mexanik va mikroagregat tarkib, tuproq donadorligi, suv-fizik xossalari, fizik-mexanik xossalari, fizik jarayon, hajm va solishtirma og’irlik, tuproq g’ovakligi, maksimal gigroskopiklik, suv o’tkazuvchanlik.

Bugungi kunda ekinlar hosildorligini oshirish, avvalo tuproqning xossa va xususiyatlarini yaxshi o‘rganishni taqozo qiladi. Kundalik hollarda qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish tajribasida tuproqning xossalari, ayniqsa uning fizik rejimlari e’tibordan chetda qolib, ekinlar hosildorligi asosiy mineral va organik o‘gitlar solish hisobiga oshiriladi.

Akademik V.R.Vilyams ta’biri bilan aytganda, tuproq unumdarligi o‘simpliklar hosildorligini muttasil oshiruvchi hayotiy faktor-oziq, suv, havo, issiqlik va yorug‘lik hisoblanadi. Bu faktorlar mustaqil hech qachon bir-birini o‘rmini almashtirmaydigan, lekin o‘zaro munosabatda va bog‘liqlikda bo‘ladi. Bu faktorlarni boshqarish, eng oldin tuproqning fizik xossalari bilishni va ularni boshqarish tadbirlarini o‘rganishni taqozo qiladi.

Tuproq sho‘rlanish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina nazariy masalalarni hal etishda tuproq va uning fizik xossalari bilish muhim ahamiyatga ega. Masalan, tuproq tarkibidagi suv va unda erigan tuzlarning harakatlanish tezligi, to‘planishi, parchalanishi va shunga o‘xhash jarayonlar bir xil mexanik tarkibli hamda murakkab mexanik tarkibli (qat-qat yotqiziqli gruntlar) tuproq-grunt profilida o‘yapm xos xarakterga ega bo‘ladi. Shuning uchun tuproq fizikasimi mukammal o‘rganish uning unumdarligi sirlarini ochishda yordam beradi.

Tuproq fizikasi kursi tuproqning fizik, suv-fizik va fizik-mexanik xususiyatlarini hamda undagi fizik jarayonlar va rejimlar majmuasini o‘rganadi. Bu jarayonlar qishloq va o‘rmon xo‘jalngi,

yo‘l, uy joy, sanitariya hamda kurort muassasalari qurilish maqsadlariga tadbiq etishning asosiy tadbirlarini ko‘rsatib beradi va ishlab chiqadi.

Tuproq fizikasi quyidagi 4 ta katta bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘lim-tuproq qattiq qismi fizikasini o‘rganadi. U tuproqning mexanik va mikroagregat tarkiblari (mexanik elementlarning kelib chiqishi, ularning petrografik, mineralogik tarkiblari va ximiyaviy xossalari, mexanik elementlarining katta kichikligiga qarab tasifini, mexanik va mikroagregat tarkibini o‘rganish uslublari tuproqlarning mexanik tarkibiga ko‘ra tasifi mexanik tarkibiga ko‘ra bonitirovka qilishni, mexanik tarkibini o‘rganishning axamiyatini va olingan ma’lumotlarni rasmiylashgtirishni: ularning strukturali va disperslik koeffitsientlarini): tuproqning solishtirma yuzasi va erkin yuza energiyasini; tuproqning solishtirma va hajm massalarini, g‘ovakligi hamda ularni o‘rganish uslublarini, tuproq strukturasini, tuproq qattiq fazasining fizik-mexanik xossalari: plastikligi, yopishqoqligi, bo‘kishi, cho‘kishi, ishlov asboblariga qarshiligi, ularni o‘rganish metodlarini o‘z ichiga oladi.

Ikkinci bo‘lim-tuproq suyuq qismi fizikasi, bunda tuproq tarkibida mustahkam bog’langan (gigroskopik, minimal gigroskopik, o‘simlikning so‘lish namligi), bo‘sh bog’langan (maksimal molekulyar suv) va erkin (dala nam sig‘imi, kapillyar va to‘la nam sig‘imi) kapillyar, gidroskopik suvlarning fizik xossalari, tuproqning suv rejimi tiplari, tipchalari, suv o’tkazuvchanlik, kapillyarlik xossalari, sizot suvlar, ularning kelib chiqishi va suv xossalariiga ta’siri, qurg’oqchilik va unga qarshi kurashish metodlari, tuproq suvining fizik xossalariini o‘rganadi.

Uchinchi bo‘lim-Tuproq xavosining fizikasi tuproq tarkibini, uning o‘zgarishini, undagi xavo va gazlar almashinuvini, tuproq xavo rejimi va unda boshqarishni, tuproq xavosi tarkibini o‘rganish uslublarini o‘z ichiga oladi.

To‘rtinchi bo‘lim-tuproqning qattiq, suyuq qismi va xavosining termik (tuproq temperaturasi, albedo, temperatura va issiqlik o’tkazuvchanlik, issiqlik rejimi va uni o‘rganish metodlari) va elektr o’tkazuvchanlik xossalariini o‘z ichiga oladi.

Tuproq fizik xossalari va rejimlari V.V.Dokuchayev taklif etgan geografik hamda morfologik metodlari aniqlanadi. Bunga dala

kuzatishlari, maxsus metodlari, zaruriyat ehtiyoji bilan tuproq sharoitlarini modullashtirish metodlari xam kiradi.

Tuproqdagagi g'ovaklar sistemasi hamda mexanik elementlar va agregatlarini joylashish tartibini o'rganish hamda solishtirma yuzani xisoblash maqsadida mikroskopiyadan, tuproqlarning mineralogik tarkibini rentgenografiya va elektromikroskopiya metodlari yordamida o'rganiladi.

Tuproq qattiq qismi fizikasini o'rganadi. U tuproqning mexanik va mikroagregat tarkiblari (mexanik elementlarning kelib chiqishi, ularning petrografik, mineralogik tarkiblari va ximiyaviy xossalari, mexanik elementlarning katta - kichikligiga qarab klassifikatsiyasini, mexanik va mikroagregat tarkibini o'rganish metodlari va usullarini tuproqlarning mexanik tarkibiga ko'ra klassifikatsiyasini, tarkibiga ko'ra bonitirovka qilishni, mexanik tarkibini o'rganish-ning ahamiyatini va olingan ma'lumotlarni rasmiylashtirishni: ularning strukturali va disperslik koeffitsentlarini); tuproqniig solishtirma yuzasi va erkin yuza energiyasini; tuproqning solishtirma va hajm massalarini, g'ovakligi hamda ularni o'rganish metodlarini, tuproq strukturasini, tuproq qattiq fazasining fizik - mexanik xossalari: plastikligi, yopishqoqligi, bo'kishi, cho'kishi, ishlov asboblariga karshiligi, ularni o'rganish metodlarini o'z ichiga oladi.

Tuproq suyuq qismi fizikasi, bunda tuproq tarkibida mustahkam bog'langan (gigroskopik, minimal gigroskopik, o'simlikning so'lish namligi), bo'sh bog'langan (maksimal molekulyar suv) va erkin (dala nam sig'imi, kapillyar va to'la nam sig'imi) kapillyar, gigroskopik suvlarning fizik xossalari, tuproqning suv reji-mi tiplari, tipchalari, suv o'tkazuvchanlik, kapillyarlik xossalari, sizot suvlari, ularning kelib chiqishi va suv xossalariiga ta'siri, qurg'oqchilik va unga qarshi kurashish metodlari, tuproq suvining fizik xossalariini o'rganadi.

Tuproq havosining fizikasi tuproq tarkibini, uning o'zgarishini, undagi havo va gazlar almashinuvini, tuproq havo rejimi va uni boshqarishni, tuproq havosi tarkibini o'rganish metodlarini o'z ichiga oladi.

Tuproqning qattiq, suyuq qismi va havosining termik (tuproq temperaturasi, albedo, temperatura va issiqlik o'tkazuvchanlik, issiqlik rejimi va uni o'rganish metodlari) va elektr o'tkazuvchanlik xossalari o'z ichiga oladi.

Tuproqning qattiq qismi mineral, organik va organo-mineral jinslardan iborat bo'lsa, unda saqlanadigan suv yoki boshqacha qilib aytganda tuproq eritmasi - uning suv bilan band bo'limgan kovaklarida saqlangan kislorod, azot, karbonat angidrid va shunga o'xshash gazlar esa uning havo fazasini tashkil etadi.

Tuproqning rivojlanishida uning uchala qismi hamma - vaqt o'zaro uzviy bog'langan tuproq hosil qiluvchi omillar (ona jins, yerning relefni va yoshi, organik dunyo va odam) ta'sirida o'zgarib boradi. Tuproqning bu uchala qismi o'zaro va bevosita bog'langan bo'lib tashqi faktorlar ta'sirida o'zgaradi.

Nazorat savollari

- 1.Tuproq fizikasi fani nimani o'rganadi?
- 2.Tuproq fizikasi fanini o'rganish zamонавиъи asbob-uskunallardan foydalanishda asosiy maqsad nima?
- 3.Tuproq fizikasi fani nima uchun tuproq mikrobiologiyasi, biokimyosi, biofizikasi, tuproqshunoslik, melioratsiya va dehqonchilik bilan uzviy bog'liq?
- 4.Tuproqshunoslik va dehqonchilik fani tuproq fizikasi bilan qanday bog'langan?
- 5.Tuproq fizikasi fanining tadqiqot ob'ektlariga nimalar kiradi?
- 6.Tuproq fizikasi fanining ob'ekti o'simlik, suv, havo va tuproqning qanday ahamiyati bor?
- 7.Tuproq fizikasi tadqiqot usullari qaysi guruhlarga bo'linadi?

2-MAVZU: TUPROQ QATTIQ QISMI

Reja

- 1.Mexanik (granulometrik) elementlar va agregatlar
- 2.Mexanik elementlarning kelib chiqishi va tarkibi
- 3.Mexanik elementlarni tasnifi
- 4.Tuproqning mexanik tarkibiga ko'ra tasnifi

Tayanch so'z va iboralar: ona jins, yerning relefni va yoshi, organik dunyo va odam, tashqi faktorlar, chag'irtosh, shag'al, yirik qumlar

Tuproqning qattik, fazasini tashkil qilgan mexanikaviy va agregat jismlarining kelib chiqishi, tarkibi, mexanik elementlarning tasnifi, uning mohiyati, disperslik va strukturali koeffitsentlar, tuproqning mexanik tarkibiga ko‘ra tasnifi, uning ahamiyati bayon etiladi.

Tuproq hozirgi zamon tuproqshunoslik fani tushunchasida uch qismidan iborat murakkab sistemadir.

Tuproqning qattiq qismi mineral, organik va organomineral jinslardan iborat bo‘dsa, unda saqlanadigan suv yoki boshqacha qilib aytganda tuproq eritmasi — uning suv bilan band bo‘lmagan kavaklarda saqlangan kislород, azot, karbonat angidrid va shunga o‘xhash gazlar esa uning havo fazasini tashkil etadi.

Tuproqning rivojlanishida uning uchala qismi xamma vaqt uzviy bog‘langan tuproq hosil qiluvchi omillar (ona jins, yerning relefi va yoshi, organik dunyo va odam) ta’sirida o‘zgarib boradi. Tuproqning bu uchala qismi o‘zaro va bevosita bog‘langan bo‘lib tashqi faktorlar ta’sirida o‘zgaradi.

Tuproq va gruntni dalada yoki laboratoriyyada tekshirishda uning qattiq, qismining mexanik va agregatlik tarkibini o‘rganish juda muhim.

Bu tuproq kesmasining morfologiyasini aniqlashda tuproq xaritalarida ularni guppalarga ajratishda ham kerak bo‘ladi. Umuman olganda biron bir turdagи tuproqni o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiqot ishlarini olib borayotganda uning mexanik tarkibini bilish shart. Shuning uchun ham tuproqshunoslikda mexanik tarkibni o‘rganitga doir bir qancha uslublar mavjud. Bu uslublarni maxsus bo‘limlarda bayon etamsh.

Mexanik (granulometrik) elementlar va agregatlar

Tuproqning paydo bo‘lishi - bu eng oldin nurash qobig‘ining ustki qismida yotuvchi ona jinsning murakkab jarayonlar (mexanik, ximiyaviy va biologik nurashlar) mahsuli xisoblanadi. Bunday jarayon natijasida xosil bo‘lgan tuproq qattiq qismining xar xil kattakichiklikdagi va xar xil shakldagi mineral va tog‘ jinslari bo‘lakchalaridan tortib kolloidlar deb atalgan eng mayda zarrachalarni o‘z ichiga oladi. Nurash tufayli hosil bo‘lgan tog‘ jinslari hamda minerallarning ayrim zarrachalari mexanik elementlar deyiladi.

Tuproq fizikasi adabiyotlarida mexanik element to‘g‘risida xar xil ta’riflar mavjud.

K.K.Gedroys mexanik elementlar: «ayrim mikro, ultra va amikrokristallar»ni kiritadi. A.F.Tyulin va I.N.Antipov - Karatayev mexanik elementlar deganda, o‘zaro ximiyaviy munosabatda bo‘lgan ayrim zarrachalarni tushunadi. A.L.Rode yuqoridagi ta’riflarga quyidagi majburiy shartni kiritadi: Mexanik elementlarning har bir zarrachasi ma’lum bir kristallik panjarada bo‘lishi lozim.

A.A.Rodening bu ta’rifida quyidagi narsani tanqidiy tushunish shart: birinchidan, mexanik elementlar faqatgina kristal shaklida bo‘lmasdan, balki amorf hodda uchrashi mumkim. Masalan, kremniy oksidi, temir va alyuminiy gidrooksidlari, chirindi moddalari va h.k. ikkinchidan, tumroqda murakkab kristall panjaraga ega bo‘lgan tog‘ jinslari bo‘lakchalari mexanik elementlar uchraydi.

Granitning mexanik zarrachasida ikki va undan ortiq kristallik panjara saqlanadi.

Yuqorida keltirilgan mulohazalardan xulosa qilib mexanik element to‘g‘risida quyidagi ta’rifi beramiz.

Mexanik elementlar nurash qobig‘idagi jins va minerallarning xar xil kattalikda va shakldagi o‘zaro o‘zaro ximiyaviy bog‘liqlikda bo‘lgan bo‘lak va bo‘lakchalar, shuningdek amorf birikmalardir.

Tabiiy sharoitda mexanik elementlar hamma vaqt o‘zgarishda, ya’ni ular tuprokda mavjud bo‘lgan har xil organik kislotalar, oxak moddasi ta’sirida yoki mexanik mavjud yuza tortilish energiyasiga hamda Vander-Vaals kuchlari ta’sirida birikib tuproq agregatchalarini va bu agregatchalar o‘zaro birikishda davom etib tuproq aggregatlarini vujudga keltiradi. Tuproqning eng mayda zarrachasi — kolloidlarda agregat hosil qiluvchi ichki kuchlar yaxshi ifodalanadi. Shuning uchun xam mexanik tarkib jixatdan og‘ir tuproqlarda aggregatlarning xosil bo‘lishi uchun katta imkoniyatlar mavjud. Akademik K.K.Gedroys taklifiga ko‘ra 0,25 mm dan kichik bo‘lakchalarni mikroagregatlar, 0,25 mm dan katta bo‘lakchalarni makroagregatlar deb atash shartli qabul qilingan.

Mexanik elementlarning kelib chiqishi va tarkibi

Tuproq mexanik elementlari mineral, organik va organo-mineral (gumatlar) singari gruppalarga ajratib, mineral elementlar (torfli va o‘ta chiqindili tuproqlardan tashqari) tuproqning asosiy qismini (tuproq massasiga nisbatan 90 - 98 % ni) tashkil etsa, gumatlar va organik kislotalar esa uning massasiga nisbatan 2-10%

chasini tashkil etadi. Tuproqning bu mexanik elementlari tog‘ jinslarining nurash natijasida vujudga keladi. Tuproqda fizik, ximiyaviy, biologik nurashlar bir vaqtning o‘zida borishi mumkin, lekin bu jarayonlar natijasida xosil bo‘lgan mexanik elementlar tipi, miqdori har xil bo‘ladi.

Mineral elementlar paydo bo‘lishida tog‘ jinslarining birinchi nurash bosqichida, nuralgan jinslar nisbatan kichik absolyut va nisbiy yuzaga ega bo‘ladi. Ular haroratning o‘zgarishi, suv va shamol ta’sirida o‘simgliklar ildiz sistemasi, moxlar, lishayniklar, bakteriyalar ta’siriga uchraydi. Bunda fizik va nisbatan kam miqdorda biologik nurash ustunlik qiladi. Bu bosqichda nuralgan jinslar xar xil katta - kichiklikdagi bo‘lakchalardan iborat bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, mexanik nurash jarayonida har xil kattalikdagi xarsangtosh, chag‘irtosh, shag‘al, yirik qumlar paydo bo‘ladi.

Paydo bo‘lgan zarrachalar yuza energiyasining oshishi bilan biologik faktorning roli hamda ximiyaviy nurash ayiiqsa, elementlarning oksidlanishi va qaytarilishi, mnneral tuzlarning qayta erishi, kristallanishi kuchayadi.

V.R.Vilyams bo‘yicha tuproqning (diametri 3 mm dan katta) tosh qismi turli tor jinslaridan (granit, porfirit va h.k.) tashkil topgan. Qumda ham xali dastlabki jinslarning zarrachalari bo‘lib, ular asosan kvarts, dala shpati, slyuda, rogovaya obmankalarning yemirilishi mahsulotlaridir.

Qum zarrachalariiing emirilishida faqat yemirilishga chidamli mineral -kvarts o‘zgarmay qoladi. Qum zarrachalari tarkibidagi dala shpati, slyudaga o‘xshashlar yana yemirilishda davom etib, chang va il zarrachalariiing vujudga kslishiga sabab bo‘ladi.

Yirik chang (diametri 0,05 - 0,01 mm) tarkibida kvarts xam ma’lum miqdorda bo‘ladi. O‘rta changda (diametri 0,01-0,005 mm) uning miqdori keskin kamayadi, bu erda amorf kremniy kislotalari va gidratlari miqdori orta boradi. Mayda changda esa (diametri 0,005 - 0,001mm tuproqning eng mayda zarrachasi il (gil)ga o‘gish chegarasida joylashganligi uchun bunda ximiyaviy va biologik nurash mahsulotlari - gidroslyudalar, temir, alyuminiy, marganets oksidlari va gidratlari, kaolinit, fosfat va x.k. lar asosiy o‘rinni egallaydi.

Il (gil) da (diametri 0,001 mm dan kichik), asosan ximiyaviy va biologik nurash mahsulotlari, organik kislotalar uning eng ko‘p qismini tashkil etadi.

K.D.Glinka, B.B.Polinov, A.A.Rods, E.I.Kocherina, A.D.Voronin va boshqalar o‘z tekshirishlarida mexanik elementlarning bosqichli paydo bo‘lishlarini ko‘rsatish bilan birga har bir tuproq tipi uchun xil mineralogik tarkibga ega bo‘lgan o‘ziga xos mexanik elementlar mavjudligini xam ochib beradilar.

Organik tarkibli mexanik elementlar tuproqdagi o‘simplik va hayvon xoldiqlari va mikroorganizmlarning chirishi natijasida paydo bo‘ladi. Minerallarning paydo bo‘lishida, biologik, mikrobiologik shu bilan birga ximiyaviy va fizik ximiyaviy jarayonlar asosiy o‘rinni egallaydi. Bu jarayonlar natijasida tuproq chirindisi hosil bo‘ladi.

Organo-mineral tarkibli elementlar yoki gumatlar - mineral va organik elementlarning qo‘silmasisidir, Bunday tipdagi mexanik elementlar tuproq qatlamlarning ba’zi bir chuqurligida tuproq hosil qiluvchi ichki faktorlar natijasida vujudga keladi. Masalan, chimlipodzal tuproqlarning illyuvial qatlamlaridagi organo - mineral agregatlar, tipik bo‘z tuproqlarda karbonatli agregatlar va xokazo.

Mexanik elementlarni tasnifi

Tuproq mexanik tarkibi unumdoorligi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini Lomonosov Komov, Devi, Shumaxer va boshqa ko‘pgina olimlar o‘z izlaiishlarida ta’kidlab o‘tdilar. Olimlar tuproqqa mexanik tarkibiga ko‘ra to‘g‘ri baho berishda uni tashkil qiluvchi mexanik elementlar ularning katta — kichikligi, xossa va xususiyatlariga qarab qilishga yondoshishlar bo‘lgan. Hozir tuproq fizikasida mexanik elementlarning 10 dan ortiq tasnifi mavjud.

Mexanik zarrachalar qancha ko‘p ajratilgan bo‘lsa, bu shunchalik yaxmsh degan xulosaga kelish, noto‘g‘ri. Bu masalada xam o‘ziga xos aniklik bo‘lishi lozim. Juda sodda tasnif (masalan, V.Osbornda 4 mexanik zarracha - toga, qum, il, loyqa-ajratilgan) tuproq xususiyatini to‘liq xarakterlamaydi, juda tabaqalashtirilgan tasnifi esa undan foydalanishni qiyinlashtiradi. SHuni esda tutish kerakki, tasnifda birinchidan — o‘z xususiyatlaridan bir —biriga yaqin turuvchi mexanik zarralar to‘rri ajratilishi shart, ikkinchidan — tasnif faqatgina ilmiy xodimlar uchun mo‘ljallanmasdan, balki ishlab chiqarish talablariga xam javob berishi uchun u juda sodda va aniq bo‘lishi kerak.

Mexanik elementlarning V.R.Vilyans ishlab chiqqan N.A.Kachinskiy tomonidan anchagini o‘zgartirishlar kiritilgan tasnifi

eng keng tarqalgan bo‘lib, ilmiy va ishlab chiqarish talablariga javob beradi.

N.A.Kachinskiy 1937 yilgi tasnifiga 16 ta mexanik zarrachani o‘z ichiga olgan' 4 ta gruppani ajratdi. 1957 yil tasnifiga biroz aniqliklar kiritdi. Birinchi o‘rinda u tuproqning aktiv va noaktiv qismlar chegarasini, ya’ni skeletli va mayda zarrachali (qum) qismini aniqroq ajratish ustida ishladi.

MHDda keng tarqalgan tuproq mexanik elementlarining xozirgi zamon tasnifi (1937-1957 y.)

Tuproq mexanik elementlarining sifatlari diametri	N.A.Kachi hi- pskiy, - 1957 1937	N.A.Kachi nskiy, - 1957	V.V.Oxotin 1940
> 20	toshli	toshli	shag‘al
20-10			yirik
10-7			o‘rta
7- 3			maida
3-2	yirik	shag‘al	juda maida
2-1	qum	yirik	
1-0,5	o‘rta	qum	yirik
0.5-0.25	mayda	o‘rta	o‘rta
0,25-0,05		mayda ,	mayda
0,05-0,01	yirik	yirik	changli qum
0,01-0,005	chang	chang o‘rta	chang
0,005-0,002		mayda	il
0,002-0,001	mavda	dag‘al	dagal
0,001-0,0005		il mavin	mavip
0,0005-0,0001	il	kolloid	
< 0,0001		fizik qum	
>0,01	fizik	fizik loy	
<0,01	fizik loy		
		loy	

Ma’lumki, tabiiy sharoitda qumlar yuqori suv o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lishi bilan birga sezilarli nam sig‘imiga (8— 10%) hamda kapilyarlik xususiyatiga ega bo‘ladi.

Shuning uchun qumli yerlar o‘rmon xo‘jaligi hamda ko‘pgina poliz ekinlari uchun yaroqli hisoblanadi.

1mm dan katta mexanik zarrachalar butunlay boshqa xususiyatga ega: katta suv o‘tkazuvchanlik, nam sig‘imi hamda kapilyar xodisa esa

deyarli yo‘q. O‘zining xususiyatlari bilan bu zarrachalar tuproqiing toshchali qismiga yaqin turadn. Shuning uchun ham Kachinskiy 1957 yilda bunday zarrachalarni (3-1 mm) graviy (shag‘al) deb atashni taklif etadi. Bundan tashqari 1957 yilgi tasnifida muallif il zarrachalarini o‘rganish sohasida ma’lumotlarni analiz qilib ilmiy maqsad uchun il zarrachasini bir qancha tabaqalab, dakal, mayin, il kolloidlarga ajratdi. Shunday qilib Kachinskiy taklif etgan ushbu tasnif deyarli butun tuproqshunoslik laboratoriyalarda va ilmiy tekshiruv ishlarida keng qo‘llanilmoqda .

Hozir tuproqshunoslikda V.V.Oxotin tasnifi qo‘llanilmaydi. Unda 12 zarracha ajratilib, ular 5 ta mexanik element gruppasiiga birlashtirilgan, Ajratilgan 12 zarrachadan 8 tasi tuproqning yirik qismi—shag‘al va qumlarga to‘g‘ri keladi, V.V.Oxotin tasnifi o‘z mohiyati jixatidan qurilish maqsadlarida gruntlarni krng xarakterlaydigan tasnif hisoblanadi vo bu tuproqshunoslardan talabiga javob bermaydi. Binobarin, V.V.Oxotin tasnifida chang zarrachasi gruppasi juda ham noaniq berilgan (0,05-0,01), il zarracha loyka zarrachadan yirik deb qabul qilingan. Hozirgi paytda tuproq fizikasi ko‘pchilik mineralogik ma’lumotlar asosida il zarracha eng mayda zarracha ekanligini isbotlagan. Loyqa tarkibida il zarrachadan tashqari ko‘p miqdorda chang, hattoki qum zarrachalari x,am bo‘lishi mumkin. Bunday noto‘g‘ri nomlashni V.V.Oxotin, V.Osborndan olgan.

Tuproqning disperslik va strukturalilik koeffitsenti (soni)

Tuproqning mexanik va agregat tarkibini o‘rganit asosida uning disperslik va strukturalilik koeffitsientini (sonlarini) hisoblab chiqish mumkin. Bundan tuproqning struktura hosil qilish qobiliyatini bilib olamiz.

1932 yilda N.A.Kachinskiy disperslik (bu so‘zning ma’nosi tuproqni aggregatlik bo‘laklarini uni tashkil etgan mexanik elementlarga ajralish qobiliyati) sonini hisoblash uchun quyidagi formulani kashf etadi:

$$K_A = \frac{a \cdot 100}{b}, \% \quad \text{bu erda}$$

Kd - disperslik soni, % xisobida;

a - mikroagregat analizda ajratilgan il > (0,001 mm) miqdori, massaga nisbatan % xisobida;

v - mexanik analiz natijasida ajratilgan il > (0,001 mm) miqdori, massaga nisbatan % xisobida; 100 —% aylantirish koeffitsenti.

Misol: Tuproqda mikroagregat analizda $< 0,001$ mm zarracha miqdori 8% ajratildi ($a=8\%$), mexanik analizda esa bu zarracha miqdori-20% ($a=20\%$) ga teng

$$K_A = \frac{8 \cdot 100}{20} = 40\%$$

Agarda KD soni qancha katta bo'lsa, tuproqda suvga chidamli agregatlar miqdori shuncha kam bo'ladi. Shuning uchun KD soni qora tuproqlarda 15 - 20, O'rta Osiyoning bo'z tuproqlari 30 - 45, taqirli va taqir tuproqlarda - 75 - 90% gacha otadi.

Disperslik sonining aksariyati strukturalilik soni deyiladi. 1932 yilda P.Fageler o'zining quyidagi formulasini taklif etadi:

$$K_C = \frac{100(1cos - 11cos)}{1cos} \text{ bu erda}$$

K_C - strukturalilik soni, % xisobida;

$1cos$ - mexanik analizda ajratilgan sozx, massaga nisbatan % xisobida;

$11cos$ — mikroagregat analizda ajratilgan soz, massaga nisbatan % xisobida;

100 —% ga aylantirish koefsendi.

Shuni takidlash kerakki, strukturalilik sonini hisoblash uchun P.Fageler formulasidan foydalanishdan tashqari bu sonni desperslik sonini xisoblash asosida ham chiqarish mumkin.

Ayrim hollarda strukturalilik sonini xisoblash zarur bo'lib qoladiyu, biroq, bizda mikroagregat analizi ma'lumotlari yo'kligi tufayli bunday hollarda A.F.Vadyunina Ks ni hisoblash faqatgina mexanik analiz ma'lumotlari asosida olib borish mumkinligini isbotlab, o'zining quyidagi formulasini beradi:

$$K_C = \frac{c}{d} = 100\% \text{ bu yerda,}$$

K_C - strukturalilik soni, % hisobida;

$s < 0,001$ mm li mexanik elementlar (chirindili qatlamida $< 0,005$ mm li zarrachalar) miqdori;

$d > 0,005$ mm li zarrachalar miqdori;

100 - protsentga aylantirish koeffitsenti.

A.F.Vadyunina taklif qilgan bu formula og'ir mexanik tarkibli tuproklarni KS ni xisoblashda juda aniq ma'lumotlar beradi.

Tuproqning mexanik tarkibiga ko‘ra tasnifi

Tuproqning moxanik tarkibini o‘rganishdan asosiy maqsad, faqatgina har xil katta - kichiklikdagi mexanik elementlarning miqdorini aniqlash emas, balki uning mexanik tarkibiga ko‘ra tasnifini ishlab chiqarish hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida tuproq fizikasi predmetida bir qancha avtorlar (Atterberg, Oxotin, Sibirsev, Zaxarov va boshqalar) ning tasnifi mavjud. Bu avtorlar o‘z tasniflarida albatta mexanik elementlarning xususiyat va hossalarini nisbatga olib, ishlab chiqarish va ilmiy maqsadlarda tuproqlarni ularni mexanik tarkibiga ko‘ra ma’lum gruppalarga ajratganlar.

Quyidagi dastlabki tasniflarning ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz.

N.M.Sibirsev tasnifi. Revolyusiyagacha Rossiyada agronomik maqsadlar uchun N.M.Sibirsev taklif qilgan tuproqning mexanik tarkibiga ko‘ra 2 bo‘lakli klassifikatsiyasi keng tarqalgan.

Avtor o‘z tasnifi asosida E.Shene metodi yordamida olingan ma’lumotlarni asos qilib oladi. Bunda Sibirsev tuproqda 2 ta gruppani - 0,01 mm dan katta zarrachalarni «Fizik qum», 0,01 mm dan kichik zarrachalarni «fizik loy» (soz) ga ajratadi va bu gruppalarni nisbatini asos qilib olib o‘zining tasnifini tuzadi.

Shuning uchun ham Sibirsev tasnifi 2 asosli bo‘lib, u
quyidagicha:

«fizik loy»	«fizik qum»
1.Loyli	1:1 dan 1:1G‘2 gacha
2.Og‘ir qumoq, Z.O‘rtacha qumoq	1:2 dan 1:3 gacha
4.Engil qumoq	1:4 orasida
5.Qumloq	1:5 dan 1:6 gacha
6.Loyli qum (50)gacha	1:7 dan 1:10 gacha
	1:15 dan 1:30

Sibirsev tasnifi o‘zshshng goddaligi va ixchamligi bilan ko‘pchilikni o‘ziga jalb etadi va xattoki sobiq Ittifoqda 30 - yillarga qadar ba’zi bir ilmiy tekshirish ishlarida qo’llaniladi. Lekin bu klassifikatsiya ham ayrim kamchiliklardan xoli emas. Bu yerda asosan har xil gruppalarning o‘gish chegarasi aniq berilmagan va E.Shene metodi yordamida olingai ma’lumotlar asos qilib olingan. Bu metodda suyuqlikning yopishqoqligi va uning muhit temperaturasiga ko‘ra

o‘zgarishi e’tiborga olinmaganligi sababli olingan ma’lumotlar ayrim xatolardan xoli bo‘lmaydi,

G.M.Tumin va SA.Zaxarovlar N.M.Sibirsev tasnifi tabaqlashtirishni maqsad kilib , o‘zlarining uch asosli tasnifini taklif qilib, quyidagi mexanik zarrachalarning nisbatini oladilar: fizik loyqa ($< 0,01$ mm): qumli chang (0,001 — 0,1 mm); qum (0,1—3 mm),

V.V.Oxotin mexanik elementlarning quyidagi nisbatlarini asos qilib oladi: $< 0,005$; 0,005 — 0,25 va 0,25 — 2 sm. Bu tasnif yo‘l kurulishi gruntchiligidagi ijobiy baho oldi. Ayrim vaktlarda bu tasnifni agronomik maqsadlar uchun ishlatish tendensiyasi vujudga keladi. Lekin esda tutish kerakki, tuproqni qurilish maqsadida baholash bilan qishloq ho‘jaligidagi mexnat vositasi sifatida baxolash o‘rtasida tenglik qo‘yish mumkin emas.

Shuning uchun V.V.Oxotin tasnifini tuproqlarni yaxshilashda qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqishda qo‘llab bo‘lmaydi.

N.A.Kachinskiy tasnifi. Avtor o‘z tasnifida qum, qumloq, qumoq, soz kabi gruppalarin mexanik analiz natijasida olingan ma’lumotlar asosida ajratadi va Sibirsev taklif etgan «fizik loy»; «fizik qum» nisbatini asos qilib oladi.

N.A.Kachinskiyning o‘z tasnifi asosida mexanik tarkibni tinch turgan suvda (mexanik zarrachalarin cho‘kish tezligini aniqlashda Stoks formulasi Qo‘llanilgan) pipetka yordamida o‘rtacha namuna olish yo‘li bilan aniqlangan ma’lumotlarni qo‘yadi. SHuning uchun xam avtor Sibirsevning «fizik loy», «fizik qum» terminlarini rasmiy ravishda shartli qabul qiladi.

N.A.Kachinskiy tasnifi yuqorida qayd qilingan avtorlarning tasniflardan tubdan farq qiladi. N.A.Kachinskiy faqatgina mexanik elemenlarning xossalari yoki ularning nisbatlarini xisobga olibgina qolmasdan, balki har bir tipdagи tuproqlarning paydo bo‘lish sharoitlarini inobatga oladi.

N.A.Kachinskiy tasnifida 3 xil tuproq - iqlim sharoitida hosil bo‘lgan tuproqlarni birlashtiradi:

- 1)podzollashgan tuproqlar;
- 2)dasht tuproqlar;
- 3) sho‘rxok va sho‘rtob tuproqlar

Bu tasnifda tuproqlarning paydo bo‘lish sharoitlari hisobga olinganligi sababli xar qaysi tuproq tipining unumdarligini oshirishda tabakalashgan agronomik tadbir ishlab chiqarishni osonlashtiradi.

Skeletli tuproqlarda N.A.Kachinskiyning tasnifini qo'llashda tuproqning toshlilik darajasini ko'rsatish lozim. Buning uchun avtor quyidagi shkalani taklif etadi.

Tuproqdagi toshchalarining miqdoriga qarab

N.A.Kachinskiy tasnifi

Toshchalar (> 3 mm) miqdori, % xisobida < 0,5 0,5-5,0 5-10,0 >10	Toshlilik darjası Toshsiz Kam O'rtacha Sertosh	Toshlilik tipi Bu tuproq tarkibida toshchalarining xo latiga qarab, xar chang toshlar va boshqalar bo'lishi mumkin.
--	--	--

Chet mamlakatlarda ham tuproqlar ularning mexanik tarkibiga ko'ra tasniflar MHD dagi kabi tabaqlashmagan. Keyingi yillarda xorijiy mamlakatlarda MHD avtorlarining tasnifi yoki shunga o'xshashlari qabul qilinmoqda.

Nazorat savollari

- 1.Tuproq unumdorligini qaysi fizik xossalari belgilaydi?
- 2.Gipslashgan tuproqlarning unumdorlik darjası nima uchun past?
- 3.Qaysi mexanik tarkibli tuproqlarda sho'r yuvish oson kechadi?
- 4.Toshloqli tuproqlar qanday fizik xususiyatlarga ega?
- 5.Toshloqli tuproqlarni o'zlashtirish qanday amalga oshiriladi?
- 6.Tuproq g'ovakligining uning unumdorligidagi ahamiyati nimada?
- 7.Tuproqga ishlov berilishida qaysi texnologik xossalari kuchli ta'sir qiladi?
- 8.Tuproq nechta qismdan iborat?
- 9.Tuproq hosil bo'lshi jarayonida qattiq qismi tarkibining ahamiyati bormi?
- 10.Ona jinslarning mineralogik tarkibi mexanik elementlar hosil bo'lishida qanday ahamiyati bor?
- 11.Qanday zarrachalar mexanik elementlar deb ataladi?

3-МАВЗУ. МЕХАНИК ЭЛЕМЕНТЛАРНИ ТУРЛАРИ

Reja

- 1.Strukturaning buzilish sabablari
- 2.Strukturani tiklash sharoitlari va usullari
- 3.Tuproq strukturasini tiklashning sun'iy tadbirlari

Tayanch so'z va iboralar: Tuproq strukturasi, mikroagregat, mexanik elementlar agregatlar, granulometrik tarkib, fizik yetilganlik makrostruktura, g'ovaklik, shudgor, eroziya, aeratsiya, suvga chidamli agregatlar, biokimyoviy-mikrobiologik va biologik jarayonlar, polimer, kolloid zarrachalar, koagulyatsiya, agronomik baho, unumdoorlik, suv, havo, fizk-mexanik, tuproq namligi, chirindi, namlik.

Tuproq unumdoorlishni belgilashda muhim rol o'ynaydigan struktura (tuproq donadorligi), uning kelib chiqishi, xossalari va yaxshilash tadbirlari bayon etilgan.

Tuproq qattiq fazasi, har xil katta kichiklikdagi o'ziga xos tarkib va xususiyatga ega bo'lgan mexanik zlementlar majmuasidan iborat. Bu elemenlar tabiiy sharoitda yakka holda xamda o'zaro bir - birlariga ta'sir etadi yoki munosabatda bo'ladi. Shuning uchun ham yuza tortilish kuchi xamda bir qator ichki va tashqi kuchlar ta'sirida ikki yoki undan ortiq mexanik elementlar jipslashib tuproq agregatlarini vujudga keltiradi. O'z navbatida bu agregatlar biologik va gidrotermik faktorlar ta'sirida yanada yiriklashib tuproqning struktura bo'lakchalarini vujudga keltiradi. Agregat bo'lakchalar o'z navbatida tuproqdagi suv va havo xarakatiga yoki ketadigan jarayonlarning xammasiga ta'sir ko'rsatadi. Tuproqdagi agregatlar - shunday tayanch nuqtaki, undagi miqdor o'zgarishlari uning sifat o'zgarishiga olib keladi.

Tuproq strukturasi deb, mazkur tip va uning qatlamiga xos har xil kattalikka, shaklga, chidamlilikka (suvga) ega bo'lgan agregatlar yigindisiga aytildi.

Tuproqda 3 xil (kubsimon, prizmasimon, plitasimon) struktura farq qilinib, ular bir necha turdan iborat bo'ladi (2-jadval).

O'zbekistondagi paxtachilik ilmiy tekshirish instituti (O'zPITI) va uni regional tajriba stansiyalarida xamda O'rta Osiyo

respublikalarinint tuproqshunoslik va agrokimyo institutlarida olingan ma'lumotlardan quyidagi xulosa qilindi,

Bo'z tuproqlar mintaqasida strukturasining yaxshiligi jixatidan o'tloq tuproqlardan keyingi to'k, tusli bo'z tuproqlar, undan keyingi o'rinda tipik bo'z tuproqlar va eng keyingi o'rinda och tusli bo'z tuproqlar turadi.

Eng past «strukturali» - tuproqlar saxro zonasi tuproqlaridir. Bulardan taqirlar eng oxirgi o'rinda turadi.

Bo'z tuproqlar mintaqasida ham, saxro tuproqlarida ham gidromorf chuproqlarning makrostrukturasi shu mintqa va zonalardagi avtomorf tuproqlarinikiga nisbatan suvga chidamliroq bo'ladi.

4. O'zbekistonning ekinbop tuproq tiplari orasida, mikrostrukturasining suvga chidamliligi jixatdan Farg'ona vodiysining tuproqlari juda yaxshi xisoblanadi. Ekinzorlarning tuproqlarini taqqoslab ko'rganda, ular o'rtasidagi farq yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunga agrotexnika saviyasining ta'siri sabab bo'lsa kerak. Masalan, O'zPITI Oqqovoq tajriba stansiyasida qadimdan haydab kelinayotgan tipik bo'z tuproqlar xaydalma qavatida suvga chidamli agregatlar miqdori Savvinov usuli bo'yicha aniqlanganda, taxminan 15% ni tashkil etadi, Farg'ona vodiysida esa 40% ni tashkil etdi; bo'z tuproqlar mintaqasidagi ayrim tuproq tiplari boshqa region tuproqlari bilan taqqoslanganda ham xuddi shunday natija olindi.

5. Sahro tuproqlari ichida eng past strukturali tuproq - G'arbiy Turkmaniston tuproqlari hisoblanadi.

6. Yerlarni o'zlashtirib ekin eka boshlash ham, qo'llaniladigan agrotexnikaning saviyasi ham tuproqlarga turlicha ta'sir etadi. S.N.Rijov, P.N.Besedip (suroriladigan bo'z tuproqlarga doir) va B.V.Gorbunovlarniig (lalmikor bo'z tuproqlarga doir) ma'lumotlariga ko'ra, yangi erlarni o'zlashtirib, yangi yerlarni o'zlashtirib, ekin eka boshlash ayrim hollarda makrostruktura suvga chidamliligining kamayishiga sabab bo'ladi; bunday tuproqlarda 1 mm dan yirik agregatlar miqdori keskin kamayib ketadi (sahro zonasidagi tuproqlarga ekin ekila boshlaganda xam ayni shu ahvol yuz beradi).

7. Makrostrukturaning suvga chidamliligi masalasida xaydalma qavat bilan uning tagidagi qatlam o'rtasida sezilarli farq bo'lmaydi.

O‘rta Osiyodagi sug‘oriladigan tuproqlar mana shu xossalari bilan sobiq Ittifoqning Ovropa qismidagi tuproqlarning aksari tiplaridan keskin ajralib turadi.

O‘rta Osiyoda tuproq xosil qiluvchi ona jins (qatlami allyuviyalar, prolyuviyalar, lesslar va x.k.) lar makrostrukturali emas. Ammo allyuviy xo‘l qatlamli bo‘lganda, ba’zi 0,25 mm dan yirik zarrachalar uchraydi, ayrim joylarda uning miqdori 20 - 30% ga etadi: ularning ko‘p qismi karbonat -gipsli yaralmalardan iborat. Shunday qilib, makrostruktura O‘rta Osiyo sug‘oriladigan tuproqlari uchun hosil bo‘lish jarayonida vujudga kelgan maxsuldir,

Sug‘oriladigan tuproqlarning strukturasini yaxshilashga imkon beradigan tadbirlar - almashashilab ekishni joriy qilish, o‘t aralashmalarining roli, admashlab ekishdagi maysazorlar sonining paxta dalalariga nisbati, ekin ekishga qadar tuproqlarni ishlash usullari, nihoyat tuproqni ishlash vaqtida uning qanday namlikda bo‘lishi zarurligi kabilar, u yoki bu darajada suvga chidamli makro va ayniqsa, mikrostrukturalarni vujudga keltiradi. Bu, o‘z navbatida undagi suv, xavo va oziq rejimini xamda o‘simlik xosildorligini birmuncha oshirishni ta’minlovchi faktor ekanligi isbotlandi.

10. Tuproq strukturaliliga doir ma’lumotlar analiz qilinar ekan, makroagregatlarning tuproqni agronomik jihatdan baholash yuzasidan V.R.Vilyamsbelgilagan 1 mm dan iborat kritik diametrining eng kichik miqdorini 0,25 mm gacha kamaytirishga to‘g‘ri keladi, chunki 1 mm dan yirik agregatlar naqadar muxim bo‘lsa, 1-0,25 mm katta aggregatlarning xam shu qadar muhim ekanligini ko‘rsatadigan ma’lumotlar to‘planadi.

Bu qoida hozirgi vaqtda (sobiq Ittifoq) adabiyotlarida ham, chet el adabiyotida xam qabul qilingan.

Bordi-yu, 1 mm kattalikdagi diametrni kritik diametr deb qabul qilar ekanmiz, sobiq Ittifoqning Ovropa qismidagi tuproqlar strukturasining mustahkamligi o‘rtasidagi farq yana ham ortadi.

Strukturaning buzilish sabablari

Yuqorida bayon etilganlardan ma’lumki, tuproq strukturasining takomillashishi uzoq vaqt davomida ro‘yobga chiqadi va ko‘pdan — ko‘p protsesslarga duch keladi, Biroq uning buzilishi va batamom yo‘q bo‘lishi uchun uzoq vaqt talab qilinmaydi. O‘ylamasdan

qilingan xar bir agrotexnik tadbir yoki insoniyatning dehqonchilik faoliyati tuproq strukturasining buzilishiga olib keladi.

Strukturaning buzilishiga quyidagilar sabab bo‘ladi.

1. Mexanik kuchlar bunga tuproqqa ishlov beruvchi yirik massali mashina va asbob uskunalar kiradi. Bu borada qishloq xo‘jaligida ishlatiladigan turli mashinalarning dalalarda behuda katnashlari yoki ularning ekin maydonlarida uzoq muddat turib qolishlariga yo‘l qo‘ymasligimiz kerak.

2. Agrotexnik tadbirlarning noto‘g‘ri yoki plansiz o‘tkazilishi. Masalan, sernam yoki nami qochib, tobidan o‘tib ketgan tuproqlarni shudgorlash, xaydalgan yerni xaydab molalay berish, yetilmagan yerlarni boronalash, bo‘lar bo‘lmasga kultivatsiya qilish va boshqalar. Ayniqsa, bu o‘rinda nishab (qiya) yerlarni xaydash texnikasini buzish mavjud strukturani buzishgagina emas, balki tuproq unumdon qismining asosiy shudgor qilish qiyalik bo‘yicha emas, balki unga ko‘ndalang yo‘nalishda o‘tkaziladi. Katta qiyalikdagi maydonlarni haydash umuman man etiladi. Bunday joylarda tabiiy o‘simgiliklarni saqlash, yoki maysazor - butazorlar bunyod etish lozim.

3. Yerni sug‘orish va o‘g‘itlash. Sug‘orish suvlari (ayniqsa ular u yoki bu darajada minerallashgan bo‘lsa) ta’sirida xam tuproq strukturasi ma’lum darajada buziladi. Chunki bu suvlar tuproq tarkibidagi suvda eruvchan birikmalarni va tuproqqa solingan mineral o‘g‘itlarni eritadi hamda eng yaxshi koagulyator hisoblangan kalsiy kationini siqib chiqaradi. Yerga solingan (NH_4NO_3) o‘g‘iti tarkibidagi ammoniy tuproqdagi karbonatlar bilan reaksiyaga kirishib, ammoniy karbonat $[(\text{NH}_4)_2 \text{SO}_3]$ xosil qiladi. Ma’lumki bunda siqib chiqarilgan kalsiy kationi tuproqdan yuvilib ketadi. Bundan tashqari, tuproqni ammoniy sulfat $[(\text{NN}_4)_2 \text{SO}_4]$ singari fiziologik kislotali va natriy nitrat NaNO_3 kabi fiziologik ishqorli mineral o‘gitlar bilan bir necha yil surunkasiga o‘gitlash tuproq strukturasining buzilishiga olib kelishi turgan gap.

Tuproqdagi bioximik jarayonlar: gumus hosil bo‘lishi, aerob (kislородли) va anaerob (kislородсиз), bijg‘ish (chirish) katta ta’sir ko‘rsatadi. Chunki tuproq mexanik zarrachalarini bir-biriga mahkam yoiishtirib turgan chirindi mikroorganizmlar ta’sirida aerob sharoitida batamom shakllanadi. Bu o‘rinda har xil fizik - ximik va bioximik

jarayonlarda hosil bo‘lgan suvda eruvchan tuzlarning strukturani buzishga ta’siri juda katta.

Strukturani tiklash sharoitlari va usullari

P.A.Kostichev, K.K.Gedroys, V.R.Vilyams struktura hosil bo‘lishining nazariy asoslarini ishlab chiqadilar. Ular tuproqning agregatlik tadbiri va usullarini ishlab chiqdilar.

Hozirga qadar tuproq strukturali holatini tiklashning quyidagi agrotexnik usullari mavjud:

- 1) tuproqqa ishlov berish;
- 2) tuproqni gumin, ulmin kislotalari bilan boyitish;
- 3) nordon (kislotali) tuproqlari ohaklash, ishqorli tuproqlarni gipslash;
- 4) almashlab ekish sistemasini to‘rri joriy etish.

O‘rtal Osiyo kolxoz va sovxoziylarida to‘plangan hamda ilmiy - tekshirish tashkilotlarining dala sharoitida olib borilgan ko‘p yillik tajribalarining yakunlari kuydagи xulosaga olib keldi:

- 1) ko‘p yillik o‘t ekinlari (ayniqsa beda) ekish hamda yerlarga go‘ng solish strukturasini yaxshilaydi.
- 2) o‘tlar xaydalgandan keyin paxta ekishning birinchi yilidayoq, har xil tur va tipdagi tuproqlarda ko‘payadi va paxta hosili oshadi;
- 3) o‘tlar xaydalgandan keyin ekin ekishning ikkinchi yilidayoq tuproqning makrostrukturasi tez va keskin yomonlashadi;
- 4) strukturasiga mineral o‘titlar bilan ishlaganda tuproqning strukturali holati deyarli yaxshilanmaydi.

Strukturani tiklashda termik faktorning xam roli katta. Strukturaning vujudga kelishida temperatura va suv asosiy omil xisoblanadi. Bu jarayon ta’sirini quydagicha tushuntirish mumkin: Sovuq kunlar boshlanishidan oldin yoqqan yonshn yoki sug’orish suvlari tuproq kavaklariga kirib, ularni to‘ldirishlari mumkin: temperaturaning keskin pasayib ketishi tufayli bu suvlar muzlaydi, muzlash suv xajmini kengaytiradi. Natijada tuproq teshiklarida qo‘sishma katta kuch vujudga keladi. Bu xodisa o‘z navbatida mexanik zarracha va agregatlarlarning bir-biriga yanada katta kuch bilan siqilishiga olib keladi. Kunlar isishi bilan teishkchalardagi muzlar eriydi. Tuproqning etilganligi uning birmuncha donador (mahalliy tilda «qo‘zilagan») ligi seziladi. Kech kuzda beriladigan «yaxob» suvlari ana shu maqsadni ko‘zda tutadi. Lekin hamma vaqt

ham muzlash strukturasi xosil qilavermaydi. Muzlash jarayoni temperaturasi hosil qilmaydi, balki uni buzadi.

Ma'lumotlardan ma'lum bo'ldiki, tuproq strukturasining buzilishiga sabab bo'luvchi faktorlar ko'p bo'lganidek uni tiklashga qaratilgan usullar xam xilma —xildir. Hozirgi vaqtida shu narsa isbotlandiki, strukturali tuproqlarda suv, xavo termik hamda oziq rejimlari madaniy o'simliklar uchun yetarli va qulay shaklda bo'ladi. Strukturali tuproq madaniy tuproq xisoblanadi.

Shuni qat'iy ta'kidlyash kerakki, strukturani tiklashning bosh masalasi tuproqda chirindining to'planishidir.

Tuproq strukturasini tiklashning sun'iy tadbirlari

Keyingi yillarda (1950) ximiya sanoatining taraqqiy etishi natijasida tuproqda gumus moddalari o'rnini egallaydigan yuqori molekulali organik kislotalar ishlab chiqiladi. Buning uchun molekulyar birikmalar - polemirlar va sopolimerlardan foydalana boshlandi. Bu birikmalarning umumiyligi nom bilan kriliumlar deb yuritiladi. Kriliumlar asosan, uchta organik: akril kislota (SN-SN - SOON), metakril kislota $SN = S(SN_3)$ -SOON va malein (SOON-SN - SN - SOON) kislotalaridan hosil qilingan tipik polimerlardir. Kriliumlar ta'sirida paydo bo'lgan agregatlarni o'rGANISH sohasida o'tkazilgan ko'pgina tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, polimerlar bilan tuproq zarrachalari orasidagi o'zaro ximiyaviy munosabat tufayli struktura xosil bo'ladi. Strukturaning suvga chidamli bo'lish, kolloidlar koagulyasiyasi tufaylidir. Sun'iy struktor (krilium) bundan tashqari biologik aktiv hamda tarkibida ma'lum miqdorda oziq elementlarini saqlash aniqlanadi.

Hozirgi vaqda MHDda hamda chet mamlakatlarida (AQSH, Fransiya, Antliya) juda ko'p xildagi sun'iy strukturalar mavjud. Lekin, sun'iy struktorni keng ko'lamda qo'llash uchun u quyidagi talablarga javob berish kerak:

1. Struktorlar (yoki tuproq kleylarni) tuproqlarda g'ovak suvga chidamli hpmda mexanik jihatdan qattiq bo'lмагan bo'lakchalarni vujudga keltirishi.

2. Ular tuproqda inert massa hosil qilib, biologik hayot uchun zaharli bo'lmasligi lozim.

3. Struktor suvni yaxshi qabul qilishi hamda bo'kish hususiyatiga ega bo'lishi lozim, erkin kogulyasiya jaraonidan so'ng (tuproq

massasini agregat holptga o‘tgazgandan so‘ng) suv ta’sirida uzoq vsuqt buzilmasligi kerak.

4.Strukturorlar o‘zida oziq elementlarini saqlashi, donadorligi buzilgan taqdirda o‘simliklar oziq elementlarini o‘zlashtirmog‘i zarur.

5.Strukturalarning faoliyati hech bo‘limganda bir rotatsiya davrini (4 - 5 yil) o‘z ichiga rlishi lozim aks xolda sun’iy kleyni ta’siri qisqa muddatliligi uchun keng ishlatilmaydi.

6.Gumin kislotasi xususiyatga yaqin turadigan strukturorni izlash va qo‘llash katta axamiyatga ega.

7.Struktor arzon va juda aktiv bo‘lishi, tuproqning strukturasi gektariga 0,5—1 tonna sarflanganda tiklanishi lozim aks xolda struktor iqtisodiy jixatdan o‘zini oqlolmaydi.

Shunday qilib, tuproqda o‘simliklar uchun suv, xavo va oziq rejimlarining qulay bo‘lishi, shuningdek ekin maydonlarida qo‘llaniladigan agrokompleks tadbirlarining yaxpsh natija berishi tuproq strukturasiga bog‘liq. Demak struktura tuproqning muxim agronomik xossalardan biri, u tuproqni g‘ovak qovushmali va serg‘ovak xolatda bo‘lishini ta’minlaydi.

Tuproqning strukturaliligi mazkur xo‘jalik dehqonchilik madaniyatining darajasini ko‘rsatadi.

Nazorat savollari

- 1.Tuproq strukturasi qaysi kuchlar ta’sirida hosil bo’ladi?
- 2.Tuproq aggregatlari hosil bo’lishida qaysi omillar ta’siri katta?
- 3.Tuproqga ishlov berilganda ishlov asboblarini ta’siri bormi?
- 4.Qaysi zarrachalar kattaligi agronomik qimmatli struktura hisoblanadi?
- 5.Qaysi aggregatlar yig‘indisi tuproq strukturasi deb ataladi?
- 6.Tuproqlarda necha xil tipdagi struktura mavjud?
- 7.Suvga chidamli aggregatlarni miqdoriga qarab qanday baholanadi?
- 8.Tuproqlar aggregatlik holati uning g‘ovakligiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

4- MAVZU. TUPROQNING UMUMIY FIZIK XOSSALARI.

Reja

- 1.Tuproqning umumi fizik xossalari
- 2.Tuproqning g‘ovakligi
- 3.Tuproq govakligining tabaqalanishi

Tayanch so‘z va iboralar: biokimyoviy-mikrobiologik va biologik jarayonlar, polimer, kolloid zarrachalar, koagulyatsiya, agronomik baho, unum dorlik, suv, havo, fizk-mexanik, tuproq namligi, chirindi, namlik.

Tuproqni baxolashda hamda uni genetik xususiyatlarini ko‘rsatitda muhim o‘rin tuggan kattiq fazaning solishtirma va xajm massasi hamda govakligi keng bayon etiladi.

Tabiiy sharoitlarda tuprok, zarrachalarining birikmasi — agregatlardan iborat bo‘ladi, SHuning uchun xam, biz ayrim sof mexatgak zarrachalarning xamda agregatlardan tashkil topgan tuproq massasini (og‘irligi) fark qilishimiz kerak.

Tuproq qattiq fazasining solishtirma massasi. Tuprok qattik fazasining solishtirma massasi deb, gramm hajmidagi sof massaning xuddi shu xajmdagi 40S da olingan suvning sof og‘irligiga bo‘lgan nisbatita aytildi. Uning o‘lchov birligi g/sm Tuproqning kattiq fazasi birlamchi va ikkilamchi minerallar hamda organik, organomineral moddalardan tashkil topganligi uchun uning solishtirma massasi undagi turi va miqdoriga borliq.

Tuprok; tarkibida xar xil minerallarning turli darajada nuragan bo‘lakchalari bo‘ladi. Ularning solishtirma massasi ham har xil. Buni kuydagisi maglumotlardan ko‘rsa bo‘ladi:

Tuproq tarkibida birorta mineralning ko‘p yoki oz bo‘lishiga qarab, uning solishtirma massasi o‘zgarib boradi. Masalan, chirindiga boy tuproqlarning solishtirma massasi kichik bo‘lsa ($1,8 - 2,2$ g/sm³), chirindisi oz mineral Tuproqlarda esa solishtirma massa birmuncha yuqori ($2,60 - 2,30$ g/sm³) bo‘ladi.

Tuproqning solishtirma massasi kam o‘zgaruvchan ko‘rsatkich. Uning o‘zgarishi tuproqda nurash jarayoni bilan bog‘liq. Keyingi yillarda olib boriladigan tekpshirishlar shuni ko‘rsatdiki, surunkali suroriladigan erlarda birlamchi miierallarni parchalanishi natijasida

ikkilamchi og‘ir (soz) minerallar paydo bo‘lib, tuprokning massasi ortib

(L.Tursunov,1981) Avtor bunday ma’lumotlarni Amudaryoning quyi oqimi tuproqlarini urganishi natijasida to‘pladi. Ularda bir oz miqdorda magnetit, limonit, gemitit va boshqa shunga o‘xshash ogir mineralarning shakillanishi qadimdan sug‘oriladigan o‘tloki allyuvial tuproqlarning solishtirma massasining ortishiga ortib kelmoqda.

Tuproqning solishtirma massasi faqatgina laboratoriya sharoitida mahsus shisha asbobchalarda (piknometr) urganiladi.

Solishtirma massa ko‘rsatkichi tuproklarning mineralogik tarkibini aniklashda xamda tuproq g‘ovakligini xisoblashda qo‘llaniladi.

Tuproqning xajm massasi. Tuproqning xajm massasi tabiiy holatdagi bir kub sm. quruq tuproqning (havosi bilan) gramm hisobidagi massasini shu hajmdagi - 40S da olingan suv og‘irligiga bo‘lgan nisbatiga aytildi va gG‘smZ bilan ifodalanadi.

Tuproqning hajm massasi juda o‘zgaruvchan bo‘lib, asosan, agregatlarning zichlashish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Ustki xaydalma qatlam, odatda kichik hajm massasiga (1,1 -1,3 g/sm³) ega, chunki bu qatlamda agregatlar rovak joylashgan bo‘ladi. Quyi qatlamda agregatlar miqdori kamayib borganligi xamda agregat va zarrachalarning zich joylashganligi tufayli bo‘shliqlar miqdori kamayib boradi, natijada hajm massasi ortadi (1,5- 1,7 g/sm³). Strukturali tuproqlarning yuqori qatlamlari kichik xajm massaga ega bo‘lib, u butun vegetatsiya davomida o‘zgarmay turishi mumkin.

O‘zbekiston tuproqlarida agregatlarning kamligi xamda ularning suvga chidamsizligi hajm massasini vegetatsiya davomida juda o‘zgarib turishini olib keladi. Sug‘orish suvlari agregatlarni buzadi va ularni yanada zichlashishiga sabab bo‘ladi. YAngi suroriladigan erlar asta -sekin zichlashib tuproq qovushmasining zichligi jihatidan o‘rtacha o‘rinda turadi. Turli tipdagi sug‘oriladigan tuproklar k,ovushmasini zichligi jihatidan bir biriga yaqin turadi shunday bo‘lsa ham, sahro zonasidagi va gidromorf sharoitidagi tuproqlar ayniqsa kuchli zichlashgan bo‘ladi. Umuman, quyi qatlamlardagi tuproqning hajm massasi ustki qatlam tuproqning hajm massasiga nisbatan kattaroq bo‘ladi. Eng katta hajm massa haydalma qavat tagidagi qatlamdir.

S.N.Rijov haydalma qatlam tagidagi zichlashgan qatlam, ya),ni plug totoni sug‘orish vaqtida bilgan su’niy va qisman ishslash qurollarining tuprok, srukturasiniig buzishi va tuproqni zichlashtirishi vujudga keladi, degan fikr bayon qildi. SHuning uchun xam qadimdan so‘g‘oriladigan tuproklarning xaydalma osti qatlamlari bir muncha katta xajm masgaga ega. (1,60—1,80 g/sm³ ni tashkil etishi mumkin). Tuproqning bu darajada zichlashishiga ko‘p yillik surorish xamda haydov asboblarining bosimi sabab bo‘ladi, Hozirgi vaqtida tuproq qanchalik chukur xayda.\sa, xaydalma qavat tagidagi qatlam zichlanishini shunchalik kamayganligi aniqlandi. Bu qatlamning zarari adabiyotlarda etarli darajada keng yoritilgan va dehqonlar ham uni yaxshi biladilar. Sug‘orilmaydigan erlarda plug totoni bo‘lmaydi, SHo‘rxok tuproqlarning hajm massasi boshqa tuproqlarnikiga nisbatan ancha kamdir. Sug‘oriladigan tuproqlarning xammasi sugorilmaydigan tuproklarga yoki qo‘riq erlarning tuproklarga iisbatan zichroq qovushmali va kamroq teshikli bo‘ladi.

Tuproqning g‘ovakligi

Tuproq xosil bo‘lish jarayonida bushliqlarning umumiy xajmi yig‘indisiga tuproq govakligi deyiladi. Tuproqning rovakligi uning solishtirma massasi (SM) bilan xajm massasi (HM) ga bog‘liq. Ularning uzgarishi bilan g‘ovaklik xam o‘zgarib boradi. Agarda tuproq qatlamlarining solishtirma massasi va xajm massasi ma’lum bo‘lsa, quydagi formula yordamida uning umumiy g‘ovakligini hisoblab chikishi mumkin, (HM)

$$P_{YM} = \left[\frac{[X_{YM}]}{[CM]} \right] 100\%, \text{bunda}$$

Rum -tuproqning umumiy g‘ovakligi, % hisobida.

Tuproqning g‘ovakligi uning muxim xususiyatlaridan biridir. G‘ovaklarning mavjudligi aeratsiya (xavo almashinishi) va suv harakatr!ga ijobiy ta’sir etadi.

Tuproqning g‘ovakligi uning strukturali xolatiga mexanik elementlar xamda ularning tuproq qatlamlarida joylashish tarkibiga (kvadrat, rumbik, oktaedr va x.k.) qarab o‘zgarib boradi. Strukturali bo‘lakchalarni kubsimon xolatda joylashtirilganda ular g‘ovak joylashgan bo‘lib, nazariy xisob kitoblarga qaraganda bo‘lakchalar orasidagi g‘ovaklik umumiy sistemanı 47,6% ni tashkil etadi. Bulakchalar geksogonal shaklida joylashgani esa hovo bilan band bo‘lgan g‘ovaklik 26% bo‘ladi. Hulosa qilib aytganda, tuproqda

qanchalik bo‘lakchalar ko‘p bo‘lsa, ular shunchalik g‘ovak joylashadi va aksincha, strukturasiz tuproqlarda esa mexanik elementlar, qanday itaklda joylashishiga qaramay ular zich bo‘ladi va natijada umumiy govaklik keskin pasayadi. Odatda, chirindiga boy, strukturali tuproqlar eng katta g‘ovayuxikka ega bo‘ladi. Bunday tuproqlarning ustki qatlamida umumiy g‘ovaklik 60 - 70% ni tashkil etishi mumkin. Bu, birinchidan, tuproqda katta rovakliklar, xar xil xasharot va xayvonlarning inlari, ildizlar qoldirgan bo‘shliqlar xisobiga bo‘ladi. G‘ovaklik pastki qatlamlarda pasayib boradi.

Tuprok rovaklarining shakli va diametri xar xil bo‘lishi mumkin. Tuproq zarrachalari va bo‘laklari o‘rtasidagi teshiklarning katta—kichikligi, shakl va soniga qarab quydagicha bo‘linadi:

mayda govak tuproqlar, kovaklarining diametri 1 mm dan kichikroq bo‘ladi (lesslar);

kovak tuprotslar, kovaklarining diametri 1 — 3 mm gacha (bo‘z tuproqlar, strukturali bo‘laklardagi kovaklar);

rivilvirak tuproqlarda diametri 3 mm dan 5 mm gacha bo‘lgan kovaklar uchraydi;

teshik tuproqlar bunday tuproqlardagi bo‘shliqlarning diametri 5 mm dan 10 mm gacha bo‘ladi;

serkavak tuproqlar, bunday tuproqdagi bo‘shliqlar diametri 5 mm dan 10 mm gacha bo‘ladi;

naysimon kovak tuproqlar, bupday tuproqlarda er qazuvchi yirik jonivorlarning inlari bo‘ladi.

Agarda tuproq yuzasida yoriqlar mavjud bo‘lsa, ular katta — kichikligiga qarab quydagilarga bo‘linadi;

darz ketgan tuproqlar, bunday guproqlardagi yoriqlarning eni 3 mm dan 10 mm gacha bo‘ladi;

yoriq (tirqishli) tuproqlar, bunday chuproqdagi yoriklarning eni 10 mm dan ortiq bo‘ladi.

SHunday qilib, tuproqning kovakligi muxim morfologik belgi bo‘lib xizmat qiladi. U tuproqda yashayotgan butun tirik mavjudotni havo, oziq — ovqat va suv bilan ta’minlaydi. Keyingi yillarda tuproq g‘ovakligini o‘rganish maqsadida takomillashgan maxsus mikroskoplar ishlatilmoqda va g‘ovaklikni tabaqalashga kirishildi.

Tuproq govakligining tabaqlalanishi

Yuqorida bayon etilgan ma’lumotlar tuproqda har xil katta — kichiklik va shakildagi govaklarniig borligini ko‘rsatadi. Bu yuvaklar

tuproqdagi barcha jarayonlarda ishtirok etib, tuproq unumdorligini belgilovchi asosiy omil tarikdsida ro‘yobga chiqadi.

G‘ovaklar, shaklan va katta kichikligiga qarab tuproqdagi barcha jarayonlarda bir xilda ishtirok etmaydi. Diametri 5 — 7 millimikrondan kichik bo‘shliqlar birikkan suv bilan to‘la bo‘ladi. N.A.Kachinskiy ma’lumotlariga ko‘ra, ildiz tukchalari diametri kamida 10 millimikrongacha bo‘lgan bo‘shliqlarga kira oladi.

1864 yilda nemis olimi V.SHumaxer o‘zining «Fizika pochv!» kitobida tuprokdagi g‘ovaklarni chukur analiz kilib, ularni quydagи gruppalarga ajratadi: umumiylar, kapillyar va nokapillyar rovaklar.

V.SHumaxer tuproqdagi hamma yig‘indisiga (protsent hisobida), umumiylar g‘ovaklik deb tuproqning kapillyar suv bilan band bo‘lgan g‘ovaklar yig‘indisiga kapillyar g‘ovaklik deb tushungan. Nokapillyar g‘ovaklik esa umumiylar g‘ovaklik bilan kapillyar govaklik o‘rtasidagi farjni ifodalaydi va xammavaqt xavo bilan band bo‘ladi. V.SHumaxerning bu konsepsiysi progesiv olimlar tomonidan ma’qullangan va bizga Vagner, Doyarenko ishlari orqali etib kelgan.

P.Fageler, F.Sekera, N.A.Kachinskiy tuproqdagi g‘ovaklarni aktiv va noaktyvga ajratadi. Bunda tuproq g‘ovaklaridagi suvning xar xil kategoriyalari asos qilib olinadi.

Aktiv rovaklarga tuproqdagi yirik teshiklar (diametri mikrondan katta) ni kiritiladi. Bu kovaklarda kapillyar, gravitatsion suvlar saqlanadi, xavo va tirik mavjudot bo‘ladi. Noaktiv g‘ovaklarda esa — tuproqdagi adsorbsion (gigroskopik) suvlar kiradi va bu rovaklar juda kichik o‘lchovlar (millimikronda) bilan o‘lchanadi, 1947 yilda NA Kachinskiy yangi rivojlantirib, tuproqdagi govaklikni quyidagilarga ajratadi.

1.Umumiylar g‘ovaklik, quyidagi formula yordamida hisoblanadi .

$$P_{YM} = \frac{d - dv}{d} \cdot 100\% \text{ hisobida;}$$

Rum — umumiylar g‘ovakligi, % hisobida;

d — tuproq qattiq fazasining solishtirma massasi, g/sm³;

dv — tuproqning hajm massasi, g/gm.3;

100 — protsentga aylantirish koeffitseiti.

2.Agregat g‘ovakligi, buni kuydagи formula bo‘yicha topiladi:

$$P_{AP} = \frac{A}{vd} \cdot 100\%, \text{ bunda,}$$

Ragr — agregat g‘ovakligi, % hisobida;

A— absolyut quruq holdagi agregat og‘irligi, gramm hisobida;
 v — tuproq qattiq fazasining solishtirma massasi, g/sm³;
 d — tuproq qattiq fazasining solishtirma massasi, g/sm³.

Formuladagi v — agregatning hajmi massasi, agregatni suyuqlikda cho‘ktirish yordamida topiladi.

3.Agregatlar yiishdisi govakligi (R E agr) quyidagi formula yordamida topiladi:

$$P_{\text{agr}} = \frac{a(100-a)}{100-a}, \% \text{ bunda}$$

a — agregat g‘ovakligi v — tuproqning umumiyligi g‘ovakligi.

4.Agregatlar orasidagi g‘ovakligi (R agr . or) quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$R_{\text{agr}} \cdot or = R_{\text{agr}} \%$$

5.3ich boglangan suvlar (Rmg) bilan band bo‘lgan g‘ovaklik quyidagicha hisoblanadi;

$$P_{\text{mg}} = (\omega_{\text{mg}} \times dv : 1,50) \text{ bunda}$$

(mg tuproqning maksimal gigroskopik namligi atmosferada nisbiy namlik 94 — 96% bo‘lganda tuproq zarrachalari tomonidan (adsorbsiya qilingan) eng ko‘p miqdordagi suv bug‘lariga aytildi va u tuproq massasiga nisbatan protsent hisobida beriladi; dv — tuproqning hajm massasi, g/sm³; 1,50 — maksimal gigroskopik suvning zichligi,

6.Bo‘sh bog‘langan suvlar bilan band bo‘lgan g‘ovaklik esa quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$P_{\text{66c}} = (0,5 \omega_{\text{mg}} \times dv : 1,25)\%$$

bunda, 1,25 — parda suvining zichligi. Parda suvi deb, tuproq zarrachalari atrofida molekulyar kuchlar ta’sirida ushlanib turilgan suv molekulariga aytildi va uning miqdori tuproq massasiga nisbatan protsent hisobida ifodalanadi. A.K.Lebedev parda suvni maksimal molekulyar suv deb yuritishni taklif qilgan. Qolgan ko‘rsatgich oldingicha nomlanadi.

7.Kapillyar suv bilan band bo‘lgan g‘ovaklarni (Rkap) xisoblash formulasi quyidagicha.

$$P_{\text{kap}} = \omega_{\text{Д*Н*С}} - 1,5\omega_{\text{mg}} \times dv \% \text{ bunda}$$

$\omega_{\text{Д*Н*С}}$ — tuproq tula namlanganda kapillyarlarda ushlanib qoligan eng ko‘p miqdordagi suv (dala nam sig‘imi) tuproq massasiga nisbatan protsent hisobida;

$1,5\omega_{\text{mg}}$ g (mg — o‘simgiqning so‘lish namligi, ya’ni o‘simgilik tuproqda mavjud bo‘lgan suvlarni, ular tuproq zarrachalaridan katta

kuch bilan o'shlanib turilganligi sababli istemol qila olmaydi, bu ko'rsatkich odatda maksimal gigroskopik namlikdan 1;5 marta katta bo'ladi, tuproq massasiga nisbatan protsent hisobida;

dv — tuproqning hajm massasi, g/sm³.

8.Umumiy suv bilan band bo'lgan g'ovaklik (R₀) quyidagicha topiladi:

$$P_{\omega} = P_{\text{кан}} - P_{\text{ир}} - P_{\text{66c}}$$

9.Nihoyat havo bilan band bo'lgan g'ovaklik (Raer) quyidagicha hisoblanadi:

$$P_{\text{азп}} = P_{\text{ым}} - P, \%$$

G'ovaklarni N.A.Kachinskiy taklif etgan tartibda o'rghanish, albatta, tuproqdagi g'ovayu\arga yanada to'liq baho berishga olib keladi. Darhaqiqat, taqir tuproqlarda, bunday qaraganda g'ovaklik juda yaxshi yfodalangan, ya'ni umumiy g'ovaklik yukori qatlamlarda 45 - 50% ni tashkil etadi. Lekin uni Kachinskiy taklif etgan tartibda o'rgansak, boshkacha bir xulosaga kelamiz, g'ovaklikning katta qismi albatta zinch ham bo'sh borlangan suvlar bilan band bo'lib, tuproqda ketadigan aktiv jarayonlarda ishtirok etmaydi,

9-MAVZU: TUPROQNING GIDROLOGIK KONSTANTALARI

Reja

1. Tuproqning gidrologik konstantalari
2. Tuproq suvi shakllari
- 3.

Tayanch soz va iboralar genetik qatlamlar, hidrologiya, osmotik bosim, tuproq suvi, turlari nam sirimi, suv rejimi, tuproq hidrologiyasi, suv saqlay olish xususiyatlar.

Tuproqning kelib chiqishi, genetik qatlamlarda har xil elementlarning harakati va to'planishida, hamda tuproqning (ekologik hayotida muhim rol o'yinaydigaya tuproq suvi, turlari nam sirimi, suv rejimi va balansi to'g'risida mukammal bilim beriladi.

Tuproqning asosiy tarkibiy qismlaryidan biri-tuproq suvi xisoblanadi. Tuproqning paydo bo'lishida, uning genetik qatlamlarida

har xil mineral va organik elementlarning to‘planishi yoki xarakatlanishda, ikkilamchi sozli minerallarning vujudga kelishi va boshqa jarayonlarda tuproq tarkibidagi suvning roli juda kattadir.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda tuproq tarkibidagi suv muxim ahamiyatga ega. Shuning uchun xam tuproq suv rejimini boshqarish madaniy ekinlar hosildorligini opgirish nuqtai nazardan dehqonchilikdagi bosh masala bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.

O‘tgan asrda V.V.Dokuchayev asos solgan ilmiy tuproqshunoslik fani tuproq tarkibidagi suv (gidrologiya) masalalarini e’tiborsiz qoldirmay. Bu masalalarni yoritish oldindan qilingan tajribalarga asoslanadi. Dokuchaev tuproq hidrologiyasini ilmiy tuproqshunoslik fanining tarkibiy qismi deb hisobladi.

Darxaqiqat, V.V.Dokuchayev qurg‘oqchilikka qarshi kurashish muammolarini yechishda, tuproq suv rejimiga aloxida e’tibor berdi. U o‘zining «Nashi stepi prejde i teper» (1891 yil) asarining oxirgi «Rossiyaning suv xo‘jaligini tartibga solish usullari» bo‘limida qor qatlamini o‘rganish, tuproqning muzlash, erish chuqurligi va xarakterini o‘rganish, sizot suvlari tarkibini o‘rganish kabilar qurg‘oqchilikni bartaraf qilishda muxim ekanligini ko‘rsatib o‘tdi.

V.V.Dokuchayev asos solgan tuproq hidrologiyasini keyinchalik uning shogirdlari —G.N.Visotskiy, N.P.Adamov, A.A.Izmailskiyalar davom ettirdilar,

Tuproq hidrologiyasi rivojining yangi bosqichi A.F.Lebedevning «Pochvennaya i gruntovaya voda» (1919) asari bilan boshlanadi. Bu asar juda ko‘p original materiallarga boy bo‘lib, bunda tuproq tarkibidagi suvga qarashli ko‘p masalalar yoritilgan.

A.F.Lebedev tuproq tarkibidagi suv harakatida asosiy o‘rinni egallyaydi. Vaholanki Lebedevga qadar olimlar tuproq tarkibidagi suvning harakatidagi birinchi o‘rinni kapillyar kuchga ajratgan edilar. Lebedevning bu kashfiyoti faqatgina tuproqshunoslikkagina emas, balki gidrogeologiya, gruntshunoslik kabi fanlarga ham kirib bordi va uzoq, saqlandi.

1948 yilda S.I.Dolgov «Isslpdovaniya podvijnosti pochvennoy vlagi i eyo dostupnosti dlya rasteniy» asarini nashr etdi. Bu asrda muallif A.F.Lebedev konsepsiyasiga qarama — qarshi tuproq suv harakatida birinchi o‘rinda kapilyar (menisk) kuchlar turadi, deb hisoblaodi.

L.L.Rode «Osnovi ucheniya o pochvennoy vlago», asarida ko‘pgiia ma’lumotlarni, shuningdek, taxsiy eksperimental materiallar asosida tuproq gidrologiyasi ta’limotini umumlashtirdi. Tuproq planetamizdagi suv aylanishida muxim rol o‘ynaydi. Tuproq yuzasida atmosfera yog‘inlarining transformatsiyasi sodir bo‘ladi. Uning bir qismi tuproq yuzasidan yuvilib ketadi va boshqa suvlarga aylanadi, ikkinchi qismi esa, tuproqqa kiradi, bir qismi suv parlari formasida o‘simpliklardagi desuksiya va transpiratsiya orqali shuningdek fizik parlanish natijasida yana atmosferaga qaytadi, bir qismi biologik sintezda qatnashadi va organik moddalarga aylanadi, yana bir qismi esa tuproq vertikal qatlamlari oralab pastga oqib sizot (yer osti) suvlarini vujudga keltiradi.

Shunday qilib, er yuzasiga tushgan atmosfera yog‘ini tuproqda suv bug‘i, tuproq tarkibidagi suvlar, sizot suvi singari tabiy shakllarda atmosfera - tuproq - grunt - o‘simplik qoplami sistemasida transformatsiya qilinadi.

O‘simpliklarni suv bilan ta’milanganligi, tuproqning umumiy namligi bilan emas, balki u yoki bu miqdorda o‘simplik qabul qila oladigan shakldagi suv miqdori bilan o‘lchanadi. Bu esa, tuproqning suv-fizik yoki suv xossa (xususiyat)lari orqali aniqlanadi. Bunday xususiyatlarga tuproqning suv sorbsiyasi, suv o‘tkazuvchanligi, suv saqlay olish xususiyatlari hamda uning kapillyarlik qobiliyati kiradi.

Tuproqdagagi suv shakillari va uning xarakatlanishidan mineral hamda mexanik elementlardan tashkil topgan tuproqning katqiq fazasi asosiy rol o‘ynaydi.

Tuproq zarrachalari ma’lum solishtirma yuzaga xamda yuza energiyasiga ega bo‘lganligi bu zarrachalar atrofida ma’lum miqdorda suv molekulalarining yutilishi (sorbsiyasi) ga sabab bo‘ladi.

Tuproqdagagi suvlarni saqlashda sorbsion va kapillyar kuchlar asosiy o‘rin egallaydi. Bu ikki xil kuchlardan tashqari, yana tuproq suvida osmotik bosim bilan o‘lchanadigan osmotik kuch ham bor. Osmotik kuchning asosiy xususiyati shundan iboratki, uning manbai tuprok tarkibidagi suvning o‘zida bo‘ladi. Sorbsion, menisk, osmotik kuchlar gravitatsion maydonda ta’sir etadi. Uning kattaligi va yo‘nalishi doimiydir. Qolgan uchta kategoriya kuchlar tuproqning o‘zida bo‘libg uning kattaligi noldan katta ko‘rsatkichgacha (sorbsion kuch to 10 din/sm²) bo‘ladi. Bu hol yuqoridagi kuchlarning kattaligi tuproqning har xil tochkalarida bir xil emas. Natijada tuproqda bu

kuchlarning gradienti xosil bo‘ladi va tuggroq suvi shu gradient yo‘nalishi ta’sirida xoxlagan tomonga harakat kilipga mumkin. Tuproq suviga hech kanday kuch ta’sir qilmasa, tuproq ertami kechmi suvsiz bo‘lib qoladi. Lekin gravitatsion kuchga sorbsion va menisk kuchlar qarama —qarshi turadi, Sorbsion kuchlar tuprok, borlashga xarakat qiladi va suvning orientirlangan molekulalaridan tashkil topgan suv kobirini hosil qiladi. Bu suv qobigi qalinligi oshishi bilan sorbsion kuchlar kamayib boradi, natijada sorbsion kuchlar juda kamayib ketadi vav tuproq eritmasini gravitatsion oqib ketishidan saqlab qola olmaydi.

Kapilyar (menisk) kuchlarning sorbsion kuchlardan asosiy farqi ular suvning aloxida molekulalariga doimiy ta’sir etib, tuproq zarrachasi atrofida orientatsiyalashgan suv molekulasi qatlamini vujudga keltirishidir; kapilyar kuchlar esa menisk yuza qatlami orqali suvning alohida molekulalaridan tashkil topgan katta qalinlikdagi (orientatsiyada bo‘lmagan) suv qatlamiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Tuproq eritmasining osmotik bosimi orqali o‘lchanadigan (bu kuchning manbai ham shu eritma xisoblanadi) osmotik kuchlar gravitatsion kuchlarga qarama — qarshi turaolmay, unda saqlangan tuzlarning hammasi eritma ta’sirini ifodalash uchun alohida metod qo‘llash kerak. Tuproq namligining termodinamik potensiali shunday metod xisoblanadi. YUqoridagi kuchlar ta’siri ostida bo‘lgan tuproq namligi bu kuchlar bilan muvozanatga kelishga harakat qiladi. Biroq bunday muvozanat faqatgina laboratoriya tajribalaridagina bo‘ladi. Tabiatda muvozanatni saqlashga to‘sinqilik qiladigan bir qancha hodisalar bor. Quyosh nuri energiyasi o‘zining uch xil (sutkalik, yillik, ko‘p yillik) ritmi orqali yuqoridagi muvozanatga to‘sinqinkning asosiy tashkil etadi.

Quyosh nuri energiyasi tuproqqa singadi, uning ichidatemperatura gradienti hosil qiladi, u esa o‘z navbatida tuproq eritmasining harakatiga sabab bo‘ladi. Quyosh nuri energiyasi desuksiya va tuproq namligining parchalanishiga sabab bo‘ladi, bu esa tuproq namligini harakatga keltiradigan sorbsion va menisk kuchlarning gradientini yuzaga keltiradi.

Shunday qilib, tuproqning qattiq va suyuq qismi orasida bo‘ladigan o‘zaro munosibat suvning xilma —xil shakllari va ularning harakatini vujudga keltiradi. Bu harakatning hammasi gravitatsion kuch maydonida quosh nuri energiyasi ta’siri ostida bo‘ladi.

Tuproq suvi shakllari

Yuqorida bayon qilganimizdek, tuarok zarrachalari hamma vaqt ozmi —ko‘pmi suv bo‘ladi. Tuproq suvi doimo arning tortish kuchi, tuproq zarralarining molekulyar tortish kuchi va nihoyat suv molekulalarining o‘zaro tortish kuchlari ta’sirida bo‘ladi. Bu kuchlar bir vaqtning o‘zida baravar ta’sir qilsalar ham, ustunlik qilishi mumkin. SHuning uchun ham olimlar o‘zlarining tasniflari asosida tuproqdagagi u eki bu kuchini asos qilib undagi suv shakillarining dastlabki tasnifini ishlab chiqdilar. Birinchi bo‘lib rus olimi S.Bogdanov (1889) tuproqda 4 xil gigroskopik, imbibitsion, kapillyar va gidrostatik bosim ostidagi suvlar mavjuddigini, ulardan birinchi va ikkinchisi o‘simlik uchun foydali suv emas, chunki ular katta sorbsion kuch ta’sirida tuproqda ushlanib qolishini, qolgan 2 ta suv o‘simlik uchun foydali ekanligini isbotladi.

Keyinchalik bu tasnifni boshqa olim A.F.Lebedevning (1919) yangi ma’lumotlari bilan takomillashtiriladi. Lebedev tuproqda uning harorati 00 S dan yuqori bo‘lgan suvning quydagи shakllarini ajratadi; bug‘ holatdagi suv, gigroskopik suv, parda suv vat nixoyat gravitatsion suv.

a)S.I.Dolgov (1948) tuproq qattiq fazasining kolloid ximiya nazariyasiga asoslanib suvning 3 xil shaklini ajratdi; sorbsion suvlar, erkin (suyuq) suvlar, bur xolatdagi suv. SHu bilan birga ximiyaviy bog‘langan suvlar xam ajratildi.

A.A.Rode (1956,1965) tuproq hidrologiyasi sohasidagi ishlarni chuqur analiz qilib, o‘zining yangi ma’lumotlari asosida tuproqdagagi suvning kuyidagi shakllarini ajratdi;

1.Konstitutsion va kristalizatsion suvlar (ximiyaviy bog‘langan suvlar —Dolgov)

2.Qattiq suv (muz)

Z.Bug‘ xolatdagi suv

4.3ich bog‘langan suvlar

5.Bo‘sh bog‘langan suvlar

Erkin (suyuq) suvlar. Bular quydagilarga bo‘linadi;

a)oraliq suvlar;

b)sorbsion~ bekik suvlar;

v)kapillyar — osilgan suvlar;

g)kapillyar — pastga okuvchan suvlar;

d)gravitatsion tirkalgan suvlar.

Biz yuqorida aytilgan klassifikatsiyalarini inobatga olib tuproqda suvning quydag'i shakillarini ko'rib chiqamiz.

- 1.Ximiyaviy boglangan suv,
- 2.Bursimon suv.
- 3.Gigroskopik suv.
- 4.Parda suv.
- 5.Kapillyar suv.
- 6.Gravitations suv.

Kimyoviy bog'langan suv shakllari konstitutsion va kristalizatsion kenja turlardan tashkil topgan. Konstitutsion suvlar odatda minerallar tarkibiga kirib, uning kristallik panjarasidan o'rinni oladi. Bu suvlar juda yuqori temperatura sharoitda ($500\text{--}1000^{\circ}\text{S}$ da) minerallarning tarkibidan ajralib chiqadi, natijada minerallarning tarkibi va xususiyati o'zgaradi.

Kristallizatsion suvlar esa mineral tuzlar tarkibida saqlanib, past temperaturada undan ajraladi. Bunda mineralning tuzulishi va tarkibi o'zgarmaydi.

Tuproq tarkibidagi suvning bu shakli tuproqdagi xech bir fizik jarayonlarda, uning umumiyligi suv jamgarmasiga ishtirok etmay, lekin tuproq va minerallarning tarkibini xarakterlovchi ko'rsatkich xisoblanadi.

Tuproq g'ovak sistema bo'lgani uchun, bu rovaklar doimo xavo va suv buqlari bilan to'lgan bo'ladi. Tuproqdagi suvning bu shakli xam o'simlik uchun foydasiz. Biroq bur holatdagi suv o'simlikka singadigan holatga o'ta oladi. Qishda suvburi arning pastki birmuncha issiq qatlamlaridan, yuqorigi sovuq qatlamlariga qo'tarilib, suyuq holatga' aylanadi, Tuproqdagi bursimon suvning xarakati diffuziya qonuniga bo'ysupadi. Bu xarakat, asosan, tuproq havosining bur suvlariga to'yinish darajasi va temperaturaga bog'liq bo'ladi. Bur holatdagi suvning harakatini oddiy kuzatish olib borish yo'li bilan bilish mumkin. YOz kunlarida cho'l zonasining qumli tuproqlari yoki qumlari rosa kiziydi va o'zining tarkibidagi suvlarni atmosferaga parlatadi. Birinchi qarashdayoq bunday tuproqlarda suv qolmaydi. Agarda siz kechqurun tuprok, yuzasini (1×1) yoki (2×2) polietilen materiali bilan bekitsangiz, ertalab polietilenning ichki yuzasida son —sanoqsiz suv tomchilari paydo bo'lganini ko'ramiz. Bu suv tomchilari bug'simon suvlarning kondoisatsiyasidan paydo bo'ldi.

Bug‘simon suvning harakatga keltiruvchi faktor bu sutka davomida tuproq qatlamida vujudga kelgan termik gradient hisoblanadi.

Gigroskopik suv. Odatdagi ochiq sharoitda yotgan tuproqdai birorta idishga olib, uni uzluksnz 406 soat davomida maxsus1 termosggatda 1000—1050 atrofida quriting, so‘ng tarozida torting. Quritilgyn tunroqni ochiq joyda bir oz (2 — 3 soat) sovitib, yana bo‘lib qolganini ko‘rasiz. Demak, tuproq kuritilganda undan singdirilgan suv molekulalari bug‘lanib ketadi, sovitilganda esa, tuproq zarrachalarining adsorbsion (sorbsion) tortish kuchi ta’sirida atmosfera xavosidagi suv molekulalari tuproqqa qayta singadi xamda tuproq zarrachalari yuzasida to‘plana boshlaydi.

Tuproq zarrachalarining atmosfera xavosidagi o‘ziga suv molekulalarini (namni) singdirish qobiliyatiga uning gigroskopiklik xususiyati va shu yo‘l bilan singdirilgan suv gigroskopik suv deb ataladi.

Gigroskopik suv tuprok zarrachalari orqali juda katga kuch bilan tortilib turganligi uchun undan o‘simlik va boshqa tuproq organizmlari foydalana olmaydi. SHuning uchun xam gigroskopik suvni tuprok bilan zich borlagan suv deb yuritiladi. Gigroskopik suv moddalarni eritish xamda elektr o‘tkazuvchanlik qobiliyatiga ega emas, muzlash darajasi xam juda past (— 78° S). Gigroskopik suvning mikdori tuproqlarda o‘zgarmaydigan son emas. Uning miqdori birinchidan xavoning namligi oshishi bilan ko‘paysa, ikkinchidan tuproq mexanik tarkibiliing og‘irlashishi, kolloid zarrachalar va organik moddalarning ko‘payishi bilak ortadi. Bu o‘rinda ayniqsa tuproqni tashkil eggan xar xil minerallarning suvga bo‘lgan munosabati katta rol o‘ynaydi. Bordi —yu minerallar suvni o‘ziga yaxshi qabul qilsa, (gidrofil bo‘lsa,) bu minerallarning gigroskopikligi shuncha yuqori bo‘ladi, agarda minerallar suvni o‘ziga yaxshi qabul qilmasa (gidrofob), bunday minerallarning gigroskopikligi past bo‘ladi. Tuproq tarkibida mineral tuzlar miqdorining oshishi, uning albatta, gigroskopiklik qobiliyatining yuqori bo‘lishiga olib keladi. Gigroskopik suv miqdori atmosfera havosining suv parlari bilan to‘yinganlik darajasiga qarab o‘zgarib boradi. Tuproqning xavo suv parlari bilan maksimal to‘yingan holati (nisbiy namlik 94 — 96% bo‘lganda) singdirgan maksimal namlik miqdori quruq tuprok massasiga nisbatan protsent hisobida ifodalanib, bu namlikni maksimal gigroskopik suv (MG) deb

ataymiz. Bunda tuproq zarrachasi atrofi batamom suv molekulalari bilan o'ralgan bo'ladi.

Gigroskopik va maksimal gigroskopik namliklarni aniqlash, tuproqning tarkibiy qismlari to'g'risida muloxaza yuritishga imkon beradi. Ba'zi hotlarda maksimal gigroskopiklik ko'rsatkichi orqali o'simliklarning so'lish namligini yoki so'lish koeffitsientini xisoblab chiqish mumkin.

Parda suv. Tuproq maksimal gigroskopik namlik darajasiga etganda ham tuprok ham tuproq zarrachalarining molekulyar tortish kuchidan bir qismi erkin qolishi mumkin. Mana shu erkin qolgan kuch, xavodan o'ziga nam singdira olmasada, lekin suyuq suv bilan to'qnashganda, bu suvning bir qismini o'ziga singdirib oladi. Bu namlik tuproq zarrachalarini yupqa parda shaklida o'rab olganligi uchun uni parda suv deb yuritiladi.

Tuproq tarkibidagi suvning bu shakli, odatda, tuproq zarrachalari (agregatlari) tomonidan molekulyar kuchlar ta'sirida ushlab turilganligi uchun A.F.Lebedov maksimal molekulyar suv (MMS) deb atashni taklif etgan. MMS ko'rsatkichi xam tuproqning granulometrik tarkibi hamda chirindi moddasining ko'p- ozligiga qarab o'zgarib boradi.

Parda suv (yoki MMS) ni tuprok zarrachalari unchalikkatta kuch bilan o'shlab turilmaganligi uchun, uni tuproq bilan yumshoq bog'langan suv deb ataladi. Parda suvni o'simliklar osonlik bilan o'zlashtira olmaydilar, lekin tuproqda qalin zarrachalardagi suv pardasi yupqa zarrachalarga suyuq holatda harakat qilganligi uchun tuzlarni eritadi; elektr o'tkazuvchanlik kabi xossalarga xam ega bo'ladi.

Kapillyar suv. Tuproqning suv o'tkazuvchanligini uning kapillyar suv xossalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tuprokda suv xamda xavo harakatini ta'minlovchi kapillyar naychalar agregatlar oralig'ida bo'ladi. Chang - to'zonlardan tarkib topgan tuproqda kapillyar naychalar bo'lsada, ular o'simlik uchun foydasiz hisoblanadi.

Yog'in-sochin yoki oqar suvlarning tiproq pastki qatlamlariga, sizot suvlarning esa qora qatlamlariga xarakati anashu kapillyar naychalar orqali amalga oshadi. Demak, tuproq zarracha (agregat) lari oralirida xosil bo'lgan kapillyar naychalarni to'ldirib, menisk kuch

ta'sirida pastdai yuqoriga yoki yuqoridan pastga harakat eta oladigan suv kapillyar suv deyiladi.

N.A.Kachinskiyning ko'rsatishicha, diametri 8 mm dan kichik, ayniqsa 100 mk —3 mk orasida bo'lganda kapiltshrlik yaxshi ifodalanadi. Chunki diamotr jihatdan kagga kapillyarlardan (8 mm) kapillyar suvlarii harakatga keltiruvchi botiq yoki qavariq yuza vujudga kelmaydi. Diametri 3 mm dan kichik bo'lgan kapillyarlar esa doimo sorbsiya qilingan suvlar bilan band bo'lib, kapillyar suvlar xarakatiga to's-qilik qiladi.

Eritmaning tuprok, kapillyaridagi tabiatini matematik kiymatini Laplas (1807) quyidagi formulasi bo'yicha ifodalash mumkin.

$$P = K + \sigma \left(\frac{1}{R_{1_1}} + \frac{1}{R_{2_1}} \right), \text{ bunda,}$$

R — kapilyar suv yuzasi vujudga keltirgan normal bosim.

K — erkin suv yuzasining normal bosim.

G — eritmaning yuza tortilish kuchi.

R₁ va R — menisk kuchlarni vujudga keltirgan kapillyarlar radiusi.

Menisk kuchlar pastga tomon yunalgan bo'lsa (qabariq yuza) musbat, agarda ular yuqori yo'nalgan bo'lsa, (botiq yuza) manfiy hisoblanadi.

Agarda biz shartli ravishda tuproq kapillyarini silindir shaklida deb faraz qilsak, bunda R₁ va R₂ lar o'zaro teng bo'lib yuqoridagi formula quydagi ko'rinishda bo'ladi:

$$P = K + \sigma \left(\frac{1}{R_{1_1}} + \frac{1}{R_{2_1}} \right) = K + \frac{2\sigma}{R_2}$$

Bu formulani kapillyardagi suyuklik vujudga keltirgan uch turdag'i holatga qarab 'Quydagi ko'rsatkichlarni olish mumkin:

1.Suyuqlik yuzasi tekislik ya'ni menisk yuza hosil bo'lmasan. Bunda yuqoridagi formula quydagicha tus oladi:

$$R = K + 2\sigma = K + O = K$$

ya'ni bunda kapillyar ichidagi suyuqlik bilan ko'tarilishni ta'min etuvchi bosim bir —biriga teng, hech bir ko'tarilish bo'lmaydi.

2.Menisk yuzasi qabariq (musbat kuch). Bunda Laplas formulasi quydagicha tus oladi.

$$P = K + \frac{2\sigma}{R} \text{ bunda qabariq yuzada hosil bo'lgan normal}$$

Bosim birinchi holatdagi bosimdan katta bo'ladi,

3. Menisk yuza botiq (manfiy kuch) bo‘lganda Laplas formulasi quydagicha ifodalanadi.

$$P = K + \sigma \left(\frac{1}{R_{1,1}} + \frac{1}{R_{2,1}} \right) = K + \frac{2\sigma}{R_2}$$

Keyingi holatdagi, botik yuza vujudga keltirilgai manfiy kuch (bosim) suyuklikni ma’lum bir balanddikkacha (sm da) ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi. O‘z navbatida bu ko‘tarilish menisk yuza hamda suyuqlik ko‘tariladigan erkin yuza o‘rtasidagi bosim tenglashguncha davom etadi.

Jyuren (1718) bo‘yicha kapillyar ko‘tarilish balandligi () quydagagi formula bilan ifodalanadi. 2 a

$$h = \frac{2\sigma}{rd}, \text{ bunda}$$

h — suvning kapillyarlar bo‘ylab ko‘tarilish balandligi, sm Da,

G—yuza tortilish kuchi (koeffitsienti),

r— kapillyar radiusi, mm da,

d — suyuqlik zichligi.

Jyuren tenglamasidan hulosa qilib, kapillyar ko‘tarilish balandligi h, yuza tortilish koeffitsienti (kuchi) bilan to‘rri proporsional, kapillyar radiusi hamda ko‘tariladigan suyuqlik zichligi (konsentratsiyasi) ko‘paytmasiga to‘g‘ri proporsional bog‘lanishda bo‘lar ekan.

Yuqorida keltirilgan Laplas va Jyuren tenglamasidan shu narsa aniqlanadiki, kapillyar ko‘tarilish sizot suvlari yuzasidan cheksiz balanddikkacha bo‘lishi mumkin, ya’ni kapillyar naycha diametri qancha kichik bo‘lsa kapillyar ko‘tarilish balandligi shuncha katta va aksincha, kapillyar naychalar qancha yirik bo‘lsa suvning ko‘tarilish balandligi xdm shuncha kichik bo‘ladi. Demak, mexanik (granulometrik) tarkibi orir tuproqlarda suvning ko‘tarilish balandligi katta bo‘ladi.

Mixelson ko‘rsatishi bo‘yicha, mexanik zarrachalarning diametri 0,0001 mm dan tashkil topgan tuproqlarda Laplas formulasi bo‘yicha kapillyar ko‘tarilish balandligi 296,5 gacha, Tersagi bo‘yicha esa bir necha yuz metrgacha bo‘lishi mumkin. Masalam, Zavoljening lyossimon qumoqlari 350 sm dan (Kachinskiy) yoki A.A.Robo bo‘yicha 600 s:m dan, Mirzacho‘lning och tugli bo‘z tuproqla.rida esa 3 — 4 m dap (Bespakov) oshmasligi ko‘rsatiladi.

Tabiiy sharoitda olingan ma’lumotlar nazariy yo‘l bilan hisoblangan ma’lumotlarga to‘g‘ri kelmasliginiig asosiy sababi —

diametri jixatidan juda kichik teshikchalarining zich bog‘langan suvlar yoki xavo bilan band bo‘lishi mumkin. Bunday sharoitda erkin suvning kapillyarlar bo‘ylab xarakati uchun sharoit bo‘lmaydi.

Har xil mexanik tarkibli tuproqlarda kapillyar ko‘tarilish tezligi va balandligi labaratoriya sharoitida (modelda) balandligi 120 sm li shisha trubkalarda quyidagi variantlarda o‘rganildi:

1.changli kum:

2.yengil qumoq:

3.o‘rtacha kumoq:

4.yengil soz:

5.qumloq (0 — 30 sm), o‘rtacha qumoq (30 — 60 sm), orir qumoq (60-90 sm), soz (90- 120 sm);

6.og‘ir qumok (0 — 30 sm), o‘rtacha qumoq (30 — 60 sm), qumloq (60-90 sm), qum (90-120 sm):

7.o‘rtacha kumoq (0 — 30 sm), soz (30 — 50 sm), og‘ir qumok (50 — 80 sm), qum (80-120 sm):

8.og‘ir qumoq (0 — 30 sm), engil qumoq (30 — 50 sm), soz (50 — 70 sm), qum (70-90 sm), og‘ir qumoq (90-120 sm)?

9.og‘ir qumoq (0 — 20 sm), qumlok, (20 — 40 sm), qum (40 — 60 sm), soz (60 — 80 sm)g o‘rtacha qumoq (80—100 sm), engil qumoq (100-120sm).

(80-100 sm), engil qumoq (100- 120 sm).

Namlikning tarqalish holatini quyidagi kategoriyalarga ajratildi (tuproq vazniga nisbatan protsent miqdorida)

0- 10 -o‘simlikning so‘lish namligi, tarkibidagi suv qiyin o‘zlashtiriladigan shaklda:

10-15 -maksimal molekulyar nam sig‘imi darajasi, qiyin o‘zlashtiriladigan suv shaklida:

15 - 20 - kapillyarlarning uzilish namligi ko‘rsatkichi, tuproq tarkibidagi o‘rtacha o‘zlashtiriladigan suv:

20 -30 -dala nam sig‘imi (har xil mexanik tarkibli tuproqlar uchun), tarkibidagi suv oson o‘zlashtiriladigan shaklda:

30 dan yuqori - kapillyar, xattoki to‘la nam sirimi tarkibidagi suv oson o‘zlashtiriladigan, lekin bu suv shakli tuprok qatlamlarida o‘zoq turishi unda xavo almashinuvining osonlashishiga oligaiga olib keladi.

Xullas, tuproq mexanik tarkibining uning profilida o‘zgarishi — bir tomonidan, sizot suvlar satxining o‘zgarishi — ikkinchi tomonidan

o'suv davri davomida tuproqda kapilyar ko'tarilish tezligi va namlikni boshqarib to'radi.

Gravitsion suv deb, yog'in - sochindan eki sug'orishdan sung hogil bo'lib, arning tortish kuchi ta'sirida o'z og'irligi bilan tuprokning pastki qatlamlari yoki tuprokning kapillyar va kapillyar bo'lmanan oraliqlarni to'ldirgan holda yon atrofda erkin oquvchi suvga aytildi. Gravitsion suvni b.a'zan filtratsion suv deb ham yuritiladi.

Gravitsion suv tuproqda qatlamlar orasida tarqalib, kagshlyar suvga aylanadi yoki sizot suvlariga qo'shiladi. Gravitsion suvnixam o'simliklar juda yaxshi o'zlashtiradi, lekin bu suvning tuproqda uzoq vaqt saqlanib qolish tuproq havosining siqib chiqarilishiga, o'simlik va mikroorganizmlar uchun havo etishmay qolishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari to'proq holati va suv sig'imini hisobga olmay normadan oshiq erga beriladigan suv, birinchidan tuproqdagi oziq moddalarni sizot suvlarigacha yuvib tushirsa, ikkinchidan sizot suvlar sathining ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Har ikkala holatda xam xo'jalik juda katta zarar ko'rish mumkin. Ayniqsa, sizot suvlarining tuproq yuzasiga yaqinlashishi, agar uning oqimi yomon bo'lsa, (mas, Mirzacho'l), tuproqning sho'rlanishi va botqoqlanishiga sabab bo'ladi. SHO'r va botqoq tuproqlarni yaxshilash va ularni unumdar qiladigan ishlar qaichalik og'ir ekanligi dexdonlarimizga ma'lum.

Shunday qilib, tuproqdagi umumiyy suv ikki qismidan — o'simliklar uchun foydasiz va foydali suvlardan tashkil topgan. Tuproq tarkibidagi sun'iy o'simlik uchun oson o'zlashtirilishi uning tuproqdagi xdrakatchanligiga bog'liq bo'ladi, Tuproq suvi xarakatchanligini Sekera metodida aniqlash maskur qo'llanmada berilgan,

Cho'kindiga boy, og'ir soz tuproqlarda o'simlik, uchun foydasiz suvlar ko'p bo'ladi. Qumli tuproqda o'simlik uzlashtirolmaydigan suvning miqdori 100 g tuproqda 1—2 g bo'lsa, og'ir soz tuproqlarda esa bu ko'rsatkich 10—15 g gacha bo'lishi mumkin. SHuningdek, har xil mexanik tarkibli tuproqlar suvni har xil miqdorda ushlab qoladi. Og'ir soz tuproklar o'zidan o'tayotgan suvning 70% chasini o'zida singdirib qolsa, qumoq tuproqlar 30 — 40, qumli tuproqlar esa 20 — 25% gina singdirib qoladi.

10- MAVZU TUPROQNING SUV REJIMI

Reja

1. O‘zbekiston tuproqlarining suv rejimi
2. Tog‘ zonasi tuproqlarining suv rejimi
3. Tog‘ oldi zonasi tuproqlarining suv rejimi
4. Tuproqning suv o‘tkazuvchanlik xususiyati

Tayanch so’z va iboralar: suv balansi, sizot suvi, grunt suvlari, suv rejimi, balansi, bug‘simon namlar kondensatsiyasi, namlik ko‘rsatkichi.

Talabalarga harxil tabiiy - tarixiy sharoitda shakllangan asosiy tuproq tiplarining, tipchalarini suv rejimi, balansi, uni turlari hamla boshqarish yo‘llari, ahamiyati to‘g‘risida bilim berish hisoblanadi.

Tuproqda suvning harakatini ko‘rsatuvchi hodisalar majmuasi, ya’ni tuproqqa suvni tushishi va uning sarflanishi uning suv rejimi, miqdori jihatdan ifodalanishi esa tuproqning suv balansi deb ataladi. Tuproqning suv balansi deganda ma’lum vaqt ichida suv jamg‘armasining o‘zgarishi, tuproqqa keladigan suvning tushishi va sarflanishi tushiniladi. Namlik manbai asosan yog‘inlardir. Nam jamgarmasining havodagi bug‘simon namlar kondensatsiyasi xisobiga to‘ldirilishi ikkinchi darajali axamiyatga ega, Sizot suvi yuza joylashgan rayonlarda sizot suvidan ko‘tariladigan kapillyar namlik — tuproqdagagi namning muxim manbai xisoblanadi. Sug‘oriladigan dexqonchilik sharoitida esa tuprokning namligi beriladigan suv hisobiga to‘ldiriladi.

Tuproqdagagi suv balansi G.N.Visotskiy bo‘yicha, quyidagi elementlardan tashkil topadi.

Suvning kelish manbalari

- 1.Yog‘inlar (yomg‘ir va qor).
- 2.Bug‘simon suvlarning tuproqdagagi kondensatsiyasi.
- 3.Shamol yordamida chetdan olib kelingan qorlar.
- 4.Tuprog‘ yuzasidan (chetdan) suvlarning kelishi.
- 5.Grunt suvlaridan kelgan oqimlar.

Sarflanishi

- 1.O‘rmon qiyi, o‘lik qoldiqlarni yog‘inlar bilan xo‘llanishi.
- 2.Shamol yordamida chetga olib ketilgan qorlar.

Z.Suvning tuproqdan parlanishi.

4.Transpiratsiya.

5.Sizot suv tushgan suv.

Sug‘oriladigan yerlar uchun kelish manba’lariga sug‘orilganda beriladigan suv miqdori ham kushiladi. Suv balansi yil sayin o‘zgarib turadi.

G.N.Visotskiy bu ko‘rsatkichni e’tiborga olib, tuprok, qatlamlarida doimiy muz qatlaming mavjudligi yoki yo‘kligi, butun yil davomida tuproqning qaysi qalinlikdagi qatlami suv bilan band bo‘lishi hamda suvning bu transformatsiyasida pastga oquvchi yoki yuqoriga ko‘tariluvchi suvlarning qaysi biri ustun bo‘lishi, suvning kirimi va sarfiga qarab tuproq suv rejimining to‘rtta asosiy tipini anikladi; Bular yuviladigan, davriy yuviladigan, yuvilmaydigan va terlaydigan suvlar. A.ARode suv rejimi klassifikatsiyasini yanada rivojlantirib, unga muzlagan suv rejimi va irrigatsion suv rejimi tiplarini qo‘shti. Muzlagan suv rejimi shimoliy sovuq oblastlar tuprokdariga xosdir. Muzlagan qatlamning yozda uncha chuqur erimasligi, suv o‘tkazuvchanligini va yoz davrida temperaturaning pastligi va yog‘ingarchilikning ko‘pligi, bug‘lanish va desuksiyaning kamligi tufayli tuproq yil bo‘yi juda nam bo‘lib turadi. Yil davomida tuproq- gruntning atigi 0,4 - 0,6 m qatlami suv almashinishi bilan band bo‘ladi. Yuviladigan suv rejimi o‘rmonzor oblastlariga xosdir, bu erda yog‘in miqdori bug‘lanishiga qaraganda xosdir, bu erda yog‘in miqdori sernam bo‘ladi, bu esa nurash va tuproq payxon bo‘lish protsessnda vujudga keladi harakatchan maxsulotlarning ustki gorizontlardan pastga yuvilib tushishi sababchi bo‘ladi. Bu rejimda tuproq -gruntning juda katta katlamida yog‘in-gochin suvining transformatsiyasi kuzatiladi. Xarakterli tomoni shuki, tuproqning vertikal profilida bir yil emas, balki ko‘p yillar davomida pastga oquvchi suvlar ustunlik qiladi. Tuproq qatlamidagi namlik ko‘rsatkichi uning yuqori qismida o‘simliklarni so‘lish namligi darajasiga yaqin kelmaydi. Bu suv rejimi o‘ziga xos tuproq tipini - gyudzol yoki podzollashgan tuproqlarning shakllanitida eng asosiy omil xisoblanadi.

Davriy yuviladigan suv rejimi o‘rmon - dasht va dashtlardagi tekisliklarning past erlaridagi ishqorsizlangan qora tuproqlar, o‘tloqi tuproq va o‘tloqi kashtan tuproqlar uchun xarakterlidir. Bu rejimda tuproq, bahorda va yozning birinchi yarmida qor va yomg‘ir suvlari

shuningdek, atrofdagi balandliklardan oqib kelgan suvlar chuqr namlanadi. Er betidagi suvlar ko‘pincha sizot suvlarga borib qo‘shiladi va davriy ravishda guproqning chuqr qisminigina ishqorsizlantiradi. Qurg‘oqchil issiq oylarda suv ko‘tariladi. Bu suv rejimida ham sizot suvlari chuqurligigacha bo‘lgan qatlam ishtirok etadi. Tuproq vortikal namlik ko‘rsatkichi to‘la nam sig‘imi darajasidan o‘simlikni so‘lish namligi ko‘rsatkichi o‘rtasida tebranib turadi. Umuman olganda kuz, qish, bahor fasllarida to‘plangan suv jamg‘armasi madaniy o‘simliklarni vegetatsiyasi davomida etarli miqdorda suv bilan ta’minlaydi.

YUvilmaydigan suv rejimida dasht, quruq dasht va cho‘l zonalaridagn sizot suvlar chuqrda joylashgan xamda ularning tuprog‘i quruk iqlimli tuproqlarga xosdir. Bu suv rejimida tuproq katلامи boshdan oyoq namlanmaydi. Tuproqlar yog‘in miqdoriga qarab, cho‘llarda 10 — 40 sm dan bo‘z tuproqli zonada! — 2 m gacha va k,ora tuproqli zonada 2 — 4 m gacha namlanadi. Umuman bu suv rejimida qatnashgan suvlar sizot suvlari bilan birlashmaydi.

YOg‘in sochin miqdori kam bo‘lganligi sababli tuproq ustki qatlamni (1 — 1,5 m) suv almashininishi bilan band bo‘ladi. Namlik ko‘rsatkichi DNS dan O‘SN o‘rtasida tebranib turadi. O‘SN bilan xarakterlanadigan qatlam 0 — 40 sm ni tashkil etib, odatda yoz oylarida (iyun - avgust) kuzatiladi. Tabiiy nam bilan mazkur maydonlar ta’minlagan, Bu maydonlarda qurroqchilik xavfi kutiladi.

Terlaydigan suv rejimi sizot suvlari yuza joylashgan tuproqlarga xosdir. Bunda yog‘in -sochin va sizot suvlari asosiy manba hisoblanadi. Sizot suvi muttasil yuza joylashganda tuproq hamma vaqt nam holda turadi, birmuncha chuqurroq joylashganda esa, sizot suvi yuzada bo‘lgan davrdagina kapillyarlar orkali nam kelib turadi. Sizot suv pasayganda kapillyarlardan nam butunlay ko‘tarilmay qo‘yadi yoki juda kam ko‘tariladi tuproq ma’lum chuqurlikkacha qurub qoladi. Bu suv rejimida bug‘lanish va transpiratsiyaga yog‘in suvidan ko‘ra ko‘proq suv sarf bo‘ladi. Mazkur maydonlar tabiiy namlik bilan juda past darajada ta’minlangan bo‘ladi. Shuning uchun ham tuproqdagi namlik ko‘rsatkichi asosan sizot suvlaridan keladigan kapillyar suvlar hisobiga o‘zgarib boradi. Bordi-yu sizot suvi chuqr joylashgan bo‘lsa tuproqning namligi O‘SN darajasidan xam pastga tushib, MG ko‘rsatkichiga yaqin kelib qoladi. Bunday sharoitda tuproq qurg‘oqchiligi vujudga keladi.

O‘zbekiston tuproqlarining suv rejimi

Respublikamiz MHD Ittifoqining eng janubida joylashgan ogin-sochin bu regionda juda kam, yiliga o‘rtacha 80-50 mm (bunda tog‘li rayonlar istisno qilinadi), tuproqdan sarflanadigan suvning miqdori esa juda ko‘p (bir yilda 1000 mm va undan ortiq). Biroq O‘zbekiston-katta geografik kenglikda tarkalganligi, har xil landshaft (geomorfologiya) ga hamda o‘simpliklar qoplamiga ega Oo‘lganligi sababli xilma - xil tuproq tipi va o‘simplik qoplamiga ega. Biroq, shuni ta’kidlash kerakki, sug‘orilmaydigan va shartli sug‘oriladigan erlarni amlaydigan asosiy suv manbai yog‘in - sochiidir. Masalan, tog‘ onalaridagi o‘rmon tuproqlari baxorgi yog‘in - sochin vaqtin chuqur qatlamlarigacha namlanib, o‘simpliklarning rivojlanishi uchun etarli miqdorda nam zapasiga ega bo‘ladi. Bunday sharoitda o‘simplik ildizi rivojlanadigan qatlAMDAGI (0,5- m chuqurliqdagi) namlik iyul oyining oxirigacha etadi.

Tog‘ zonasi tuproqlarining suv rejimi

Tok zonasi tuproqlarining rivojlanishi, ularning takomillashishi, tarqalishi, ximiyaviy tarkibi, fizik — ximiyaviy xossalari va fizikaviy xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar maxsus adabiyotlar maxsus adabiyotlarda kam yoritilgan. Tog‘ zonasi tuproqlarining suv rejimini o‘rganish va uni asosli boshkarish katta ilmiy va ishlab chiqarish axamiyatiga ega. Tog‘ tuproqlarining suv rejimini o‘rganish xali chuqur o‘rganish zarur bo‘lgan muammolarga kiradi.

Avtorlar asosan o‘rmon tog‘ qo‘ng‘ir tuprog‘i va kashtan tuproqlarining suv rejimini o‘rganishgan. Keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, o‘rmon qo‘ng‘ir tuproqlari tarqalgan erlarga yiliga o‘rtacha 800—1000 mm yog‘in —sochin tushadi. Bu vaqtida tuproq ancha chukur (o‘rtacha 4 m gacha) namlanadi.

Tuproqdagi nam o‘simpliklarning vegetatsiya davrida qisman sarflanadi. Baxorda tuproqning 0 — 2 m li qatlami 500 — 680 mm ga etadi, lekin kuzga borib tuproqning 2 m li qatlamida 260 — 290 mm nam qoladi. Suvning bir qismi tuproq qatlamlaridan siljib, pastlik joylarda er betiga buloq bo‘lib chiqadi.

Kashtan tuproqli zonada ham yog‘in — sochin ko‘p bo‘ladi, bu tuproqlar chuqur qatlamlargacha namlanadi.

Tog‘ oldi zonasi tuproqlarining suv rejimi

A. To‘q tusli bo‘z tuproqlarning suv rejimi.
Sug‘orilmaydigan qo‘riq bo‘z erlarda yog‘in—gochin tuproq

pamligining asosiy manba hisoblanadi. Namlanish chuqurligi har yili iklim sharoitiga qarab o‘zgarib turadi. YOg‘ingarchilik kam bo‘lgan)’shllar to‘k, tusli bo‘z tuproq 1 m chuqurlikkacha, ko‘p bo‘lgan yillari esa 2 —3,5m dai ham chuqurroq , namlanishi mumkin. Ko‘pgicha tuproqning namlanish chuqurligi 1,5 m dan oshadi.

Bu zonada xam tuproqda namning eng ko‘p to‘plangan vaqt aprel oyiga to‘g‘ri keladi. Suv ayirrich — do‘ngliklarda 2 m li qatlAMDagi namlik 440 mm ni tashkil etadi, shishabi shimol tomonga qaraganda yonbag‘irlarda 470 mm nam to‘planadi. Bu davr suv ayirgachdagi foydali aktiv iam miqdori 180 mm ni, shimolga qaragan yonbag‘irda 290 mm ni tashkil kiladi/ O‘tko‘lanlar suv ayriigchdagiga qaraganda shimolga qaragan yonbagarlarda ancha qalin o‘sadi, shunga ko‘ra sentyabrga kelib, yonbag‘irlarda o‘simlik o‘zlashtira oladigan nam deyarli qolmaydi.

To‘q tusli tuproqlarning ustki (30 sm li) qatlAMdagi aktiv nam mikdori iyul oygacha etadi. Keyinchalik kamayib, yog‘ingarchilik davri boshlanganga qadar, o‘simlik o‘zlashtira olmaydigan darajaga tushib qoladi. SHuni aytish kerakki, qish xar qancha sernam bo‘lmasin, agar baxorda yog‘ingarchilik kam bo‘lsa, buning ustiga shamolii kunlar maxsuldorligiga, ayniqsa, boshoqli don ekinlarining xosildorligiga salbiy ta’sir etadi. Demak, to‘q tusli bo‘z tuproklarda don ekinlarining xosildorligi mart -aprel oylaridagi yorin-sochin miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Aprel oyida tuproq chuqurroq, namlansa (tuproqning namlik darjasini yuqori bo‘lsa) yaylovlarda yem - xashak mo‘l bo‘ladi.

B. Tipik bo‘z tuproqlarning suv rejimi. O‘zbekistonda tipik bo‘z tuproqlar ancha keng tarqalgan, ular asosan dengiz sathidan 300-800 m balandlikdagi tog‘ oldi tekisliklari, adir va dasht zonalarini egallaydi. Tipik bo‘z tuproqlarning katta qismi sugariladigan dehqonchilik bilan band, ularda ekinlardan yuqori hosil olishni ta’minlovchi oziq va suv rejimi yaxshi bo‘lganligi uchun xozirgi vaqtida bu erlar butunlay dehqonchilik sistemasiga jalb etilgan. YUqori potensial unumdorlikka ega bo‘lgan tipik bo‘z tuproqlar zonasida — respublikamizning asosiy don ekadigan bog‘dorchilik xo‘jaliklari joylashgan. Bunday maydonlarda xom ashyo etkazish tuproqda mavjud bo‘lgan tabiy namlikni tejab, sarflashga asoslangan bo‘lib lalmikor dexqonchilik sistemasi deb yuritiladi.

Tipik bo‘z tuproqlar zonasida yillik yog‘in —sochin miedori 300 — 400 mm ni tashkil etadi, tuproqning namlanishi chuqurligi 0,6 — 0,8 m ga etadi. Tuproqning eng nam payti aprel oyi boshlariga to‘g‘ri keladi, bu vaqtida suv ayirgachidagi tuproqning 2 m qalinlikdagi qatlamida 'nam miqdori 420 mm ga etadi, shundan 230 mm, o‘simplik o‘zlashtira oladigan foydali aktiv nam xisoblanadi. Lekin bu zonada xavo xarorati nisbatan baland va nisbiy namlik past bo‘lganligidan aktiv namlik may oyining oxirlariga borib batamom sarf bo‘ladi. Iyuloyiga kelib tuproqning ustki 1 m li qatlamidagi nam miqdori xatto so‘lish namligidan ham pasayib ketadi. Eng ustki 40 sm li qatlamida esa bundan xam kam bo‘ladi.

V. Och tusli bo‘z tuproqning suv rejimi. Bo‘z tuproqlar zonasida och tusli bo‘z tuproqlar tarqalgan maydon o‘zining tekisligi, yog‘in-sochinlarning eng kam miqdorda bo‘lishi hamda xavo harorati eng yuqori, aksariyat-tuproqdan sarflanadigan suvning eng katta ko‘rsatkichga ega bo‘lishi bilan harakterlanadi. Och tusli bo‘z tuproq ob-xavoning kelishiga qarab 40-120 sm gacha chuqurlikda namlanadi.

Och tusli bo‘z tuproqlarda o‘simplik foydalana olmaydigan namlik to‘q tusli va tipik bo‘z tuproqlardagiga nisbatan 1,5 — 2 baravar kam. Bu esa, albatta, ~tuproq mexanik tarkibining engilligi, nam sig‘imining bir muncha kichik bo‘lishi bilan bog‘liqdir.

Tuproqda qish va erta baxorda to‘plangan nam xavo isishi bilan burlanib kamayadi va may oyining birinchi o‘n kunligida tuproqning ustki 0,5 m li qatlamida o‘simplik o‘zlashtira oladigan foydali namdan asar xam qolmaydi. Don va boshqa ekinlardan yuqori hosil etishtirish uchun O‘zbekiston sharoitida och tusli bo‘z tuproqlarni sug‘orishga to‘rri keladi.

Tuproqning suv o‘tkazuvchanlik xususiyati

Tuproqning o‘zidan suv o‘tkazish qobiliyatiga suv o‘tkazuvchanlik deb ataladi va uning miqdori ma’lum vakt ichida. tuproqdan o‘tgan suv miqdori bilan o‘lchanadi.

Tuproqning suv o‘tkazuvchanlik qobiliyati juda murakkab jarayon bo‘lib, u tuproqqa surilishi, namlanishi va ortiqcha suvning filtirlanishi kabi hodisalarini o‘z ichiga oladi.

Tuproqqa suvning singishi va namlanishi uning boshqa rovak jynslardan tub farqlanishini ko‘rsatib turuvchi asosiy belgidir. Mas. yirlk shag‘al, chag‘ir tosh va qumlar eki yangi nuralgan tog‘ jinslari, o‘zidai suvni juda yaxshi o‘gkazadi, lekip ular suvni surish, ayniqsa

ushlab qolish qobiliyatiga ega emas. Shimilib va ushlanib qolning suv asosan tuproq mayda zarrachalari yuzasida, agregatli o'lakchalar hamda ular vujudga keltirgan g'ovaklarda saqlanib, o'simliklar uni kerak vaqtida iste'mol qilaveradi. Lalmi erlardagi tabiiy o'simliklar, hattoki ralla ekinlari faqatgina kuz, qish va bahor faslida yoqqan yorin-sochin suvlaridan hosil bo'lgan jamg'arma suv hisobida yashaydilar. Sizot suvlar chuqur joylashgan bunday sharoitda yog'in-sochin suvlarini kapillyar muallaq holda ushlanib turadi. Yog'in-sochin suvlaridan bahorikor yerlarning namlangan qismi bahorga kelib och tusli bo'z tuproqlarda 1 m, tipik bo'z tuproqlarda 1,5 m va to'q tusli bo'z tuproklarda 2-2,5 m ga etadi, Hozirgi vaqtida tuproq-meliorativ tekshiruv ishlarida suv o'tkazuvchanlik tezligini hisoblash S.V. Astapovning quyidagi formulasi keng qo'llaniladi.

$$v = \frac{Q \cdot 10}{S \cdot t} \text{ bunda ,}$$

v-suv o'tkazuvchanlik tezligi, mm/min.

Q-ma'lum vaqt ichida sarf bo'lgan suv miqdori, ml,

S-tajriba olib boriladigan maydon yuzasi, sm²,

t-suv sarfi hisobiga olingan vaqt, min,

10-koeffitsient. Bu koeffitsient yordamida suvning ml dagi ko'rsatkichi, mm ga aylantiriladi.

Olingan ma'lumotlar suv o'tkazuvchanlikni tuproqning mexanik tarkibi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Tuproq qancha engil bo'lsa, suv o'tkazuvchanlik shuncha yuqori tuproq mexanik tarkibi og'irlashgan sari suv o'tkazuvchanlik pasaya boradi.

N.A.Kachinskiy (1947) ning quyidagi umumiyligi tenglamasida suv o'tkazuvchanlikka va filtratsiyaga ta'sir ko'rsatugvchi faktorlar o'z ifodasini topgan:

$$K = f(\eta * p * d) \text{ bunda}$$

K-filtratsiya koeffitsienti,

f-funksiya.

h-ma'lum temperatura eritmaning (suvning) yopishqoqligi.

p-tuproq kovakligi.

d-kovaklarning effektiv diametri.

Demak, filtratsiya - bu pastga harakat kiladigan eritmaning yopishqoqligi, tuproq kovakligi hamda kovaklarning effektiv diametri bilan to'g'ri proporsional bog'lanishda bo'lgan funksiyadir.

Tuproqqa suv o‘tkazuvchanligiga ko‘ra baxo berishda N.A.Kachinskiy tasnididan foydalaniladi. Bunda tuproq quyidagi gruppalarga bo‘linadi (yutilgan suv miqdori millimetr hisobida kuzatishning birinchi soati uchun berilgan):

juda yuqori — 1000 — 500
juda yaxshi - 500 - 100
yaxshi-100-70
qoniqarli — 70 — 30
qoniqarsiz — 30 dan kam

13-mavzu: Tuproq harorati va aeratsiyasi

Reja

1. Tuproq harorati va aeratsiyasi
2. Mulchalashning tuproq issiqligi va xavo rejimiga ta’siri
3. Tuproqning havo o‘tkazuvchanligi va rejimi

Tayanch so’z va iboralar:

Tog‘ jismlarining nurashida, tuproq qatlamlarida suv, ozuqa unsurlari va havoning xarakatiga katta ta’sir qiluvchi termik ko‘rsatkichlar, uning manbalari, rejimi xamda tuproq unumdorligini boshqarishdagi roli ko‘rsatilgan.

Tuproqning issiklik xossalari uning unumdorligini ko‘rsatuvchi omillardan bo‘lib, o‘simlik xayoti va tuproqda yetadigan butun biologik, ximiyaviy nurash jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi. Tog‘ jinslarining nurashi, qattiq, suyuq, gazsimon xolatdagi moddalarning o‘zaro ximiyaviy va fizikaviy Munosabati, tuproq va undagi tirik organizmlar o‘rtasida suv va Moddalar almashinuvi va hokazolar bevosita termik omillar "ga'sirida o‘zgarib turadi.

Tuproq termik rejimining asosiy manbai quyosh Energiyasidir. Tuproqda ketadigan bioximik jarayonlar, oksidlanish—qaytarilish jarayonidagi hamda tuproqning Xo‘llanishidan ajralib chiqadigan issiqliklar termik rejimining manbalari hisoblanadi.

Issiqlikning asosiy manbai bo‘lgan quyosh yer yuzining har 1 sm² yuzasiga bir minutda o‘rta hisobda, 1,946 kaloriya issiqlik beradi. Bu quyoshning o‘zgarmas issiqlik miqdori deyiladi. Yer (ozasiga tushadigan energiya miqdori joyning geografik (sengligiga qarab qutbdan ekvatorga ham juda turlicha bo‘ladi,

Tuproq quyosh energiyasining hammasini ham yutavrrmaydi. Bu energiyaning bir qismi yer yuzasiga yutilmasdan, atmogfrraga qaytadi.

Ma'lum yer yuzasiga tushgan energiyaning shu yer yuzasi qaytargan energiyaga nisbatinint protsent bilan ifodalangan miqdori albedo (er yuzasining qaytarish qobliyatining o'lchovi) deyiladi. Albedo har xil er yuzalari uchun juda o'zgaruvchan bo'ladi, buni kuyidagi ba'zi bir misollarda ko'rish mumkin (% xisobida).

Qo'riq qora tuproq— 14

nam qora tuproq — 8 — 9

cho'l zonasidagi soz bo'z tuproq —29 —31

ok, qum — 40

suv yuzasi— 10

turib qolgan qor — 70

haydalgan va yuzasi tekislangan bo'z tuproq — 30 — 31

yangi xaydalgan va yuzasi tekislanmagan bo'z tuproq— 17

sholipoya— 12

paxta maydoni — 20 — 22

quruq shudgor - 20

nam shudgor— 14

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinish turibdiki, tuproqning quyosh energiyasini yutish qobiliyati quydagi omillarga bo'ladi: guproqning rangi —u qanchalik qoramtilr bo'lsa, albedo ko'rsatkichi shunchalik kichik bo'ladi; notekis yuza silliq yuzaga nisbatan xamma vaqt kam albedoga ega bo'ladi; tuproqning shamligi osha borishi bilan uning rangi xiralashadi (ya'ni qoramtilroq rang) vat natijada albedo kamayadi,

Biroq tuproq suv bilan to'la to'yinganda unda yaltiroq yuzaning paydo bo'lishi albedoning ya'na oshishiga olib ketshshi mumkin.

Tuproqning issiqlik sig'imi 1g tuproqning 1°S isitish uchun sarf bo'lgan issiqlik miqdoriga tuproqning issiqlik sig'imi deyiladi. U kaloriya bilan o'lchanadi.

Tuproqning issiqlik sig'imi uning ximiyaviy, petrografik va mineralogik tarkibiga xamda namlanish darajasiga bog'liq bo'ladi, buni quydagi misollardan ko'rish mumkin (massa issiqlik sig'imi, g(kal): havo-0,2399; suv-1,000; qum -0,194; quruq soz-0,233; kvarts-0,188; granit-0,192; bazalt-0,200; oxak - 0,214; chirindi - 0,477 va xokazo.

Tuproqning issiqlik o‘tkazuvchanligi bir sekundda uning 1 sm² ko‘ndalang kesimidan temperatura gradienti 1° S bo‘lganda 1 sm masofaga o‘tgan issiqlik miqdori bilan o‘lchanadi. Tuproqning issiqlik o‘tkazuvchanligi ham uning ximiyaviy, petrografik, mineralogik tarkibi va namlanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Mulchalashning tuproq issiqligi va xavo rejimiga ta’siri

Poleetilen plyonka bilan mulchalash tuproqning issiqlik rejimiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Mulchalash uchun tayyorlangan plyonkalar kancha enli bo‘lsa tuproq temperaturasi shuncha baland bo‘ladi. Plyonka.\ardagi teshikchalaryning maydoni qancha katta bo‘lsa tuprokning issiqlik rejimiga shuncha kam bo‘ladi,

Plyonkani tuproq yuzasiga chigit ekib bo‘lgan zahotiyoy qotiladi. G‘o‘za qator oralig‘i 60 sm bo‘lganda, plyonkaning kengligi 90 sm bo‘lishi kerak. Bunday sharoitda ikki qator chigit ekilgan oraliq (60 sm) hamda ikki tomondagi qo‘shni qatorlardan 5 sm dan maydon plyonka ostida qoladi. Shunday qilib, hammasi bo‘lib kengligi 70 sm ga teng bo‘lgan maydon vegetatsiya davrida plyonka ostida bo‘ladi, Plyonkani shamol uchirib ketmasligi uchun uning ikki chekkasidan taxminan 8-10 sm kenglikda tuprokqa ko‘mib ko‘yiladi, Plyonka ostida chigit to‘la o‘nib chiqqandan so‘ng xar bir chigit to‘shgan uya ustidan g‘o‘zaning yuqoriga ko‘tarilib chiqishi uchun diametri 30 mm li teshikchalar ochiladi. Plyonkaning qalinligi 100 mikron va 90 sm bo‘lgan taqdirda xar bir hektar erga 560 - 600 kg atrofida plyonka sarflanadi. G‘o‘za qator oralig‘i 60 sm bo‘lganda qator oralig‘iga ishlov, sugarish oziqlantirish kabi agrotexnik tadbirlar bir egat tashlab o‘tkaziladi. Bunday xollarda plyonka ostidagi maydonga paxta vegetatsiyasi davrida mutlaqo ishlov berilmaydi. So‘ngi vaktlarda Totkent oblastida chigit yoppasiga aprel oylarining boshlarida ekilmoqda. Bunday sharoitda chigit 8-10 kunda to‘la unib chiqadi. Lekin ko‘pincha chigit unib chiqqandan so‘ng xavo temperaturasining pasayib ketishi va yog‘ingarchilik natijasida yer yuzida qatqaloq paydo bo‘lishi ham mumkin. Bunday ob-xavo sharoitida tuproq temperaturasi ham pasayib ketadi. Qatqaloq mavjud bo‘lgan sharoitda esa atmosferadan keladigan kislorod myqdori kamayib ketadi va g‘o‘zada "ildiz chirish" kasalligi paydo bo‘ladi. Polietilen bilan mulchalangan maydonlarda esa g‘o‘za xech qanday kasallikka chalinmaydi. Chunki u tuproq temperaturasining ochiq

yerga nisbatan baland bo‘lishini shu bilan birga chigitni to‘la va sog‘lom unib chiqishini ta’minlaydi.

Mulchalash birinchi navbatda tuproqning issiqlik rejimiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Mulchalangan tuproqning temperaturasi sutka davomida 100 sm gacha bo‘lgan chuqurlikda mulchalanmagan tuproqning temieraturasidan yuqori bo‘ladi. Mulchalangan va mulchalanmagan tuproqlar orasidagi tafovut tuproqning ustki qatlamidan pastki qatlamlariga karab kamayib boradi. Agar 5 sm chuqurlikda bu tafovut 6,8 °S ni tashkil qilsa, 50 sm, chuqurlikda 2,3 °S tenglashadi.

Tuproq havosi, uning tarkibi, xossalari, havo rejimi, uni boshqarish va nihoyat tuproq havosini tuproq unumdarligini boshqarishdagi ahamiyati ko‘rsatiladi.

Tuproq havosi uning aeosiy tarkibiy qismlaridan biri. U tuproq hosil bo‘lish jarayonida va o‘simlik hayotida muhim ahamiyatga ega. O‘simliklarning tuproq hakosiga talabi juda katta. Shuning uchun xam tuproqning havo tarkibini o‘rganish va uning miqdorini boshqarish choralaridan biri. Tuproqning gazsimon fazasi uning qattiq va suyuq fazalari, shuningdek unda yashayotgan har qanday organizmlar bilan doim murakkab munosabatda bo‘lib turadi.

Tuproq kovaklarining suv bilan band bo‘lmasdan qismida havo saqlanadi. Havo asosan atmosfera havosi bilan uzviy bog‘liq bo‘lsada, lekin tuproq kislородни boglovchi va karbonat angidrid (SO_2) hosil qiluvchi asosiy manba bo‘lganligi uchun elementar tarkibi va moddalarning miqdori jihatdan tuproq havosi atmosfera xavosidan keskin farq qiladi, Atmosfera havosi o‘rtacha quyidagi tarkibga ega (hajmiga nisbatiga % hisobida).

N (azot)-78,10,

O (kislород)-20,90g

SO_2 (karbonat angidrid) - 0,03,

Noyob gazlar (azon, argon va boshqalar) -0,09.

Tuproq xavosi esa quydagи tarkibga ega (umumiylajmiga nisbatan protsent hisobida).

N (azot) - 79,0,

O (kislород) - 20,3,

SO_2 (karbonat angidrid)- 0,15 - 0,65,

Tuproq xavosi dastlab tarkibida kislorodning ozligi va karbonat angidridning ko‘pligi bilan atmosfera havosida farq qiladi, Tuproqning yuza qatlamlarida karbonatangidridning o‘rtacha miqdori 0,04% bo‘lsa, chuqurrok, qatlamlarida o‘rtacha 0,3 va xattoki zaxkash erlarda 3% gacha bo‘ladi. Tuproq xavosida karbonad angidrid ko‘payishi bilan unda kislorod kamayadi. Bundan tashqari ozmi - ko‘pmi ammiak, metan, etan, vodorod sulfit (N_2S) va boshqa gazlar ham bo‘lishi mumkin. Tuproq havosining bunday o‘zgarishisa asosiy sabab, birinchidan, o‘simlik ildizlarining nafas olishi bo‘lsa, ikkinchidan tuproq mikroorganizmlarining xayotiy faoliyatidir.

Tuproqning havo fizikaviy xossalari uning havo sig‘imi, aeratsiyasi, havo o‘tkazuvchanligi va boshqa shunga o‘xhash ko‘rsatkichlar bilan ifodalanishi mumkin.

Tuproqning umumiy havo sig‘imi deb quruq xoldagi tuproqning og‘irligita nisbatan protsent xisobida ifodalanadigan xavoning maksimal miqdoriga aytildi. Odatda, havo sig‘imining hajmi strukturali mexanik tarkibi quruq, bo‘sh hamda qumoq tuproqlarda katta bo‘ladi, Mexanik tarkibi og‘ir bo‘lgan strukturasiz zich tuproqlarda xavo sig‘imi past bo‘ladi.

Umumiy xavo sig‘imi kapillyar xamda nokapillyar sig‘imlardan tashkil topgan bo‘ladi.

Tuproqning kapillyar havo sigimi deb quruq xolatdagi tuproqlarning mayda ' kapillyar naychalari orasida ma’lum miqdordagi xavoni sig‘dirish va ushlab qolish qobiliyatiga tushuniladi. Kapillyar havo sig‘imi qancha katta bo‘lsa tuproqdagagi xavoning xarakati shuncha sekinlashadi.

Nokapillyar havo sirimi. Nokapillyar g‘ovaklikni tashkil qiluvchi va tuproq qatlamlari oraligidagi xar xil g‘ovaklar, teshiklar va turli xil jonivorlarning inlari tuproqning xavo rejimiga ta’sir qiladi.

Tuproq qatlamlari kapillyar namlik bilan to‘yingan vaqtida nokapillyar g‘ovaklar mavjut bo‘lgan tuproq ma’lum miqdordagi xavo miqdoriga ega bo‘ladi. Nokapillyar havo sig‘imi tuproqning suv bilan kapillyar namlik darajasigacha to‘yingan vaqtida ma’lum darajada erkin havoni o‘zida ushlab turish qobiliyatiga aytildi.

Tuproq aeratsiyasi. Hajmga nisbatan protsent hisobida ifodalangan va tuproqda ushlanib turadigan havoning xaqiqiy miqdoriga tuproq aeratsiyasi deyiladi. Uning miqdori tuproqdagagi g‘ovaklik va namlikning farqi bilan belgilanadi. Tuproq dagi

namlikning oshishi bilan aeratsiya kamayib boradi, chunki bunday sharoitda tuproq hajmining ko‘p qismi suv bilan band bo‘ladi. Tuproq quruq xolatda bo‘lganda aeratsiyaning maksimal darajasiga erishiladi. Tuproq aeratsiyasi zaxob yerlarda zovurlar qazib va quvurlar yotqizib quritish, sug‘orish va yerni chuqur haydash kabi meliorativ hamda agrotexnik choralarni qo‘llash natijasida o‘zgarishi mumkin.

Tuproqning havo o‘tkazuvchanligi va rejimi

Tuproqning qatlamlari orqali havoni o‘tkazish qobiliyatiga tuproqning xavo o‘tkazuvchanlik xossasi deyiladi. Bu muhim xossa tufayli qatlamlardagi tuproq havosining almashinishi uchun qulay sharoit tug‘ilib, aeratsiya yaxshilanadi. Natijada tuproq havosida kislorod ko‘payib, karboiat angidrid kamayadi. Donador strukturali tuproqlarda havo o‘tkazuvchanlik ayniqsa yaxshi bo‘ladi, chunki agregatlar oralig‘ida nokapillyar yirik g‘ovaklar agregat zarralari orasida esa kapillyar rovakliklar bo‘ladi. Shu sababli strukturali tuproqlarda suv va havo rejimi mo‘tadil bo‘ladi.

Tuproqdagagi kislorod. Tuproq havosi o‘simglikning ildiz sistemasini va unib chiqayotgan urug‘larni kislorod bilan ta’minlab turadi. Kislorod yetarli miqdorda bo‘lmaganda tuproqning "nafas" olishi kiyinlashadi va o‘simglikning erkin o‘sishi uchun imkon bermaydi. Aeratsiyaning yaxshilanishi bilan tuproqda kislorod ko‘payadi va aerobakteriyalar faoliyati kuchayadi, o‘simgliklarning ildizi yaxshi o‘sadi, tuproqning suv va oziq rejimlari yaxshilanadi, hosildorlik yuqori bo‘ladi.

Tuproq havosida kislorod 20% atrofida bo‘lsa, o‘simglik xayoti uchun mo‘tadil sharoit vujudga keladi. Bunda aeratsiya jarayoni yaxshilanadi, o‘simglik xayotining boshqa omillar xam normallashadi va tuproqning unumdorligi oshadi.

Tuproqdagagi karbonat angidrid. Tuproq xavosi tarkibidagi karbonat angidrid tuproqdagagi xar xil jarayonlar natijasida paydo bo‘ladi.

Ma’lumki tuproq o‘zluksiz ravishda borayotgan har xil jarayonlar tufayli juda ko‘p miqdorda SO_2 ajralib atmosferadagi O_2 o‘rnini to‘ldirib boradi.

Karbonat angidridning tuproq xosil qilish va nurash jarayonlarining borishidagi geoximik roli ham juda katta, Shuning uchun birlamchi minerallarning yemirilishi, karbonatlar va fosfatlar eruvchanlik darajasining ko‘tarilishi va to‘planishi jarayonlari tuproq

xavosi tarkibidagi SO₂ ning miqdoriga bog‘liq. SO₂ ning juda katta tuproqdagisi makro va mikroorganizmlarning faoliyati, organik moddalarning emirilishi va oksidlanishi tufayli paydo bo‘ladi. Karbonat angidridning uchdan bir qismigacha bo‘lgan miqdori ko‘p yillik va bir yillik o‘simliklarning ildizlari orqali ajratiladi. Tuproq xavosi tarkibidagi SO₂ ning biologik axamiyati g‘oyat katta.

LABORATORIYA ISHLARINI BAJARISH BO'YICHA KO'RSATMALAR

“Tuproq fizikasi” fanidan laboratoriya ishlarini bajarishda quyidagilarga rioya qilinadi:

Laboratoriya mashg'uloti yoki analizlarni boshlashdan oldin, talaba yoki xodim laboratoriya xonalarida ishlashning texnika xavfsizligi koidalari bilan tanishib chiqishi zarur. Laboratoriyada pala – partish ishlash, ozodalikka e'tiborsizlik, asboblarda ishlash printsipi va laboratoriya xavfsizlik koidalari yaxshi bilmaslik, analiz natijalarining noto'g'ri chiqishiga va baxtsiz hodisalarga sabab bo'lishi mumkin.

Laboratoriya xonalarida ishlash vaqtida rioya kilinishi zarur bo'lgan eng asosiy qonun qoidalarni keltirib o'tishni ma'qul topdik:

Umumiy munosabatlar

1. Laboratoriyada texnika xavfsizligi qoidalariiga bo'lgan pozitiv munosabatlarni ishlab chiqish.
2. Odatiy ehtiyot choralarini qo'llash.
3. Havfsiz va ozodalikka rioya qilingan ishchi muhitni yaratish.
4. Yakka holda ishlashga yo'l qo'ymaslik.

Asbob - uskuna va jihozlardan foydalanish

1. Asbob-uskunalar uchun ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan qoidalarga rioya qilish.
2. Ish jarayonida asboblar monitoringini o'tkazish.
3. Atom – absorbtion spektrofotometr atmosferaga chiqadigan tuynukka ega bo'lishi kerak. Gorelkani yoqishdan oldin drenaj bochkasi suv bilan to'laligiga ishonch hosil qilish lozim.
4. TSentrifuga qopqog'ini u batamom to'xtamaguncha ochmaslik kerak.

Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan avariya holatlari.

1. Yong'inga qarshi jihoz va asboblar foydalanish oson bo'lgan xona yoki yo'laklarda joylashtirilgan bo'lishi kerak.
2. Birinchi yordamda ko'rsatiladigan hamma dori vositalari mavjud bo'lishi va xodimlar ulardan qaysi holatlarda foydalashni bilishi

shart. Ishlatib bo'lingan dori vositalari o'rni to'ldirib turilishi lozim.

3. Kimyoviy moddalar bilan kuchli kontakt holatlarida, albatta "Tez yordam" ni chaqirish kerak.
4. Har bir ish joyida bo'lganidek, laboratoriyaning hamma xodimlardan tortib to'labalargacha kimyoviy laboratoriyalarda texnika xavfsizligi qoialariga katta e'tibor berishi lozim. Quyida keltiriladigan me'yorlar Karla and Maynard (1991), Okalebo(1993) tomonidan ishlab chiqilgan.
5. Laboratoriya ishlarini bajarishga kirishishdan oldin, analiz bilan albatta tanishib chiqiladi, kollokvium topshiriladi, o'qituvchidan ushbu ishni bajarishning xavfsizlik texnikasiga oid ko'rsatmalar olinadi.
6. Ish boshlashdan oldin zarur kimyoviy idish va reaktivlarni tayyorlash xamda va texnikaviy jihozlarni sozlab olish lozim. Barcha jihozlar to'g'ri ishlayotganiga ishonch hosil qilingandan so'ng analizni boshlash kerak.
7. Ishlatiladigan reaktivlardan keragicha olinib, so'ogra ularning og'zi berkitib qo'yiladi. Qolgan reaktiv, ayniqsa suyuqliklar idishga qaytarib quyilmaydi. Kimyoviy qoshiqlar har bir reaktiv uchun alohida ishlatiladi. Laboratoriya ishi tugallangandan so'ng ish joyi albatta tartibga keltirilishi kerak.
8. Laboratoriya analizlaridan olingan ko'rsatkichlarni laboratoriya jurnaliga qayd kilinib, formula asosida hisoblab chiqiladi va belgilangan jadval asosida shakllantiriladi.
9. Reaktivlardan foydalanishda uning ustiga yozilgan qo'llanmasini (instruktsiya) diqqat bilan o'qib chikish yoki reaktiv solingan idishning ustida yozilgan ma'lumot bo'lgan holdagina ishlatish mumkin.
10. Laboratoriya ishlatiladigan reaktivlarning ko'pchiligi zararli ekanligini esdan chiqarmaslik lozim. SHu sababli reaktivlarning mazasini bilish maqsadida tatib ko'rish, hidlash, shuningdek kimyoviy idishlarda suv ichish umuman mumkin emas.
11. Kimyo laboratoriyaning moddalarini qo'l bilan olish qat'iyan man etiladi!
12. Kimyoviy suyuqliklarni tashlydigan idish ichidagi birikmalar to'g'risida ma'lumotlar yozilgan bo'lisi kerak. Zaharli suyuqliklarni rakhovinaga to'kib yubrishdan oldin, albatta

kerakli miqdorda suyultirib, so'ogra yuvib tashlanadi. O'ta zaharli suyuqliklar umumiylar kanalizatsiya quvuriga tashlanmasligi lozim.

13. Kislota va ishqorlarni o'z idishlaridan boshqa idishlarga quyish mumkin emas. Suyuqliklar isitilayotganda, reaktivlarni quyayotganda, ularning tomchilari yuzga sachramasligi uchun idish ustiga egilib qarash mumkin emas.
14. Laboratoriya xonalarida esa albatta mo'rili shkaf bo'lishi lozim. CHunki uchuvchan kuchli kislotalar yoki ishqorlar bilan ishslash shunday shkaflar ichida bajarilishi xafsizlik koidalaridan biridir. Albatta bunday shkaflarda bir nechta gaz plitalari ham mavjud bo'lishi kerak. Gaz plitalarining ustiga qo'yish uchun temirli to'r yoki asbestdan foydalaniladi. Bu anjomlar kolbalardagi suyuqliknini qizdirish yoki qaynatish lozim bo'lganda ishslash uchun qulaylik tug'diradi. Zaharli va o'tkir hidli reaktivlar bilan ishlaganda ishni maxsus mo'rili shkafda olib borish lozim, aks holda kishi zaharlanishi mumkin. Natriy bilan ishlaganda ham ehtiyyotlikni unutmaslik kerak, chunki u tez alanganuvchan modda bo'lib, yonib ketish xolati ro'y berganda, uni faqat kremniy oksidi kukuni bilan o'chiriladi. SHuningdek, fosfoangidrid bilan ishslashda albatta himoya vositalaridan foydalanish lozim.
15. Kislota, ishqor va ammiakning kontsentrlangan eritmalarini xamda oson bug'lanuvchi suyuqliklarni pipetka yordamida og'izda tortib olish qat'iyan man etiladi. Bu ishlar uchun maxsus avtomatik pipetkalar yoki o'lchov tsilindrlari mavjud.
16. Reaktivlarni hidlab ko'rishda xavo oqimini idishdan o'zingiz tomonga qo'l bilan yelpib, ehtiyyot bo'lib hidlash lozim.
17. Germetik idishlarda suvni isitish yoki sovutish mumkin emas.
18. Uchuvchan moddalar bilan ishlaganda (benzol, efir, atseton) olovdan uzoqroq bo'lgani yaxshi, chunki ular tez yonuvchan moddalardir. Yong'in chiqqan takdirda o'tni qum yoki maxsus moslamalar bilan o'chiriladi. Bunday moslamalar har bir laboratoriyada mavjud bo'ladi.
19. Agar kislota to'kilib ketsa, qum sepib, so'ng tozalab artiladi.
20. Kontsentrlangan kislotalarni suyultirish uchun suvni kislotaga emas, balki kislotani suvga oz-ozdan idish devori bo'yab

quyib, chayqatib turish kerak, aks holda kislota teriga sachrashi yoki idish qizib ketishi okibatida sinib ketishi mumkin.

21. Uchuvchan reaktiv va kislota qoldiqlarini rakovinaga to'kish mumkin emas. Bunday chikindilarni solish uchun alohida yaxshi berkitiladigan idishlar bo'lishi kerak.
22. Gaz gorelkalari yokilgan vaqtida gazning to'liq yonishiga e'tibor berish kerak. Elektr anjomlari bilan qilinadigan tajribalarda ham belgilangan qoidalarga amal qilish kerak.
23. Gaz, suv va elektr bilan ishlayotganda, ish tugashi bilan gaz va suv jo'mraklarini berkitish va elektr asboblarini o'chirish esdan chiqarmaslik lozim.
24. Laboratoriya ishlarini bajaruvchi har bir talaba laboratoriya tartiblariga rioya qilishlari ya'ni ish tugagandan so'ng elektr asboblarini gaz, suvni o'chirib, ish joylarini tartibga keltirishlari kerak.


1-laboratoriya ishi. Tuproq namunalarini fizik analizga tayyorlash.

Ishning maqsadi: Tuproqlarning fizikaviy xossalarini o'rganishdan oldin albatta tuproq namunasida fizikaviy tahlillar olib boriladi. Buning uchun tadqiqotlar o'tkazilayotgan ob'ektlardan tuproq namunalari keltiriladi. Namunalar esa , albatta ma'lum qoidalar asosida olinadi.

Tuproq namunalarini daladan olish usullari

Ishning nazariy asoslari:

1. Namuna olish uchun birinchi navbatda dala ko'zdan kechiriladi. Uning umumiyligi maydoni, rel'efi (baland - pastligi), dala yuzida shag'al va boshqa xil jismlarning bo'lmasligi hamda mazkur dalaning tuprog'i bir xil turda bo'lishi kerak.
2. Dalaning umumiyligi maydoni tarhda ko'rsatilgandek, to'rt bo'lakka bo'linadi va uning har bir bo'lagi hamda o'rtasida ko'rsatilgan nuqtalardan tuproqning 0 – 15 sm haydov qatlami – ustki chirindiga boy qismi va 15 – 30 sm haydov qatlami ostki qatlamlaridan belkurak yordamida namunalar olinadi. Namunalar olishdan oldin tuproqning yuzi yirik toshlar, o'simliklardan tozalab olinadi.



— namuna olinadigan dalaning cheti;
- - - - namuna olinadigan maydonning cheti.

1-rasm. Daladan tuproq namunalarini olish tartibi.



3. 1 – rasmga asosan namunalar 5 ta 0,75 sm va 5 ta 15 – 30 sm qatlamlar bo'yicha olinadi va ular birga qo'shilib, brezent yoki tsellofan plyonka ustida yaxshilab aralashtiriladi. Har biri 0,75 va 15 – 30 sm. li bo'lsa, undan ko'p tuproq namuna sifatida texnik tarozida 0,1 gr aniqlikda tortib olinadi. Namunalar materiallardan tayyorlangan xaltachalar yoki karton qutichalarga solinadi. Namunalarga xo'jalikning nomi, dalaning raqami, namuna olingan kun, yil, olgan shaxsning familiyasi, ismi, sharifi, lavozimi, namunaning massasi yozilib, uning ichiga solinadi va laboratoriyaga olib kelinadi.


Ishni bajarish tartibi:

1. Laboratoriyaga olib kelingan namunalar laboratoriya sharoitida gaz va suv bug'lari bo'lмаган joyga 2 – 3 kun davomida quritiladi. Qurigandan so'ng, undagi o'simlki qoldiqlari, ildizlari va boshqa qo'shilmalar terib olinadi hamda ularning massasi alohida tarozida tortib olinadi va namunaga nisbati foizda topiladi.

Namunaga olingan tuproq yaxshi qurigandan keyin, u chinni hovonchada yog'och yoki rezina tayyoqcha yordamida asta – sekin yirik kesakchalar maydalanadi (bunda mexanik zarrachalar parchalanib ketmasligi lozim). (2 – rasm).

Shundan so'ng tahlil uchun o'rtacha qilib tuproq tayyorlanadi. Buning uchun tuproq brezent yoki faner ustida yoyilib, yirik kesakchalar qo'l bilan maydalanadi. Tahlilga o'rtacha tuproq namunasi olish uchun brezentdagи tuproq yaxshilab aralashtiriladi va qo'l yoki lineyka bilan bir tekis yassilanadi (3 – rasm).

Tuproqni tahlil qilish uchun daladan laboratoriyanidan olib kelingan va quritilgan namunaning hammasi laboratoriya stolida toza qog'oz ustida yupqa bir tekis yoyib qo'yiladi. So'ng undagi yirik kesakchalar qo'l barmoqlari bilan asta – sekin maydalanadi. SHundan keyin namunadan 500 – 1000 gr tuproq tahlil uchun tortib olinadi. Tahlil uchun olingan tuproq laboratoriya stoli ustiga yoyilib, undagi tosh, ildiz va boshqa yirik mexanik qo'shimchalar terib olinadi. SHundan so'ng tahlil uchun olingan tuproq qog'oz ustida yaxshilab aralashtiriladi. Keyin bir tekis yupqa qilib yoyiladi, u bir necha katakchalarga (3 – rasmda ko'rsatilgandek bo'lakchalarga) bo'linadi.



3-rasm. Tahlil uchun o'rtacha tuproq namunasini olish.

Katakchalarning har birida oz – ozdan tuproq olinib, ularning umumiyl massasini 300 gr.dan 600 gr. gacha yetkaziladi. SHu tartibda tayyorlangan tuproqdan har bir tahlil uchun yana o'rtacha namuna olinib, maxsus elaklardan o'tkaziladi.

Misol uchun tuproqning tarkibidagi chirindi (o'simlik, hayvon qoldqlaridan tashkil topgan organik) moddalarni aniqlash uchun 0,25 mm.li mexanik (tabiiy katta – kichik kesakchalarni) tahlil qilish uchun 1 mm.li elakdan o'tkazilgan tuproq namunalari shisha idishga solinib, og'zi mahkam berkitilgan holda saqlanadi. Bunday idishlarda saqlangan tuproqning tarkibi va hususiyatlari uzoq vaqtgacha o'zgarmaydi.

Namunadan o'simlik ildizlari, yirik mexanik zarralar va boshqa aralashmalar ajratib olinadi. Ajratib olingan aralashmalar namuna uchun olingan tuproq massasiga nisbatan foizlarda quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$H = a - \frac{100}{1000}, \text{ bu yerda}$$

H – namuna olingan tuproq massasi

a – namunaga olingan tuproq ichidagi qo'shilma

100 – foizga o'tkazish koeffitsienti

Masalan, tahlil uchun olingan 1000 gr (100%) tuproqda 25 mg mexanik zarrachalar, 10 gr o'simlik ildizlari, 5 gr boshqa qo'shilmalar bo'lsa, ular namunaga nisbatan foizlarni tashkil etadi.

$$\text{Mexanik zarrachalar } \frac{25 - 100}{1000} = 2,5\%$$

o'simlik ildizlari $\frac{10 \times 100}{1000} = 1,0\%$

Boshqa qo'shilmalar $\frac{5 \times 100}{1000} = 0,5\%$ ni tashkil etadi.

Demak, 1000gr tahlil uchun olingan tuproq ichida (25+10+5) 40 gr qo'shilma bo'lganda u

Namunaga nisbatan $\frac{40 \times 100}{1000} = 4,0\%$ ni tashkil etadi.

Agarda tuproq tarkibidagi nitrat birikmalari yoki ammiak miqdorini tahlil qilishga to'g'ri kelsa, olingan tuprq namunasining qurib qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Bunday tahlillar tuproq qurimasidan oldin tozalanadi. Tuproq qurib qolsa, undagi ammiakning bir qismi oksidlanib nitratga aylanib ketadi. Tuproqning tuzilishi (strukturasi)ni tahlil qilish zarurati kelib chiqqanda, tuproq namunasi maydalanmasdan oldin tahlil qilinadi. Aks holda, tuproqning tabiiy tuzilishi buzilib ketadi, bunday tahlil natijasi to'g'ri bo'lmaydi.

Kerakli jihozlar:

1. Belkurak.
2. Santimetr.
3. Tuproq ma'lumotini qayd etish uchun etiketkalar.
4. Hovonchalar, uchi rezinali ezgich.
5. Qog'oz o'ramlari.



Uchi rezinali ezgich



Tuproq maydalash uchun hovoncha

2 - laboratoriya ishi. Tuproqdagi gigroskopik suvni aniqlash

Ishning maqsadi: Tuproqdagi gigroskopik suv o'simliklar uchun foydali bo'lmasa ham, u doimo tuproq tarkibida mavjud bo'ladi. Bajarilayotgan har bir fizik tahlilda gigroskopik suvning miqdori hisobga olingani sababli, bu ishni bajarish lozim bo'ladi.

Ishning nazariy asoslari: Gigroskopik namlik tuprok mayda zarrachalari orqali suv bug'larini yutilishidan hosil buladi. SHu sababli, uning miqdori avvalo tuproq mexanik tarkibiga (ya'ni «mayda loyli zarrachalar ko'p bulsa, namlik ko'p), ob-havo sharoitiga, yer osti suvini «joylanish chuqurligiga bog'lik.

Ishni bajarish tartibi: Gigroskopik suvni aniqlash uchun analiz qilinadigan tuproq namunasidan o'rtacha 5-10 gr dan olib, shisha stakanchaga yoki alyumin byuksga (termostatda quritilgan, og'irligi o'lchangan, og'zi yopiladigan) solinadi va analistik tarozida o'lchanadi. So'ngra stakanchalarni og'zi ochiq holda termostatga qo'yib, $105-110^0$ issiqlikda 4 - 6 soat quritiladi. Shu usulda quritilgan stakanchalar darxol og'zi berkitilib, maxsus eksikatorga solinadi. Eksikatorning ostki qismida undagi suv parlarini yaxshi yutish qobiliyatiga ega bo'lган CaCl_2 tuzi bo'ladi. Eksikatorda stakanchalar uy temperaturasigachasovutiladi va qayta analistik tarozida tortiladi. Quritilib tortilgan stakanchalar og'zi ochiq holda qayta quritiladi (2 – 4 soat) va sovutilib yana tortiladi. Bu ish o'zgarmas og'irlilik hosil bo'lguncha takrorlanadi. Tuproqdagi gigroskopik suvni miqdori quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$$x = \frac{(a - b) * 100}{H} \text{ бунда}$$

x – gigroskopik suvning miqdori, tuproq massasiga nisbatan % hisobida;

a – stakanchaning quritilmagan tuproq bilan birga og'irligi, gr hisobida;

v – stakanchaning quritilgan tuproq birga og'irligi, gr hisobida;

n – quruq tuproq og'irligi, gr hisobida;


(a – v) – analiz uchun olingan tuproqdagi gigroskopik suv, gr hisobida;

N o'z navbatida quyidagicha topiladi:

N – v – s, bunda s – stakanchaning sof (quritilgandan so'ng) og'irligi hisobida, gr hisobida; v – stakanchaning quritilga tuproq bilan birga og'irligi, gr hisobida.

Gigroskopik suvni aniqlash quyidagi jadvalda yozib boriladi.

Tuppo κ кесма si nomer i va uning tafsilot i	Namun a olingan chuqurl ik sm	Stakan nomeri	Quruq stakan og'irlig i	Stakanin g tuproq bilan og'irligi.	Stakanni quritilgan tuproq bilan og'irligi.	Gigrosko pik namlik miqdori
					1 2 3	



Elektron tarozi



Termostat



Byukslar



Eksikator

Kerakli asbob anjomlar

3- laboratoriya ishi. Tuproq qattiq fazasining solishtirma massasi.

Ishning maqsadi: Tuproqning solishtirma massasi bevosita tuproq hosil bo'lishida ishtirok etadigan va tuproq tarkibidagi minerallar kimyoviy tarkibi bilan xarakterlanadi xamda mexanikaviy tarkibni aniqlashda aynan tuproq zarrachalarining solishtirma og'irligiga bog'liq bo'ladi.

Ishning nazariy asosi: Tuproq qattiq fazasining solishtirma masasi deb, gramm xajmdagi sof massaning xuddi shu xajmdagi 4^0 S da olingan suvning sof og'irligiga bo'lgan nisbatiga aytildi. Uning o'lchov birligi gr/sm³. Tuproq xajm massasi. Tuproqning xajm massasi tabiiy holatdagi bir kub santimetr quruq tuproqning (havosi bilan) gramm hisobidagi massasini shu hajmdagi - 4^0 S da olingan suv og'irligiga bo'lgan nisbatiga aytildi va gr/sm³ bilan ifodalanadi.

Ishni bajarish tartibi

Tuproq qattiq fazasining solishtirma massasi laboratoriya sharoitida har xil hajmdagi piknometrlar yordamida aniqlanadi.

Bu 2 bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich – piknometrning (ichidagi qaynatilgan suv bilan birga) og'irligini topish. Buning uchun bir litrli kolbaga distillangan suv solib, uni elektr yoki gaz plita ustida 45 – 60 minut davomida qaynatiladi. Qaynatishdan maqsad, suvda yutilgan gazlarni (NH_3 , CO_2 va h.k) chiqarib yuborish. Bu davr ichida analiz uchun olingan piknometrlar (50 yoki 100 sm³) yaxshilab tozalanadi va nomerланади. Piknometrga distillangan suvni qaynatib to'ldiriladi va uy tempereturasigacha sovutiladi. Piknometrlardagi suv idishga bo'g'zidagi chiziq sathiga to'g'rilanadi va uning og'irligi analitik tarozida aniklanadi.

Ikkinchi bosqich – suv xamda tuproq bilan birga piknometrlarning og'irligini topish. O'lchangan piknometrlarning 2/3 qismigacha suv to'ldiriladi. So'ngra analiz uchun tayyorlangan tuproqdan piknometr xajmiga qarab 10 yoki 15 gr (analitik tarozida) o'lchab olinadi va suvli piknometrga solinadi. Piknometr bo'g'zida yopishib qolgan zarralar suv bilan yuvib tushiriladi va 30 min davomida gaz yoki elektr plita ustida tuproq tarkibidagi havoni siqib chiqarish maqsadida (piknometrdan birinchi pufakchalar chiqqan vaqtidan boshlab) qaynatiladi. Qaynatish vaqtida suspenziyani piknometrdan toshib chiqishiga aslo yo'l qo'ymaslik kerak.

Belgilangan vaqt o'tgandan so'ng piknometr uy temperaturasiga qadar sovutiladi (uy temperaturasiga keltirish maqsadida ertagacha qoldirish mumkin). So'ngra qaynatilgan suv bilan bo'g'zidagi chizig'igacha to'ldiriladi va yana analitik tarozida tortiladi. Sovutishni tezlatish maqsadida kristallizatordan foydalanish mumkin. Bunda kristallizator suv bilan to'ldirilgan hamda unga termometr o'rnatilgan bo'ladi. Xatolik ko'pincha termometrlar analizning I va II bosqichlarda temperaturaning bir xil bo'limganligi sababli yuz berishi mumkin. Analiz bilan bir vaqtda tuproqning gigroskopik namligini aniqlash uchun ham namuna olinadi. Tuproq solishtirma massasini aniqlash 2 – 3marta takrorlanadi. Tuproqning solishtirma massasi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$d_{cm} = \frac{A}{(B-A)-C} ,$$

Bu erda,

dsm – tuproq qattiq fazasining solishtirma massasi, gr/sm³ hisobida;

A – absolyut quruq tuproq, gr hisobida;

V – piknometrning suv bilan og'irligi, gr hisobida;

S – piknometrning suv hamda tuproq bilan og'irligi, gr hisobida.

A ni topish quyidagi formula asosida bo'ladi:

$$A = \frac{m * 100}{100 + w}$$

Bu erda,

m – analiz bajarilayotgan sharoitdagi tuproq og'irligi, gr hisobida;

w – gigroskopik suv, % hisobida.

Tupr oq kesm asi nome ri	CHu qurli gi, sm	Pikn ome tr nom eri	Namu na og'irli gi, gr %	Namli gi	Absol yut quruq tuproq og'irli gi	Piknometr og'irligi gr.	Suv bila n	Suv va tura mass asi gr/sm ³	Tupr oqnin g solish tirma mass asi gr/sm ³	O'rt cha ko'rs atkich

Yuqorida bayon etilgan tuproq qattiq fazasini aniqlashga doir bo'lgan metod sho'rланмаган tuproqlar uchun qo'llaniladi. Biroq sho'rланган tuproqlar uchun metodni qo'llash mumkin emas. Sho'rланган tuproqlarning solishtirma massasini aniqlash uchun suv o'rniga inert eritmalar – kerosin, benzin, toluol va boshqalar ishlataladi. Inert eritmalar tuproqni yaxshi namlasada, uning tarkibidagi tuzlarni eritmaydi.



Tuproq tarkibidagi tuzlar ham doimiy bo'lmasada, tuproq mineral qismini tashkil etadi. SHuning uchun ham tuzlarni eritmagan holda saqlab qolish va uni solishtirma massasini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Bajarish tartibi: Maydalangan tuproqdan teshiklari 1mm elakchadan taxminan 10–15 gr elab olib, oldindan tayyorlangan (og'irligi aniq bo'lishi shart emas) byuksga yoki alyuminiy stakanchaga solib 100 – 105⁰S termostatga qo'yiladi va 4–6 soat davomida qizdiriladi, so'ngra uni eksikatorda uy temperaturasigacha sovutib analitik tarozida o'lchanadi va nomerlangan piknometrغا solinadi (piknometrlarni albatta probkalari bo'lishi kerak) va yana qayta analitik tarozida tortiladi va uning ustiga 5–10 mm inert eritma quyiladi va ertasigacha qoldiriladi. So'ngra piknometr 1soat davomida vakuum - apparati ichida saqlanadi. Belgilangan vaqt o'tishi bilan piknometr olinadi inert eritma bilan bo'g'zidagi chizig'igacha to'ldiriladi va o'lchanadi. Inert eritma toza bo'lishi kerak.

Agarda inert eritmaning solishtirma massasi nomaъlum bo'lsa, uni aniqlash kerak. Buning uchun piknometr shu inert eritma bilan to'ldiriladi va o'lchanadi. Eritma og'irligini uning xajmiga bo'lish orqali eritmaning solishtirma massasi topiladi.

Solishtirma massani topishda temperatura sharoitiga alohida eъtibor berish zarur. Inert eritmalar yordamida solishtirma massani topish formulasi va uning yozish tartibi solishtirma massani suv yordamida topish tartibidagidek olib boriladi.

Kerakli asbob anjomlar

 <p>Elektr plitasi</p>	 <p>Piknometr</p>
 <p>Elektron tarozi</p>	 <p>Termometrlar</p>
 <p>Kristallizator</p>	 <p>Qisqichlar</p>

4-laboratoriya ishi. Tuproqning mexanik tarkibini kachinskiy usuli bilan aniqlash

Ishning maqsadi:

Tuproqning mexanik tarkibini o’rganishdan asosiy maqsad, faqatgina har hil katta – kichiklikdagi mexanik elementlarning miqdorini aniqlash emas, balki uning mexanik tarkibiga ko’ra tasnifini ishlab chiqish hisoblanadi. Tuproqning mexanik tarkibini aniqlash, uni agronomik jixatdan baholashda muhim rolъ o’ynaydi. Tuproqning issiqlik, suv o’tkazuvchanlik, zichlik, kapillyarlik xususiyatlari uning mexanik tarkibi bilan chambarchas bog’lik. Bularidan tashqari tuproq tarkibidagi u yoki bu kattalikdagi zarrachalarni aniqlash ularni maъlum tasnifda birlashtirishga imkon beradi, xamma ishlov berish, sug’orish, o’g’itlash kabi agrotexnik tadbirlarni tabaqlashtirishda asosiy ko’rsatkich bo’lib hisoblanadi.

Ishning nazariy asosi:

Tuproqshunoslik adabiyotlarida 30 – yillargacha tuproqning mikragregati degan tushuncha uchramaydi. Tuproq mikroagregatlarini ajratib analiz qilish faqatgina K.K. Gedroytsning (1922) «Ultramexanicheskiy sostav pochvy» degan ishidan so’ng ro’yobga chiqa boshladi va tuproqshunoslarning II Xalqaro kongressida (1930) qonunlashtirildi. Bu kongressda ishlab chiqarish tajribasida sinash uchun 2 ta xalqaro metod taklif etildi: a) Xalqaro metod «A» - bunda tuproq namunalari analizdan oldin kuchli kimyoviy moddalar yordamida dispergatsiyalandi (mexanik analiz); b) Xalqaro metod «B» - bunda tuproq namunalar analizdan oldin kuchsiz kimyoviy eritmalar yordamida ishlanadi (mikroagregat analiz). Tuproq tarkibidagi mineral zarralarni mayda-yirikligiga qarab farq qilish juda qadimdan kishilarni qiziqtirib kelgan. Mexanik tarkibni aniqlash uchun juda ko’p uslublar taklif qilingan va uslublar 3ta katta guruhga ajratilgan.

- 1) tuproq namunasini kimyoviy moddalar ishtirokisiz analizga tayyorlash;
- 2) tuproq namunasini kimyoviy modalar ishtirokida analizga tayyorlash hamda tuproq tarkibidagi uning ba’zsi bir xarakatchang qisimlarini ajratib tashlash.
- 3) Tuproq tarkibidagi elementlarni saqlagan holda tuproq namunasini dispergatsiya (tuproqni tashkil etuvchi mexanik elementlarni bir- biridan ajratish) qilish.

Qisqacha nazariya:

Hozirgi vaqtida tuproq fizikasi predmetida bir qancha mualliflar (Atterberg, Zemyatchenskiy, Oxotin, Sibirtsev, Zaxarov va boshqalar) ning tasnifi mavjud. Bu mualliflar o’z tasniflarida albatta mexanik elementlarning hususiyati va hossalarini inobatga olib, ishlab chiqarish va ilmiy maqsadlardagi tuproqlarni ularning mexanik tarkibiga ko’ra ma’lum gruppalarga ajratganlar.

Quyidagi dastlabki tasniflarning ayrimlariga to’xtalib o’tamiz N.M. Sibirtsev tasnifi eng dastlabki tasnif hisoblanib, tuproqning mexanik tarkibiga ko’ra 2 bo’lakli tasnifini taklif qiladi.

Muallif o’z tasnifi asosida E.Shene metodi yordamida olingan ma’lumotlarni asos qilib oladi. Bunda Sibirtsev tuproqda 2ta gruppani – 0.01mm dan katta zarachalarni “fizik qum”, 0.01mm dan kichik

zarrachalarni “fizik loy” (soz) ga ajratadi va bu gruppalarining nisbatini asos qilib olib o’zining tasnifini tuzadi.

SHuning uchun xam Sibirtsev tasnifi 2 asosli bo’lib, u quyidagicha:

Tuproqning mexanik tarkibiga ko’ra nomlanishi

“fizik loy”	“fizik qum”
1. Loyli	1:1 dan 1:1/2 gacha
2. Og’ir qumoq	1:2 dan 1:3 gacha
3. O’rtacha qumoq	1:4 orasida
4. Engil qumoq	1:5 dan 1:6 gacha
5. Qumloq	1:7 dan 1:10gacha
6. Loyli qum gacha	1:15 dan 1: 30 (50)

Sibirtsev tasnifi o’zining soddaliligi va ixchamliligi bilan ko’pchilikni o’ziga jalb etadi va xattoki sobiq ittifoqida 30 yillarga qadar ba’zzi bir ilmiy tekshirish ishlarida qo’lanildi. Lekin bu tasnif xam ayrim kamchiliklardan holi emas. Bu erda asosan xar hil gruppalarining o’tish chegarasi aniq berilmagan va E. SHene uslubi yordamida olingan ma’lumotlar asos qilib olingan. Bu uslubda suyuqlikning yopishqoqligi va uning muxit temperaturasiga ko’ra o’zgarishi e’tiborga olinmaganligi sababli olinga ma’lumotlar ayrim xatolardan holi bo’lmaydi.

G.M. Tumin va S.A.Zaxarovlar N.M.Sibirtsev tasnifini tabakalashtirishni maqsad qilib o’zlarining uch asosli tasnifini taklif qilib, quyidagi mexanik zarrachalarning nisbatini oladi: fizik loyqa (< 0.01 mm): qumli chang ($0.001 - 0.1$ mm): qum ($0.1 - 3$ mm).

V.V.Oxotin mexanik elementlarning quyidagi nisbatlarni asos qilib oladi: <0.005 ; $0.005 - 0.25$ va $0.25 - 2$ sm. Bu tasnif yo’l qurilishi gruntchiligida ijobiy baho oldi. Ayrim vaqtarda bu tasnifni agronomik maqsadlar uchun ishlashish tendentsiyasi vujudga keladi. Lekin shuni esda tutish kerakki, tuproqni qurilish maqsadida baholash bilan qishloq xo’jaligidagi mehnat vositasi sifatida baholash o’rtasida tenglik qo’yish mumkin emas.

SHuning uchun V.V.Oxotin klasifikatsiyasini tuproqlarni yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqishda qo’lab bo’lmaydi.

N.A. Kachinskiy tasnifi. Muallif o’z tasnifida qum, qumloq. Soz kabi gruppalarini mexanik aniliz natijasida olingan maъlumotlar asosida ajratadi va Sibirtsev taklif etgan “fizik loy”, “fizik qum” nisbatini asos kilib oladi.

N.A.Kachinskiyning o’z tasnifi asosida mexanik tarkibni tinch turgan suvda (mexanik zarrachalarning cho’kish tezligini aniqlashda Stoks formulasi qo’llanilgan) pipetka yordamida o’rtacha namuna olish yo’li bilan aniqlagan maъlumotlarini qo’yadi. SHuning uchun xam muallif Sibirtsevning “fizik loy”, “fizik qum” atamalarini rasmiy ravishda shartli qabul qiladi.

N.A.Kachinskiy tasnifi yuqorida qayd qilingan muallif tasniflaridan tubdan farq qiladi. N.A Kochinskiy faqatgina mexanik elementlarning hossalari yoki ularning nisbatlarini hisobga olibgina qolmasdan, balki xar bir tipdagi tuproqlarning paydo bo’lishi sharoitlarini inobatga oladi.

N.A.Kachinskiy tasnifada uch xil tuproq iqlim sharoitida hosil bo’lgan tuproqlarni birlashtiradi:

1. podzollashgan tuproqlar;
2. dasht tuproqlar;
3. sho’rxok va sho’rtob tuproqlar.

Bu tasnif tuproqlarning paydo bo’lishi sharoitlari hisobiga olinganligi sababli har qaysi tuproq tipining unumdorligini oshirishda tabaqalanishgan agronomik tadbir ishlab chikarishni osonlashtiradi.

Skeletli tupoqlarda N.A.Kochinskiyning tasnifini qo’llashda tuproqning toshlilik darajasini ko’satish lozim. Buning uchun muallif quo’idagi shakllarni taklif etadi.

Tuproqdagi toshchalarning miqdoriga qarab N.A. Kachinskiy tasnifi

toshchalar(>3mm) miqdori, % hisobida	toshlilik darajasi	toshlilik tipi
< 0.5	toshsiz	bu tuproq tarkibida
0.5 – 5.0	kam	toshchalarning holatiga
5 – 10.0	o’rtacha	qarab aniqlanadi, ya’ni
10	sertosh	tuproqda chig’ir, xarsang toshlar va boshqalar

CHet mamlakatlarda ham tuproqlar ularning mexanik tarkibiga ko’ra tasnifi mavjud, bu tasniflar unchalik tabaqalashmagan.

Tuproq mexanik tarkibini tinch turgan suvda aniqlash 2 ta guruhchaga bo’linadi: birinchi guruhga tayyorlangan suspenziyadan maъlum katta

kichiklikdagi zarrachalarni butunligicha (xammasini) ajratib olish, ikkinchi guruxchaga tayyorlangan suspenziyadan o'rtacha namuna olish yo'li bilan xar hil kattalikdagi mehanik zarrachalar miqdorini topishdir.

Tayyorlangan suspenziyaning ma'lum qismini boshqa idishga o'tkazib o'rtacha namuna olinadi. Suspenziyaning zichligini aniqlash bo'yicha ko'pchilik mualliflar hilma hil ko'rsatkichlarga ega bo'lsada, tinch turgan suvda analiz o'tkazadigan vaqtida quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- 1) Har hil kattalikdagi mexanik elementlarning suvdagi erkin xarakatdagi yo'li – n sm da.
- 2) Shu mexanik elementlarning suvda cho'kish tezligi – v - 1mm/sek da:
- 3) Suspenziyani boshqa idishga o'tkazish yoki undan o'rtacha namuna olish vaqtı – t min. da. Bu ko'rsatkichlar o'zaro quydagи bog'liqlikda bo'ladi:

$$t = \frac{h}{v}; h = v * t; v = \frac{h}{t}$$

Tinch turgan suvda analiz o'tkazish uchun tuproq maxsus yo'llar (qaynatish orqali, ma'lum dispergatorlar yordamida va h.k.) bilan analizga tayyorlanadi va aniq hajmli idishlarga o'tkaziladi.

Hozirgi vaqtida tuproq mexanik tarkibini tinch turgan suvda aniqlashga bag'ishlangan ko'p sonli qadimiylari (Sabanin, Filatov, Orlov va boshqalar) va zamonaviy uslublar mavjud. Quyida biz O'rta Osiyo tuproq-meliorativ tekshirishlarida eng ko'p tarqalgan pipetka yordamida o'rtacha namuna olish uslubiga to'xtalib o'tamiz.


Mexanik analiz qilishning hozirgi davrda juda ko'p uslublari qo'llanib kelinmoqda. Bularning ichida eng ko'p tarqalgani va ixchamlashtirilgan shakldagi pipetka uslubi hisoblanadi. Buning uchun tuproqning har xil katta-kichiklikdagi zarrachlarini o'zida saqlagan suspenziya tayyorlanadi. Suspenziyadan pipetka yordamida o'rtacha namunalar olib xar hil kattalikda bo'lgan mexanik zarrachalarning miqdori aniqlanadi.

Mexanik analiz natijasining qoniqarli bo'lishi tuproq tarkibi, uning xususiyati, analizga tayyorlash uslubi bilan bog'liq bo'ladi. O'rta Osiyo karbonatlashgan tuproqlarining mexanik tarkibini aniqlashga moslashtirilgan S.N. Rijov uslubidan foydalanamiz.

Tuproq namunasini analizga tayyorlashning asosiy maqsadi agregatlarni buzish va tuproqning bir biriga yopishib yotgan mexanik zarrachalarni to’la – to’kis qismlarga ajratishdan iborat. Bu jarayonni tezlatish uchun xar hil kimyoviy eritmalar qo’llaniladi. Akademik S.N.Rijov (1935) birinchi bo’lib O’rta Osiyo tuproqlari uchun peptizator sifatidagi natriy tuzlaridan natriy oksalatni ($\text{Na}_2\text{C}_2\text{O}_4$) taklif etgan edi. Bunda ko’za tutilgan asosiy maqsad, tuproqning singdirish kompleksidagi kaltsiyini siqib chiqarish va uning o’rnini natriy egallashi edi.

Natriy bilan to’yingan tuproqlar esa suvda juda yaxshi bo’tanalashgan suspenziya hosil qiladi.

Natriy oksalat bilan karbonatli tuproq o’rtasida ketadigan reaktsiya quyidagicha ifodalanadi:



Sxematik reaktsiyadan ko’rinib turibdiki, tuproqning singdirish kompleksidagi kaltsiy natriy bilan tamoman o’rin almashadi. S.N.Rijov bo’yicha tuproqda singdirilgan kaltsiyini natriy bilan o’rin almashishini ta’minalash uchun natriy oksalatdan ekvivalent miqdorida solish maqsadga muvofiqdir, aks xolda singdirish kompleksidagi komponentlar to’liq o’rin almashishlari mumkin bo’lmay qoladi.

Keyinchalik M.I. Bratcheva (1957) kuchli dispergator sifatida natriy geksamtofasfat tuzi eritmasini taklif qildi va hozirgi vaqtida bu eritmadan laboratoriyalarda mexanik tarkibni o’rganish uchun foydalanilmoqda.

Bajarish tartibi: Teshiklari 1mm li elakchadan o’tkazilgan tuproqdan analistik tarozida 20 gr olib 250 ml yassi taglik (konussimon) kolbaga solinadi. Ayni bir vaqtida mexanik analiz uchun olingan har bir tuproq namunasidan 3 – 5 gr atrofida alohida byukslarda uning gigroskopik namligini aniqlash uchun tuproq olish kerak. So’ngra 1 gr tuproqqa 1 ml hisobida natriy geksametofafat eritmasi solinadi (ko’pgina olib borilgan tekshirishlar ko’rsatishi bo’yicha tuproqning singdirish kompleksidagi kaltsiyining o’rnini

batamom natriy egallashi uchun 1:1 nisbat yetarli deb topilgan) va u yaxshilab tuproq bilan aralashtiriladi. Natijada kolbachada xamirsimon bo'tqa hosil bo'ladi. So'ngra mana shu bo'tqa ustiga 70 – 80 sm³ distillangan suv quyib, u yaxshilab aralashtiriladi. Shu tarzda tayyorlangan bo'tqa elektr plitka yoki qum xammomi ustida qaynatish (bunda kolba og'zida shisha voronka bo'lishi lozim) uchun qo'yiladi. Bo'tqa 1 soat davomida qaynatiladi. Qaynatish davomida aralashmaning kolbadan toshib ketmasligini nazorat qilib turish lozim. Shundan so'ng bo'tqa uy haroratigacha Sovutiladi. So'ngra 1 litrli maxsus tsilindrga bir - biriga kiydirilgan 1 – 0,25; 0,25 – 0,1mm li elakchalar orqali suzib o'tkaziladi. Elakchalarda yig'ilib qolgan zarrachalar yaxshilab yuviladi, og'irligi aniq bo'lgan chinni piyolacha yoki alyumin byukslarga solinadi va suv xammomida bug'latish uchun qo'yiladi. Piyolachalardagi suv to'liq bug'latilgach, ular termostatda 105 – 110° issiqlikda 4 – 5 soat davomida quritiladi. So'ngra eksikatorda Sovutilgach, analistik tarozida tortilib, har qaysi piyolachadagi zarrachalarning og'irligi va protsent miqdori aniqlanadi (quyida keltirilgan hisoblash tartibiga qarang).

Agarda analiz uchun olinayotgan tuproq u yoki bu darajada sho'rangan bo'lsa, bunday tuproqlarni mexanik analiz qilishdan oldin Cl⁻ va SO₄²⁻ ionlari tamom bo'lguncha distillangan suv bilan yuvish kerak.

Tsilindrdbagi bo'tana suyuqlikning hajmi 1litrga yetkaziladi. So'ngra suyuqlikdan uy temperaturasini, tuproq qattiq fazasining solishirma massasini bilganimiz holda har xil kattalikdagi zarrachalarning tsilindr dan olish vaqtini va olish chuqurligini belgilab olamiz. Suyuqlik maxsus o'rnatilgan pipetkalar yordamida olinadi. Pipetkani tsilindrga botirish chuqurligi va namuna olish muddati maxsus jadvaldan foydalangan holda olinadi.

Olingan namuna chinni piyolachaga solinadi va pipetkaga yopishib qolgan zarrachalar xam suv bilan yuvib tushiriladi. Piyolachadagi loyli suyuqlik to'liq bug'latilgach, termostatda 105°S issiqlikda quritiladi (4-6 soat), so'ngra eksikatorda Sovutilib, analistik tarozida tortiladi va pipetka bilan olingan tuproq zarrachasining og'irligi topiladi. Boshqa mexanik zarrachalardan xam namuna olish 2-jadvalda ko'rsatilgandek bajariladi. TSilindrdbagi suyuqlik xar bir namuna olishdan oldin aralashtirgich (meshalka) yordamida chayqatiladi.

Har bir gurux zarralarining olish vaqtini va chuqurligini Stoksning quyidagi formulasi orqali topamiz:

$$v = \frac{2}{g} - gr^2 \frac{d_1 ch - d}{\eta}$$

Bu erda v – zarrachaning cho’kish tezligi, sm/sek hisobida;

g – jismning erkin tushish tezligi 98 g/sm ga teng;

d_1 – cho’kadigan zarrachalarning solishtirma massasi, g/sm³;

d – eritmaning solishtirma massasi, g/sm³;

η – eritmaning yopishqoqligi /yopishqoqlik/ temperatura o’zgarishi bilan keskin o’zgaradi.

Pipetka yordamida quyidagi gruppaga mexanik zarrachalar ajratiladi.

I namuna (sekundlik) 4 xil zarrachalar yig’indisi dispergator – 0,05 – 0,001 mm (0,05 – 0,01, 0,01 – 0,005, 0,005 – 0,001 va 0,001 mm dan kichik zarrachalar).

II namuna (minutlik) 3 xil zarrachalar yig’indisi dispergator – 0,01 – 0,001 mm (0,01 – 0,005, 0,005 – 0,001 va 0,01) mmdan kichik zarrachalar.

III namuna (soatlik) 2 xil zarrachalar yig’indisi dispergator – 0,001 mm dan kichik.

Xar qaysi gruppaga zarralar og’irligini hisoblashda, keyingi olingan namuna og’irligini oldingi namuna og’irligidan olib tashlash bilan zarralarning xaqiqiy og’irligi topiladi. Masalan 0,01- 0,005 mm li 2 gruppaga zarachalar og’irligini (0,4257 g) 1chi gruppaga zarachalar (0,05 – 0,01 mm) og’irligidan (0,6324 g) olib tashlash bilan 1 chi gruppaga zarrachalarning xaqiqiy og’irligi aniqlanadi. Oxirgi gruppaga (IV namuna) zarrachalaridan esa dispergator og’irligi olib tashlanishi kerak. Dispergator og’irligi quydagicha topiladi. Analiz uchun tuproqqa solingan miqdordagi dispergator (masalan, 20 ml) 1 litrli tsilindrga solinadi 1 litrgacha distillangan suv bilan suyultiriladi. Suyuqlik uy temperaturasiga kelgach, undan pipetka orqali namuna olib, chinni piyolachaga solinadi va suv xammomida bug’latiladi. Suyuqlik batamom bug’latilgach, termostatda quritilib, eksikatorda sovutiladi va analitik tarozida tortiladi.

Dispergator og’irligi esa oddiy proportsiya yuli bilan topiladi.

25 ml – agr

1000 – x

$$x = \frac{1000 * a}{25};$$

Bu erda a - chinni piyoladagi quruq qoldiq. Mana shu topilgan miqdor oxirgi gruppera zarrachadan olib tashlanadi.

SHu tartibda aniqlangan har qaysi gruppera zarrachalarning protsent miqdori quydagicha hisoblanadi.

$$x = \frac{a * 1000 * 100}{b * c};$$

bu erda x – maъlum kattalikdagi mexanik zarrachalar miqdori, % hisobida;

a – zarrachaning xaqiqiy og’irligi, gramm hisobida;

b – pipetka xajmi, ml hisobida;

s – analiz uchun olingan absolyut quruq tuproq, gr hisobida;

1000 – suyuqlikning umumiyligi xajmi, ml da;

100 – protsentga aylantirish koefitsenti.

Elakchada qolgan zarrachalar esa quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$$B = \frac{P * 100}{a};$$

bu erda,

V - zarrachaning miqdori, % hisobida;

R - zarracha og’irligi g hisobida;

a - analiz uchun olingan tuproq, gr;

100 – protsentga aylantirish koefitsenti.

Mexanik analiz natijalarini quyidagi jadvalga yozish tavsiya etiladi.

Mexanik analiz natijalarini yozish shakli.

4-jadval

Tupro q va uning xarak teristik asi	CH uqu rlik, sm	TSilind r nomeri	CHi nni piyo lach alar nom eri	Zarra cha kattali gi,mm	CHinni piyolach aning sof og’irligi gr hisobida	CHinn i piyolac haning zarrach a bilan og’irli	Zarracha gruppalarinin g og’irligi, gr

						gi	

Demak, pipetka yordamida mexanik analiz qilgan vaqtimizda elakchadagi zarralar bilan xammasi bo'lib 6 hil zarralar aniqlanadi, ya'ni 1 – 0,25; 0,25 – 0,1 (elaklarda); 0,05 – 0,01 (sekundlik); 0,01 – 0,005 (minutlik); 0,005 – 0,001 (soatlik) va 0,001 mm dan kichik (sutkalik) zarrachalar ajratiladi. Bu 6 ta gruppaga mexanik zarrachaning umumiyligi miqdorini (foiz hisobida) 100 dan ajratib tashlash natijasida, ettinchi 0,01 – 0,05 mm kattalikdagi zarracha topiladi. Masalan, mexanik analiz natijasida quydagisi maъlumotlar olinadi.

Zarrachalar kattaligi, mm; miqdori, % hisobida.


1 – 0.	2.51
0.25 – 0.1	8.15
0.05 – 0.01	35,11
0.01 – 0.005	18.19
0.005 – 0.001	15.03
< 0.001	8.07

6ta zarracha miqdorining yig'indisi – 87.07% ga teng, topilishi kerak bo'lган zarracha – 0.1 – 0.05 mm (mayda qum), miqdori esa $100.00 - 87.06 = 12.94\%$ ga teng bo'ladi.

Olingan maъlumotlarga asoslanib tuproqning qaysi mexanik tarkibiga mansubligi 4 – jadval asosida aniqlanadi.

Kerakli asbob anjomlar:



		
Kachinskiy pipetkasi	250 ml konussimon kolbalar	1- 0,25mm , 0,25 – 0,1mm elakchalar



Tuproq mexanik tarkibini Kachinskiy usuli bilan aniqlash

5-laboratoriya ishi. Tuproq mikroagregat tarkibini kachinskiy usulida aniqlash.

Ishning maqsadi:

Tuproqning agregatlik xolatini o'rganish juda katta amaliy axamiyatga ega. Chunki agregatlarni, ayniqsa suvga chidamli makro va mikroagregatlarni, mavjudligi tuproqdagi suv, xavo, qolaversa issiqlik rejimini boshqarishda bosh rolni o'yndaydi.

Ishning nazariy asosi:

Tuproq mikrostrukturasini aniqlash uslubi asosan 2 ta qismdan iborat bo'lib, u G.I. Pavlov va A.F. Tyuminlar uslubini N.I. Savvinov modifikatsiyasi asosida amalga oshiriladi. 1 qism - bu tabiiy xolatdagi tuproqlarda mavjud bo'lgan turli kattalikdagi va shakldagi agregatlar miqdorini aniqlash; 2 qism – xar hil o'lchamli makroagregatlarning suvga chidamli, ya'ni agronomik ahamiyatga moslik miqdorini aniqlashdan iborat. Hozirgi vaqtida tuproqlarning mikroagregat tarkibini aniqlash laboratoriyalarda asosiy analiz turi hisoblanadi,

chunki u ko'pchilik olingan ma'lumotlar mikroagregatlarning tuproq fizik rejimini yaxshilashdagi muhim rolni isbotlab beradi. Shuning uchun ham bu maqsad uchun olimlar ko'plab usullar taklif etishgan.

Tuproq namunasini mikragregat analiziga tayyorlash

Namuna qilinadigan elakcha diametri, mm	Analiz uchun olingan tuproqlar	Kimyoviy ta'sir (ishlash)	Mexanik va termik ishlash	Namlangan tuproqni elashda gi elakcha diametri, mm	Analiz o'tkazish texnikasi
Xalqaro «V» 2	10 -15	NH ₄ OH	Tuproq namunasini 24 soat davomida 200 sm ³ distillangan suvda bo'ktirish, so'ngra 2soat qaynatiladi yoki loyqali mexanik ezish hamda tayyorlangan suspenziyani 2soat davomida minutiga 200 chastotali tebratgichda chayqatish	Yo'q	Dekantat siya qilish
S. A. Astapov 10, 5, 3, 1 (Elakchalar to'plamida)	20 – 30	Yo'q	Tuproq namunasini – 1 litrli tsilindrda 6 -24 soat davomida uning To'la nam sig'imi xolatigacha namlash, so'ngra 1 litr tsilindrni 180 ⁰ da 10 marta aylantirish.	Yo'q	Pipetka yordamida o'rtacha namuna olish.
N.A. Kachinskiy, I	10 – 30	Yo'q	Tuproq namunasini 24soat davomida 250 ⁰ distillangan suvda bo'ktirish, so'ngra 2soat davomida minutiga 200 chastotali	0,25	Pipetka yordamida o'rta cha namuna olish.

			tebratgichda chayqatish.		
--	--	--	-----------------------------	--	--

Mikroagregat tarkibini aniqlashga bag'ishlangan uslubiyat asosida suvgaga chidamli strukturali bo'lakchalar miqdorini topish yotadi. Biroq jadval maъlumotlaridan ko'rinish turibdiki tuproq namunalarini analizga tayyorlashga yondashish juda xilma – hildir. Jumladan Xalqaro metod – «V» 2 mmlni elakchadan o'tkazilgan tuproqlarni ammoniy gidroksidi (NH_4OH) bilan namlab bir sutkadan so'ng unga 200 ml distillangan suv solib 2 soat qaynatiladi. Bunda NH_4^+ ioni tuproq singdirish kompleksidagi Ca, Mg bilan o'rin almashinib, tuproqni disperslash qobiliyatiga ega bo'ladi.

S.V.Astapov metodida tuproq namunasi kimyoviy taъsir bilan emas, balki kuchli mexanik, fizik taъsir bilan analizga tayyorlanadi. Bunda namuna uzoq vaqt (6-24 soat)da namlanadi, so'ngra 10 marta 180° ga aylantirib, pipetka yordamida o'rtacha namuna olinadi va undagi mikroagregatlar aniqlanadi. SHuni aytish kerakki, bu uslub yordamida faqat mikroagregatlarnigina ($\leq 0,25$ mm) emas, balki makroagregatlarni ($\geq 0,25$ mm) ham aniqlash mumkin. Analiz uchun 20-30 gramm tuproq namunasini olinadi.

Tuproqning mikroagregatli tarkibi Savvinov uslubida aniqlash. Bajarish tartibi:

1-usul. Havo quruqligi xolatidagi tuproqlarning makroagregatlari miqdorini aniqlash (quruq elash).

Taxlil tartibi: dala tadqiqotlari vaqtida tuproq genetik qatlamlaridan olib keligan tuproq namunalari uy sharoitida quritiladi. So'ngra u namunalardan chamasi 2,0 – 2,5kg (eng kam namuna 0,5 kg bo'lishi shart) o'lchab olinadi va katta toza qog'oz ustiga to'kiladi. Agarda namunada o'lchami juda katta kesaklar bo'lsa, ular qo'l bilan biroz maydalanadi. Quruq tuproq namunalari asta sekinlik bilan bir biriga kiydirilgan kattaliklari $\geq 10, 10-7, 7-5, 5-3, 3-2, 2-1, 1-0.5, 0.5-0.25$ va 0.25mm dan kichik elakchalar to'plamidan asta – sekinlik bilan elanadi. Bu elakchalar kolonnasining ustki qismida qopqoqdan va pastki qismi esa teshiksiz elakdan iborat bo'ladi. Analiz uchun olingan

tuproq namunasini elash tamom bo'lishi bilan xar qaysi kattalikdagi elaklardan qolgan agregatlar texnik tarozida o'lchanadi va ularning foiz miqdori aniqlanadi.

Hisoblash tartibi:

Masalan, 2500 gramm quruq tuproqda 10 mmdan yirik struktura elementi 125 gr bo'lsa, uning protsent miqdori quyidagicha hisoblanadi:

$$X = \cdot 125 \times 100 / 2500 = 5$$

Qolgan elakchalardagi agregatlar protsenti ham shu tartibda aniqlanib, tubandagicha struktura (makroagregatlar) natijasini ko'rsatuvchi jadval tuziladi.

Analiz uchun 0 - 30sm xaydanma qatlamdan 2000gr tuproq namunasi quruq elash uchun olinadi. Bu namuna 100% ni tashkil qiladi.

Quruq elash natijalari:

- $\geq 10 \text{ mm}$ – 900 gr. – 45%
- 10 – 7 mm – 400 gr. – 20%
- 7 – 5 mm – 250 gr. – 12,5%
- 5 – 3 mm – 150 gr. – 7,5%
- 3 – 2 mm – 100 gr. – 5,0%
- 2 – 1 mm – 80 gr. – 4,0%
- 1 -0,5 mm – 50 gr. – 2,5%
- 0,5 – 0,25 mm – 40 gr. – 2,0%
- $\leq 0,25 \text{ mm}$ – 30 gr. – 1,5%

Tuproq tarkibidagi mikroagregatlarni shakllantirish

N.A.Kachinskiy uslubida esa tuproq namunalari suvda faqat bir sutka bo'ktirilgandan so'ng 2 soat davomida chayqatiladi. Bunda agregatlarning ayrim qismi albatta maydalanishi mumkin, lekin batamom yo'qolmaydi, mayda aggregatchalarga ($\leq 0,25$) o'tishi mumkin.


Tuproqning mikroagregat tarkibini aniqlash natijalarini shakllantirish

Tuproq va uning xarakte ristikas i	CHuqu rlik, sm	TSilind r nomeri	CHinni piyolac halar nomeri	Zarrach alar kattalig i,mm	CHinni piyolac haning sof og'irlig i gr hisobid a	CHinni piyolac haning zarrach a bilan og'irlig i	Zarrach a gruppal arining og'irlig i, gr

Dalada mexanik tarkibni aniqlash uslublari

«Quruq» uslub. Buning uchun ozgina tuproq olib , qo'lning kafti ustida yaxshilab eziladi, so'ngra engil puflab, kaftda qolgan chang zarralari miqdori orqali tuproqning mexanik tarkibi to'g'risida muloxaza yuritiladi. Agarda, tekshirilayotgan maydon tuprog'inining mexanik tarkibi qancha og'ir bo'lsa, kaftda qolgan zarracha shuncha ko'p bo'ladi. Bu mexanik tarkibni dalada aniqlashning eng qo'pol uslubi bo'lib, faqatgina og'ir yoki engil tuproq gruppalarini ajratish imkonini beradi.

«Loy xalqachalar» orqali aniqlash. Buning uchun 3-5 gramm tuproq kaftga olinadi va bir oz suv qo'shish orqali xamirsimon loy tayyorlanadi. Undan xalqalar yasalib, uning tashqi holatiga qarab qum, qumloq, qumoq, soz kabi mexanik zarrachalarning gruppalarini ajratiladi. Mexanik tarkibiga qarab taylorlanilgan halqalar quyidagicha bo'lishi mumkin.



1 – qum, 2 – qumloq, 3 – engil qumoq, 4 – o’rta qumoq, 5 – og’ir qumoq, 6 – loy.

З- расм. «Лойкали ҳалқацалар» қилиш сриғали тупроқи меҳаник таркибини аниqlами?

Tuproq mexanik tarkibini elakchalar yordamida aniqlash.

Uning tosh hamda qumlarini maъlum gruppalarga (yirik, o’rta, mayda) ajratish maqsadida ishlatiladi. Odatda tuproqning toshli qismini aniqlash uchun diametri 3mm dan kata teshikchali elakchalar qo’llaniladi. Tuproqning toshlilik darajasini aniqlash ko’pchilik holda dala sharoitida olib boriladi. Buning uchun 1kg tuproq olib elakchadan o’tkaziladi. Qolgan toshli qismi maxsus junli cho’tkalar yordamida toshlarda yopishib qolgan mayda zarralardan tozalanadi, so’ng 0,1 g aniqlikkacha texnik tarozida o’lchanadi va uning foiz hisobi topiladi.

Hisob – kitob absolyut quruq tuproq vazniga nisbatan foiz miqdorida aniqlanadi. Buning uchun toshli qismdan undagi gigroskopik namlikni aniqlash maqsadida 15-20 gr namuna olib termostatda quritiladi va quruq holdagi vazni o’lchanadi. Olingan maъlumotlar asosida tuproqning toshli qism miqdori ko’rsatkichiga (foiz hisobida) o’zgartirish kiritiladi.

Analizni dvom ettirish maqsadida 3 mm li elakdan o'tkazilgan tuproq namunasidan 100-150 g olib, chinni xovonchada rezinali (kauchukli) ezgich orqali maydalab bir-biriga kiygizilgan teshiklarining kattaligi 3-1 mm bo'lgan elakchada-shag'al, 1-0,5 mm da -yirik qum , 0,5-0,25 mm da-o'rta qum, 0,25 mm dan kichik elakchada esa mayda qum miqdorini aniqlaymiz. Olingan maъlumotlardan absolyut quruq tuproq vazniga nisbatan foiz miqdorini aniqlaymiz.

Olingan maъlumotlar aniq bo'lishi uchun qum zarrachalaridan chang va il ajralishi lozim. Buning uchun qum zarrachalari toza suvda qaynatiladi yoki maxsus eritmalar yordamida toki eritma tiniq holga kelguncha ishlanadi. SHu usul bilan qum zarralarining, xattoki toshli qismning miqdori ham topiladi.

Kerakli asbob – anjomlar:

1. Texnik tarozi
2. 3 mm dan 0.25 mm gacha bo'lgan elaklar
3. CHinni xovoncha, rezina uchli dastacha
4. Jun shyotka

Tuproqning disperslik va strukturalik koeffitsenti (soni)

Tuproqning mexanik va agregat tarkibini o'rganish asosida uning disperslik va strukturalilik koeffitsenti (sonlarini) hisoblab chiqish mumkin. Bundan tashqari struktura hosil qilish qobiliyatini bilib olamiz.

1932 yilda N.A.Kachinskiy disperslik (bu so'zning maъnosи tuproqning agregatli bo'lakchalarini uni tashkil etgan mexanik elementlarga ajralish qobiliyati) sonini hisoblash uchun quyidagi formulani taklif etadi.

$$K_{\Delta} = \frac{100 * a}{b}, \%$$

bu erda,

Kd – disperslik soni, % hisobida;

a – mikroagregat analizda ajratilgan il > (0.001 mm) miqdori, massaga nisbatan % hisobida;

v – mexanik analizda ajratilgan il > (0.001 mm) miqdori, massaga nisbatan % hisobida; 100 % aylantirish koeffitsienti.

Misol: Tuproqdan mikroagregat analizda < 0.001 mm zarracha miqdori 8% ajratildi ($a = 8\%$), mexanik analizda esa bu zarracha miqdori – 20% ($v = 20\%$) ga teng.

$$K_d = \frac{8*100}{20} = 40\%$$

Agarda Kd soni qancha katta bo'lsa, tuproqda suvgaga chidamli agregatlar miqdori shuncha kam bo'ladi. SHuning uchun Kd soni qora tuproqlarda 15 – 20, O'rta Osiyoning bo'z tuproqlarida 30 – 45, taqir tuproqlarda 75 – 90% gacha etadi.

Disperslik sonining aksariyati strukturalilik soni deyiladi. 1932 yilda P.Fageler o'zining quyidagi formulasini taklif etadi.

$$K_c = \frac{100(1\cos\beta - 11\cos\alpha)}{1\cos\alpha}$$

Ks – strukturalik soni, % hisobida;

$1\cos\alpha$ – mexanik analizda ajratilgan sozx, massaga nisbatan % hisobida;

$11\cos\beta$ – mikroagregat analizda ajratilgan soz, massaga nisbatan % hisobida;

100 - % ga aylantirish kefitsenti

SHuni takidlash kerakki, strukturalilik sonini hisoblash uchun P. Fageler formulasidan foydalanishdan tashqari bu sonni disperslik sonini hisoblash asosida ham chiqarish mumkin.

Ayrim hollarda strukturalilik sonini hisoblash zarur bo'lib qoladiyu, biroq bizda mikroagregat analizi ma'lumotlari yo'qligi tufayli bunday hollarda A.F.Vadyunina Ks hisoblash faqatgina mexanik analiz ma'lumotlari asosida olib borish mumkinligiini isbotlab o'zining quyidagi formulasini beradi:

$$K_c = \frac{c}{d} = 100\%$$

Bu erda

Ks – strukturalik soni, % hisobida;

S - $< 0,001$ mm li mexanik elementlar (chirindili qatlamda $< 0,005$ mm li zarrachala) miqdori;

d - $> 0,005$ mm li zarrachalar miqdori;

100 - % aylantirish koefitsenti.

A.F.Vadyunina taklif qilgan bu formula og'ir mexanik tarkibli tuproqlarni Ks ni hisoblash juda aniq ma'lumotlar beradi.

Mexanik va mikroagregat analiz ma'lumotlarini rasmiylashtirish (grafik shaklida)

Mexanik analiz ma'lumotlarini rasmiylashtirishdan asosiy maqsad, ulardan foydalanishni osonlashtirish, olingan ma'lumotlarni ixchamlashtirish va ular asosida zarur tadbirlarni ishlab chiqish hisoblanadi. Olingan ma'lumotlar maxsus jadval tariqasida beriladi. Keyingi vaqtarda mexanik elementlarining tuproq qatlamlarida tarqalishni aniq ko'rsatish maqsadida mexanik analiz ma'lumotlarini profil tariqasida berish rasm bo'lmoqda. Ma'lumotlarni profil tariqasida, ya'ni gorizontal chiziqda, zarrachalar miqdori massaga nisbatan foiz hisobida beriladi, vertikal chiziqda esa tuproq namunasi olingan chuqurlik yoki genetik qatlamlar aks ettiriladi.

6-laboratoriya ishi. Tuproqdagi maksimal gigroskopik suvni aniqlash

Ishning maqsadi:

Gigroskopik va maksimal gigroskopik namliklarni aniqlash, tuproqning tarkibiy qismlari to'g'risida mulohaza yuritishga imkon beradi. Ba'zi holatlarda maksimal gigroskopiklik ko'rsatkichi orqali o'simliklarning so'lish namligini yoki so'lish koefitsientini hisoblab chiqish mumkin.

Ishning nazariy asosi:

Gigroskopik suv tuproq zarrachalari orqali juda katta kuch bilan tortilib turganligi uchun undan o'simlik va boshqa tuproq organizmlari foydalana olmaydi. Shuning uchun ham gigroskopik suvni tuproq bilan zich bog'langan suv deb yuritiladi. Gigroskopik suv moddalarni eritish xamda elektr o'tkazuvchanlik qobiliyatiga ega emas, muzlash darajasi xam juda past (-78° S).

Gigroskopik suvning miqdori tuproqlarda o'zgarmaydigan kattalik emas. Uning miqdori birinchidan xavoning namligi oshishi bilan ko'paysa, ikkinchidan tuproq mexanik tarkibining og'irlashishi, kolloid zarrachalar va organik moddalarning ko'payishi bilan ortadi. Bu o'rinda ayniqsa tuproqni tashkil etgan xar hil minerallarning suvgaga

bo'lgan munosabati katta rol o'ynaydi. Bordi – Yu, minerallar suvni o'ziga yaxshi qabul qilsa, (gidrofill bo'lsa,) bu minerallarning gigroskopikligi shuncha yuqori bo'ladi, agarda minerallar suvni o'ziga yaxshi qabul qilmasa (gidrofob), bunday minerallarning gigroskopikligi past bo'ladi. Tuproq tarkibida mineral tuzlar miqdorini oshishi, uning albatta, gigroskopiklik qobiliyatini yuqori bo'lishiga olib keladi. Gigroskopik suv miqdori atmosfera havosining suv parlari bilan to'yinganlik darajasiga qarab o'zgarib boradi. Tuproqning xavo suv parlari bilan maksimal to'yingan holati (nisbiy namlik 94 - 96% bo'lganda) singdirilgan maksimal namlik miqdori quruq tuproq massasiga nisbatan protsent hisobida ifodalanib, bu namlikni maksimal gigroskopik suv (MG) deb ataymiz. Bunda tuproq zarrachasi atrofi batamom suv molekulalari bilan o'ralgan bo'ladi.

Parda suv. Tuproq maksimal gigroskopik namlik darajasiga etganda ham tuproq ham tuproq zarrachalarining molekulyar tortish kuchidan bir qismi erkin qolishi mumkin. Mana shu erkin qolgan kuch, xavodan o'ziga nam singdira olmasada, lekin suyuq suv bilan to'qnashganda, bu suvning bir qismini o'ziga singdirib oladi. Bu namlik tuproq zarrachalarini yupqa parda shaklida o'rabi olganligi uchun uni parda suv deb yuritiladi.

Tuproqning maksimal gigroskopikligini aniqlash uchun laboratoriyada E.A.Mitcherlix va A.V.Nikolaev uslublaridan foydalilanadi.

E.A.Mitcherlix uslubida tuproq zarrachalarini maksimal suv parlari bilan to'yintirish maqsadida maxsus eksikatorlarda 10 % li sulfat kislotasi eritmasi yordamida 96-98% nisbiy namlik vujudga keltiriladi. Bu uslub laboratoriyalarda keng tarqaganligi bilan bir vaqtida bir qancha noqulayliklarga ega. Birinchidan, o'quvchi ish vaqtida kislotali eritma bilan aloqada bo'ladi. Yo'l qo'yilgan xar qanday xato uning hayoti uchun xavf tug'dirishi mumkin. Ikkinchidan, eksikatorda 10% li sulfat kislota kontsentratsiyasi vujudga keltirilgan nisbiy namlik va harorat natijasida o'zgarib turadi. Shuning uchun ham ba'zan bu uslubdan cheklangan holda foydalanib, A.V.Nikolayev uslubiga murojat qilinadi. A.V.Nikolayev uslubida eksikatordagi 94 – 96% nisbiy namlik K_2SO_4 tuzining to'yintirilgan eritmasi yordamida hosil qilinadi. Nisbiy namlik atrof muhitning iqlim o'zgarishlari ta'sirida deyarli o'zgarmaydi. Bu qulaylik mazkur uslubni keng qo'llashga sabab bo'ladi.

Bajarish tartibi: Maksimal gigroskopik suvni aniqlash uchun tayyorlangan tuproq namunasidan 5-10 gr olinadi. Tuproq termostatda quritilgan og'zi yopiladigan shisha yoki alyumin byuksga solinadi (buning uchun diametri 5 sm va balandligi 3 sm li shisha stakanchalardan foydalaniladi). Stakancha tuproq bilan analitik tarozida tortiladi, so'ngra og'zi ochiq holda maxsus eksikatorda (Mitcherlix va Nikolaev uslublari asosida tayyorlangan eksikatorlarda) qo'yilib, og'zi darhol berkitiladi. 3-4 kundan so'ng eksikatordan juda ehtiyotkorlik bilan stakanchalar (berkitilgan holda o'lchashdan oldin toza oq material bilan artilishi lozim) olinib yana tortiladi. So'ngra og'zi ochiq holda qayta eksikatorga joylashtiriladi. O'lchash 2-3 kundan keyin yana takrorlanadi. Byukslarda o'zgarmas og'irlik hosil bo'lguncha o'lchash davom ettiriladi. Suv bug'lari bilan to'liq to'yintirilgan stakanchalar og'irlik o'zgarmagandan so'ng termostatga quritish uchun qo'yiladi. Bundan keyingi ishlar gigroskopik namlikni aniqlash kabi olib boriladi, olingan natijalarni shakllantirish yuqoridagi kabi bajariladi.

Maksimal gigroskopik ko'rsatkich tuproq gigroskopik namligini ham o'z ichiga oladi. Maksimal gigroskopik namligi aniqlangan tuproq namunasidan gigroskopik namlikni aniqlashda foydalanish mumkin. Bunda gigroskopik analiz tamom bo'lgandan keyin sovutish va o'lchash ishlarida og'irligi o'zgarmay qolgan tuproq namunasi darhol maxsus eksikatorlarda (Nikolaev usulida K_2SO_4 tuzining to'yingan eritmasi ustida) joylashtirilib, yuqorida bayon etilgan ishlar bajariladi. Ushbu ishning natijalari gigroskopik suvni aniqlash kabi shakllantiriladi.

Kerakli asbob va reaktivlar:



Termostat



Elektron tarozi



Byukslar

Eksikator

10 % li sulfsfat kislotasi, K_2SO_4 ning to'yingan eritmasi yoki uning tuzi.

7-laboratoriya ishi. Tuproqning dala, to'la va kapillyar nam sig'imlarini aniqlash

Ishning maqsadi:

O'simliklar hayoti uchun zarur bo'lgan hamda tuproq qatlamlarida uzoq vaqt davomida o'zlashtirilishi qulay bo'lgan holatda saqlanadigan suv dala nam sig'imi hisoblanadi. Madaniy o'simliklar uchun quruq tuproq qanchalik noqulay bo'lsa, juda sernam, zax tuproqlar ham shunchalik zararlidir. Juda sernam tuproqlarning ko'pchilik teshiklari suv bilan to'lganligi uchun havo oz bo'ladi. Bu esa o'simlik ildizlarini nafas olishi va mikroorganizmlarning hayoti uchun sharoitni yomonlashtirishga olib keladi. Tuproq kovaklaridagi suv miqdori havoga nisbatan uchdan ikki bo'lakni tashkil etganda o'simlik va tuproq mikroorganizmlarining rivojlanishi uchun optimal sharoit mavjud bo'ladi. Tuproq fizikaviy xossalari va o'simliklar uchun qulay sharoit aynan ushbu suvlar bilan bog'liq bo'lgani uchun bu suvlar aniqlash muhim hisoblanadi.

Qisqacha nazariya: Tuproq g'ovak sistema bo'lganligi uchun, ular doimo havo yoki suv bilan to'lgan bo'ladi. Tuproqlardagi bu xil suvlar tuproqning dala, kapillyar, to'la va nam sig'imlariga ajratiladi. Sug'orilgandan yoki yog'in – sochindan so'ng uzoq muddat davomida pastga oqmasdan tuproq kapillyarlarida ushlanib qolingan eng ko'p miqdordagi suv dala nam sig'imi deyiladi va u bosh harflarda DNS deb belgilandi. Tuproq nam sig'iminining bu shakli juda muhim hidrologik konstanta bo'lib, o'simlik uchun zarur bo'lgan suv jamg'armasi hisoblanadi. DNS eng oldin tuproqning muhim

xususiyatlariga mexanik tarkibiga mutanosib holda o'zgarib boradi, ya'ni mexanik tarkibning o'zgarib borishi evaziga tuproqning dala nam sig'imi oshib boradi. Tuproqning profilida mexanik tarkib bir xil yoki bir – biriga yaqin bo'lsa, unda kapillyar muallaq suvlarning miqdori dala nam sig'imi yuqoridan pastga tomon qonuniy ravishda kamayib boradi. Agarda tuproq profili xima – xil mexanik tarkibdan iborat bo'lsa, osilgan kapillyar suvning miqdori yuqoridagi qonuniyatga buysunmaydi, DNS tarkibi bir qatlamni tashkil etgan mexanik tarkibga bog'liq bo'ladi. DNS quyidagi holatlarga bog'liq bo'ladi:

1. Yer osti suvlarining chuqurligi;
2. Tuproq gruntining granulometrik tarkibi;
3. Agregatliligi;
4. Qovushmaning zichligi; bu ikki faktor tuproq tarkibidagi gumus va singdirilgan asoslarning miqdori O'rta Osiyo sharoitida muhim ahamityaga ega emas. S.N.Rijov ko'rsatmalari bo'yicha, er osti suvlari keyinchalik pasayganda ham 1 m qalinlikdagi tuproqda dala nam sig'imi o'zgarmaydi. Bunda yer osti suvlarining pastdan siqilishi tufayli harakatlanishi shu 1 m li qatlamning pastki 50 sm li qavtidan yuqoriga o'tmaydi. Sug'oriladigan zonadagi tuproqlarning hamma tiplarida xuddi shu fraktsiyalar (yirik chang) ko'pchilikni tashkil etadi. A.A.Rode ko'rsatishicha, bu fraktsiyalar yirik zarrali tuproqlarni mayda zarrali tuproqlardan ajratadigna chegara bo'lib xizmat qiladi. O'rta Osiyo sug'oriladigan tuproqlarida dala nam sig'imi o'ziga xos alohida xossalarga ega. Ko'pincha bu xossalalar gruntning qatlamliligi tufayli vujudga keladi.

Dala nam sig'imining oshishiga hamda granulometrik tarkib ta'sirining bir muncha o'zgarishiga sabab bo'ladigan asosiy faktorlar tuproqning serchangligi, ona jinslarning qatlamliligi, tuproqning sho'ranganligi va strukturasiz holga kelganligidan iborat. Keyingi uch faktor sahro zonasida yaqqol ko'ringanligidan bu xil tuproqlarda dala nam sig'imining oshishiga moyillik darhol seziladi. O'rta Osiyo tuproqlari o'zining granulometrik tarkibiga ko'ra o'rtacha DNS ga ega (massaga nisbatan %) qumli va qumloq tuproqlar 8 – 12, engil qumoq 12 – 15, o'rtacha qumoq 16 – 20. Bo'z tuproqlar mintaqasida tuproq sho'rangan bo'lmasa dala nam sig'imiga qarab 1 m qalinlikdagi qatlama quyidagi miqdorda nam zahirasi bo'ladi deb qabul qilingan.(S.N.Rijov,V.E.Eremenko):

Yengil tuproqlarda – har gektarda 2200 m^3
O’rtacha og’irlilikdagi tuproqlarda - 2800 m^3
Og’ir tuproqlarda - 3500 m^3 .

Dalada nam sig’imi (DNS) aniqlashning laboratoriyyada va dala uslublari mavjud. Quyida dalada statsionar sharoitda bu gidrologik ko’rsatkichni aniqlash uslubini beramiz.

Kerakli asboblar:

1. 5m li byuretka.
2. Belkurak.
3. Ketmon.
4. Klyonka (2×2 yoki $3 - 3$ m).
5. mmlarga bo’lingan chizg’ich,mqli qog’oz.
6. Chelak.
7. Pichoq.
8. Alyumin idishchalar.

Bajarish tartibi: DNS aniqlanish kerak bo’lgan maydonda 2×2 m, yaxshirog’i 3×3 m kenglikda statsionar tajriba maydonchasi ajratiladi so’ngra ajratilgan maydonchada to’rt tomondan balandligi $35 - 40$ sm dan iborat marzalar bilan zichlashtiriladi. Bundan maqsad to’yintirish uchun berilgan suv chetga chiqib ketmasligi shart. Ayniqsa, qumli va qumoq tuproqlarda kengligi 1×1 yoki 2×2 m, balandligi esa $30 - 35$ sm dan iborat yog’och yoki temir to’siqlar qo’llaniladi. Shu usulda atrofdan ajratilgan tajriba maydonchasing o’rtasiga solingan suvni hisobga olish uchun millimetrlarga bo’lingan reyka o’rnatalidi.

Dastlab tajriba uchun ajratilgan maydoncha yaqinidan tuproq kesmasi qaziladi. Uning chuqurligi sizot suvigacha, agarda sizot suvi sathi 3 m dan chuqurda joylashgan bo’lsa $2,0 - 2,5$ m chuqurlikkacha bo’ladi. So’ngra vertikal profilda genetik qatlamlar ajratiladi va ularning morfologik yozilmasi beriladi. Har bir genetik qatlamdan 1 metrgacha har 10 sm da, qolgan chuqurlikda sizot suvigacha har 20 sm dagi tuproq hajm massasi aniqlanadi. Bu, shu qatlam g’ovakligini hamda uni to’la to’yintirish uchun zarur. Tuproqning g’ovakligini va namligini bilganimizdan so’ng ma’blum qalinlikdagi tuproqni to’la to’yintirish uchun zarur bo’lgan suv miqdorini hisoblab chiqish mumkin.

Masalan, 1 metr chuqurlikdagi tuproqning g'ovakligi o'rtacha 50% tajribadan oldingi suv jamg'armasi esa $1700 \text{ m}^3/\text{ga}$ teng. To'la to'yintirish uchun zarur bo'lган suv miqdori quyidagicha hisoblanadi:

$$\frac{10000 \times 1 \times 50}{100} - 1700 = 3300 \text{ м}^3 / \text{га сув керак}$$

bo'ladi, ya'ni 330 mm suv ustunini tajriba maydonchasida vujudga keltirish lozim. Ko'pgina tajribalar ko'rsatadiki, tuproq mexanik tarkibiga ko'ra uning 1 m li qatlamini to'la namlash uchun odatda, $1500 - 3500 \text{ m}^3/\text{ga}$ suv yetarli bo'ladi. Tuproq qatlamlari namligi yuqori bo'lsa, bu miqdor biroz kamayadi, past bo'lsa, aksincha bu miqdor oshadi. Yuqorida bayon etilgan ishlar bajarilgandan so'ng bevosita DNS ni aniqlashga kirishiladi.

Tuproqni to'la to'yintirish uchun hisoblab chiqilgan suv tajriba maydonchasiga birdaniga berilmasligi lozim. Uni bir necha qismlarga bo'lib - bo'lib berish kerak, chunki hamma suv birdaniga berilsa, birinchidan suvning chetga chiqib ketish xavfi tug'iladi. Ikkinchidan, tuproq qatlamlarida havo bo'shlig'ining paydo bo'lib qolishi bilan suvning tuproqqa singish tezligi o'zgaradi va nihoyat bu DNS ko'rsatkichiga teskari ta'sir etadi.

Tuproqni suv bilan to'yintirish ishlarini yaxshisi kechasi olib borish lozim. Agarda buni iloji bo'lmasa ishni ertalab boshlash kerak. Yoz kunlari havo haroratining ancha yuqori bo'lishi suvning fizik bug'lanishiga (suv yuzasidan) sabab bo'ladi. Shuning uchun tajriba oxirida $10 - 20 \text{ l}$ suvni qushimcha quyish tavsiya etiladi.

Hisoblangan suv batamom berilgandan so'ng tajriba maydonchasing yuzasi namlikni tuproqdan bug'lanib ketishini kamaytirish maqsadida eng oldin dag'al bo'lмаган о'tlar yoki daraxt shox - shabbalari, kleyonka uning ustiga iloji bo'lsa yana o't, shox - shabba va oxirida $35 - 40 \text{ sm}$ li tuproq tortiladi. Bunda tuproq qatlamlaridagi ortiqcha suvlarning pastki qatlamlarga oqishi uchun sharoit yaratiladi.

Ortiqcha gravitatsion suvlarning pastki qatlamlarga oqishi tuproq granulometrik (mexanik) tarkibiga qarab xilma - xil tezlikda bo'ladi. SHuning uchun ham DNS tajriba tamom bo'lgandan so'ng maъlum vaqt o'tishi bilan aniqlanadi. Binobarin, soz mexanik tarkibli tuproqlarda DNS tajriba maydonchasi berkitilgan kundan boshlab 3 -

5, o'rtacha mexanik tarkibli tuproqlarda 2 – 3, engil va qumli tuproqlarda esa 1 – 2 kunlarda aniqlanadi. Belgilangan kunlar o'tishi bilan tajriba maydonchasing usti ochiladi va undan kerakli qatlamgacha har 10 sm chuqurlikda 3 – 5 marta maxsus parmalar yordamida namuna olinadi. Namuna muljallangan tokchalardan konvert usulida, hech bo'lmasa uchburchak usulida maydonchaning markaziy qismiga yaqin joydan tanlanadi. Agarda bu tokchalar (nuqtalar) maydonchaning chetki qismlarida joylashtirilsa, olingan maъlumotlar bir qancha noto'g'ri bo'lishi mumkin, chunki maydonchaning markazga yaqin joyidan ko'pincha suvlar yon tomonlarga shimilib, bizga kerakli chuqurlikkacha etib bormasligi mumkin. Natijada biz umumiylis hisobda katta xatolikka yo'l qo'yamiz. Shu usulda olingan tuproq namunasidan o'rtacha 15 – 20 g olib darhol aniqlangan (alyumin) idishchalarga solinadi va texnik tarozida uning nam holatidagi og'irligi o'lchanadi (dalada), yoki bunga sharoit bo'lmasa tezda laboratoriyaga etkaziladi. Namlik termik metod yordamida aniqlanadi. (Termik metod ushbu qo'llanmada bayon etilgan). Tuproq namunasi olinishi bilan tajriba maydonchasi usti darhol oldingi usulda berkitiladi. Namlikni qayta ishslash uchun namuna olish yana 1 – 2 kundan keyin takrorlanadi. Namlikni olish texnikasi yuqorida bayon etilgan usulda bajariladi. Agarda xar gal olingan tuproq namligi qatlamlarda deyarli o'zgarmasa yoki yaqinroq bo'lsa namlikni aniqlash ishi to'xtatiladi, aksincha, namlik ko'rsatkichi bir – biridan keskin farq qilsa, bu ish uchinchi marta takrorlanadi.

DNS ni o'rganish bo'yicha olingan oxirgi maъlumotlar quyidagi jadvalda o'z ifodasini topadi.

Tuproq nomi va uning tafsiloti	Tuproq namunasi olingan qatlam, sm	Tajribadan oldingi tuproq namligi	Tuproqning hajm massasi	Dala nam sig'imi				
				Takrorlanishi o'rtacha miqdor, %			Tuproq og'irligiga nisbata n	Tuproq massasiga nisbatan
				1	2	3		

DNSning miqdorini gektar hisobida kubometrda kerakli tuproq qatlamlarida (0 – 50, 0 – 100, 0 – 200 sm va h.k.) ifodalash mumkin.

DNSni dalada aniqlash imkoniyati bo’lmasa, uni laboratoriya sharoitida tuproq qatlamlari buzilmasdan olingen monolitlarda o’rganish mumkin.

Kerakli asboblar:

1. 5m li byuretka.
2. Belkurak.
3. Ketmon.
4. Klyonka (2x2 yoki 3 – 3 m).
5. mmlarga bo’lingan chizg’ich,mqli qog’oz.
6. Chelak.
7. Pichoq.
8. Alyumin idishchalar.

Tuproqning kapillyar va to’liq nam sig’imi aniqlash

Kapillyar nim sig’imi (KNS) ni aniqlash odatda dala va laboratoriya sharoitida olib boriladi.

Laboratoriyada KNS quyidagi usulda aniqlanadi. Balandligi 20 – 25 sm, diametri 2,0 – 2,5 sm bo’lgan shisha trubkalar olinib, bir tomoni batist yoki marli bilan bekitiladi. So’ngra maydalangan va teshiklari 1 mm li elakchalardan o’tkazilgan tuproq bilan sekin silkitish yo’li bilan to’ldiriladi va oldindan tayyorlangan suv bilan to’ldirilgan kristallizator (idish)ga tik qilib qo’yiladi (buning uchun maxsus shtativ o’rnatalishi lozim). Suv trubkaning pastki qismidan kapillyar ko’tarilishi orqali yuqorigi qismi tomon harakatlanadi. Kuzatish trubkalarga solingan tuproqning ustki qismiga suv chiqqunicha davom etadi (suv pardalari natijasida tuproqning ustki qismi yaltiraydi). Mavjud kapilyarlarni suv bilan maksimal to’yinshini ta’minlash maqsadida kuzatish yana 2 - 3 soat davom ettiriladi. Shundan sung kapilyar nam sig’imi aniqlash termik metod yordamida olib boriladi (gigroskopik namlikni aniqlash usuliga qaralsin).

To’liq nam sig’imi (TNS) ni aniqlashni KNS aniqlangan trubkalarda davom ettirish mumkin. Buning uchun KNS aniqlash uchun trubkani suv bilan to’yintirilgan tuproqdan o’rtacha namuna olingandan so’ng shu trubkalar yana idishdagi suvga qayta to’yintirish uchun qo’yiladi. Endi, idishdagi suv qatlami trubkadagi tuproq balandligi bilan teng bo’lishi lozim. Buning sababi – tuproqda butun

kovaklarni suv bilan to'lishini ta'xminlashdir. Tuproqda to'la nam sig'imini hosil qilish uchun trubkalarni ertalabgacha qoldirib ketish mumkin. Ertasi kuni TNS ni termik metod yordamida aniqlash mumkin.

KNS va TNS ni aniqlash va hisoblash tuproqda namlikni o'rghanish usulida olib boriladi.

[TNS] quyidagi formula orqali hisoblash ham mumkin.

$$THC\% = \frac{P}{[x * o] * 100} * 100 \text{ ёки } \frac{P}{XO}$$

TNS – to'la nam sig'imi, tuproq vazniga nisbatan % hisobida,

R – tuproqning umumiyligi, % hisobida,

XO – tuproqning hajm og'irligi, g/sm³.

Misol: Tuproqning umumiyligi (R) 0 – 20 sm li qatlam uchun 58 % ga teng.

Uning hajm og'irligi (HO) esa 1,30 g/sm³. Bunda

$$THC\% = \frac{58}{1,3} = 44,6 \% \text{ га тенг бўлади.}$$

8-laboratoriya ishi. Plastiklikning quyi va yuqori chegarasini aniqlash

Ishning maqsadi: Haydalgan yerning sifati, haydov vaqtida sarf bo'ladigan kuch va mablag' miqdori asosan tuproqning plastiklik darajasiga bog'liqdir.

Qisqacha nazariya: Plastiklik - deb tuproq massasining ishlov asboblariga yopishishiga (ilashishiga) aytildi. U tuproqning eng muhim fizik mexanik xossasi hisoblanadi. Plastiklik nam tuproqdan metall plastinkani ajratib olish uchun sarf bo'ladigan kuch bilan o'lchanadi. Bu kuch g/sm² da ifodalanadi.

Nam tuproq massasining yopishqoqligi plastlikning quyi va yuqori chegarasi o'rtasidagi eng katta ko'rsatkichga ega. Plastiklik namlikning ma'lum darajada oshib borishi bilan o'zgaradi. Tuproq o'ta namlanganda esa- plastiklik ko'rsatkichi pasayadi. Chunki tuproq o'ta namlanganda plastinka bilan tuproq massasi orasida erkin suv pardasi vujudga kelib, ular o'rtasidagi plastiklik kuchi birmuncha kamayadi. Demak, mexanik kuch (g/sm hisobida) dastavval orta

borib, namlik ko'paygan sari – kamayadi. Shuning uchun plastiklik eng kam bo'lган sharoitda haydash kerak. Tuproqning bunday namlik holati plastlikning quyi chegarasi atrofida bo'lib, bu "fizik yetilganlik" deb ataladi.

Bajarish tartibi

Tuproq plastikligining quyi chegarasini aniqlash. Bu metod A.M. Vasil'ev tomonidan taklif etilgan "balansirli konus" asbobning konussimon qismini o'z og'irligi ta'sirida (asbobning sof og'irligi 76gr) tuproqdan tayyorlangan xamirsimon massaga Yumm chuqurlikka kirishi va bu tuproq massasining namligini aniqlashga asoslangan.

